O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASINING BOJXONA INSTITUTI

O‘ZBEKISTON BOJXONA AXBOROTNOMASI

ТАМОЖЕННЫЙ ВЕСТНИК УЗБЕКИСТАНА

CUSTOMS BULLETIN OF UZBEKISTAN

- BOJXONA ISHINI TAKOMILLASHTIRISH
- IQTISODIY XAVFSIZLIK MASALALARI
- HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATI
- TAHLILIY MA’LUMOTLAR



№ 2 (17) / 2025

ISSN 2181-9815

Muassis:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASINING BOJXONA INSTITUTI

O‘ZBEKISTON BOJXONA AXBOROTNOMASI

(iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-amaliy jurnal)

ТАМОЖЕННЫЙ ВЕСТНИК УЗБЕКИСТАНА

(экономический, юридический, научно-практический журнал)

CUSTOMS BULLETIN OF UZBEKISTAN

(economic, juridicial, scientific-practical journal)

№2 (17)

2025-yil

Jurnal 2019-yil 10-yanvar kuni O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida ro‘yxatga olingan.
Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida 1005-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal 2019-yildan buyon nashr qilinmoqda.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-iyundagi 319/6-sonli qarori bilan yuridik fanlar hamda 2022-yil 30-sentyabr 325/6-sonli qarori bilan iqtsodiyot fanlari bo‘yicha chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Mavlonov Akmalxuja Yusupovich – Tahrir hay'ati raisi, yu.f.f.d., Bojxona qo‘mitasi raisi
Xamrayev Mira'zam Miraxmatovich – Bosh muharrir, dotsent, Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti boshlig‘i v.v.b.
Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich – i.f.d., professor, O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi
Mamasiddikov Muzaffarjon Musajonovich – yu.f.d., professor, O‘zbekiston Respublikasi Favquloddagi vaziyatlar vazirligi akademiyasi boshlig‘i
Toshmatov Shuhrat Amonovich – i.f.d., professor, O‘zbekiston Milliy universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori
Xasanov Rustam Rabbimovich – i.f.d., professor, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i
Ergashev Vosidjon Yoqubovich – yu.f.n., professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti direktori o‘rinbosari
Allayarov Shamsiddin Amanullayevich – i.f.d., professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Savdo ishi kafedrasi mudiri
Pulatov Yuriy Sayfiyevich – yu.f.d, professor, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori
Yuldashev Aziz Ergash o‘g‘li – yu.f.d., Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrasi professori
Aripov Said-Azim Aripovich – i.f.f.d., dotsent, FVV Fuqaro muhofazasi instituti Ilmiy-tadqiqot ishlarni muvofiqlashtirish va innovatsiyalar bo'limi professor-yetakchi xodimi
Salixov Erkin Tagirovich – Bojxona qo‘mitasining Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini tashkil etish boshqarmasi boshlig‘i
Olimjonov Farxod Olimjonovich – Bojxona qo‘mitasining Strategik rejalashtirish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish boshqarmasi boshlig‘i
Murzayev Rustam Kamilovich – t.f.f.d., Bojxona qo‘mitasining Markaziy bojxona laboratoriyasi boshlig’i o‘rinbosari
Otaniyozov Bayotbek Jumabayevich – p.f.n., dotsent, Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti Bojxona ishi fakulteti boshlig‘i
Saidov Abdusobir Abduraxmonovich – t.f.d., professor, Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti Fahriylar uyushmasi raisi, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti professori
Azizov Sherzod O‘ktamovich – i.f.d., professor
Muratova Shohista Nimatullayevna – i.f.d., professor, Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti Tovarlarni tasniflash va notarif nazorat kafedrasi boshligi
Shadmankulov Anvar Ablakulovich – i.f.n., dotsent, Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti Maxsus fanlar kafedrasi boshlig‘i
Mirsagatov Murad Atxamovich – f.-m.f.n, dotsent, Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti Tovarlarni tasniflash va notarif boshqarish kafedrasi dotsenti
Nigmanov Erkin Abdulmugniyevich – Mas’ul muharrir, i.f.n, dotsent, Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i

Tahrir hay’atining fikri muallif fikridan o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Maqolada keltirilgan dalillar va ma’lumotlar uchun muallif javobgar. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to‘g‘rilash va qisqartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan.

ISSN 2181-9815
© Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit	**T.Pardayev, F.Farxodov, A.Mahmudov.** Bojxona to'lovlarini ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash yo'llari	**5**
08.00.13 – Menejment	**Sh.Tursunboyev.** Sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishda vakolatli iqtisodiy operator maqomining ahamiyati	**14**
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti	**Sh.Ismatullayeva.** Bojxona xizmatlarini soddalashtirish: huquqiy uyg'unlashuv va tadbirkorlik uchun amaliy natijalar	**22**

YURIDIK FANLAR

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi	**M.Shomurotov.** O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari hisobdorligini takomillashtirish istiqbollari	**33**
12.00.10 – Xalqaro huquq	**A.Irisqulov.** Jahon bojxona tashkilotining BMT, uning ixtisoslashgan tashkilotlari va dasturlari bilan institutsional-huquqiy hamkorligi	**42**

KIMYO FANLARI

02.00.09 – Tovarlar kimyosi	**E.Rayxonov.** Tovarlarni identifikatsiya qilishda intellektual identifikatsiya tizimlarini joriy etish orqali inson omilini kamaytirish imkoniyatlari	**51**

TEXNIKA FANLARI

05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv, axborotni qayta ishlash	**Э.Бакиев, А.Саидов.** Определение таможенной стоимости товаров с помощью моделей линейной и параболической регрессии	**56**

TAHLILIY MAQOLALAR

H.Tangriyev. O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatida ochiqlikni ta’minlash: muammo va istiqbollar	**62**
B.Otaniyozov. Tashqi iqtisodiy faoliyat subektlarini bojxona auditiga tanlashda xavf darajalariga ajratishning ahamiyati	**66**
J.Allambayev. Bojxona sohasida ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishda ma’muriy ogohlantirish jazosini qo‘llash institutini joriy etish istiqbollari	**75**
M.Mirsagatov. “Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi”ni takomillashtirishning ayrim masalalari to‘g‘risida	**81**

TAHLILIY MAQOLALAR

S.Sabirov, U.Saidov. O‘zbekistonda milliy transport-logistikasini rivojlantirishning ayrim masalalari **86**

S.Shomirzayev. Kontrafakt mahsulotlarining noqonuniy aylanuviga qarshi kurashishda bojxona organlarining roli **93**

Sh.Lutpullayev. O'zbekiston bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashni kengaytirishda xorijiy davlatlar amaliyoti **99**

А.Девяткин. Интеллектуальные тренажёрные технологии в армии Китайской Народной Республике и их значение для модернизации огневой подготовки в Республике Узбекистан **107**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

UDK: 336.24.07

BOJXONA TO'LOVLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA PROGNOZLASH YO'LLARI

Pardayev To‘lqin Nasirovich,
Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti professori, iqtisod fanlari doktori,
e-mail: tulkinpardayev65@mail.ru;
Farxodov Farrux Furqatovich,
Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti katta o'qituvchisi,
e-mail: farrux.farxodov@gmail.com;
Mahmudov Aminjon Azimovich,
Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti mustaqil izlanuvchisi

ПУТИ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ТАМОЖЕННЫХ ПЛАТЕЖЕЙ НА ОСНОВЕ ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ

Пардаев Тулкин Насирович,
Профессор Таможеного института Таможенного комитета, доктор экономических наук,
e-mail: tulkinpardayev65@mail.ru;
Фарходов Фаррух Фуркатович,
Старший преподаватель Таможеного института Таможенного комитета,
e-mail: farrux.farxodov@gmail.com;
Махмудов Аминжон Азимович,
Самостоятельный соискатель Таможенного института Таможенного комитета

THE WAYS OF FORECASTING CUSTOMS PAYMENTS BASED ON ECONOMETRIC MODELING

Tulkin Nasirovich Pardaev,
Professor of Customs Institute of the Customs Committee, Doctor of Sciences,
e-mail: tulkinpardayev65@mail.ru;
Farkhodov Farrukh Furkatovich,
Senior teacher of Customs Institute of the Customs Committee,
e-mail: farrux.farxodov@gmail.com;
Mahmudov Aminjon Azimovich,
Independent researcher of Customs Institute of the Customs Committee

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlari miqdorining 2010–2024-yillardagi dinamikasi o‘rganilgan hamda ARIMA (1,1,2) modeli asosida 2025–2028-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan. Tadqiqotda vaqtli qatorlar tahlili, statsionarlik testlari, model tanlash mezonlari hamda qoldiqlar tahlili asosida ARIMA modeli samaradorligi*

baholangan. Natijalar O‘zbekiston bojxona tizimida fiskal barqarorlikni ta’minlash, budjet daromadlarini prognozlash va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda ARIMA modelidan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *ARIMA modeli, bojxona to‘lovlari, prognozlash, vaqtli qator, statsionarlik, davlat budjeti.*

Аннотация. *В данной статье изучена динамика объема таможенных платежей в Республике Узбекистан за 2010–2024 годы, а также на основе модели ARIMA (1,1,2) разработаны прогнозные показатели на 2025–2028 годы. В исследовании оценена эффективность модели ARIMA на основе анализа временных рядов, тестов стационарности, критериев выбора модели и анализа остатков. Результаты показывают, что использование модели ARIMA способствует обеспечению фискальной стабильности, прогнозированию доходов бюджета и укреплению экономической безопасности в таможенной системе Узбекистана.*

Ключевые слова: *Модель ARIMA, таможенные платежи, прогнозирование, временной ряд, стационарность, государственный бюджет.*

Abstract. *This article examines the dynamics of customs revenue in the Republic of Uzbekistan for the period 2010–2024 and develops forecast indicators for 2025–2028 based on the ARIMA (1,1,2) model. The study evaluates the effectiveness of the ARIMA model using time series analysis, stationarity tests, model selection criteria and residual diagnostics. The results demonstrate that applying the ARIMA model can effectively contribute to ensuring fiscal stability, forecasting budget revenues and strengthening economic security within Uzbekistan‘s customs system.*

Keywords: *ARIMA model, customs revenues, forecasting, time series, stationarity, state budget.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida budjet daromadlarini yanada oshirishda iqtisodiy rejalashtirish va barqarorlikning rivojlantirishda bojxona to‘lovlari miqdorini prognozlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bojxona daromadlarining aniq prognozlari mamlakat uchun davlat moliyasini samarali boshqarishda, likvidlikni ta’minlashda hamda infratuzilma rivojlanishini yanada qo‘llab-quvvatlash imkonini taqdim etadi. Ushbu prognozlarning aniqligini oshirish uchun turli usullar, jumladan, statistik usullar hamda ekonometrik modellar keng qo‘llanilib kelinmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bojxona daromadlarini aniqlik bilan prognozlash fiskal siyosatni samarali yuritishda va davlat xarajatlarini rejalashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi bojxona to‘lovlari miqdorining vaqtli qatorini tahlil qilish va ARIMA modeli asosida prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Bojxona to‘lovlari miqdorini prognozlash bo‘yicha ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan ilmiy nazariy hamda ekonometrik tadqiqotlar olib borilgan.

Jordan Simonov va boshqalarning fikricha “davlat budjetini rejalashtirish va likvidlikni ta’minlashda bojxona daromadlarining aniq prognozlarining ahamiyati ular daromadlarni yig‘ishni optimallashtirishda va xarajatlarni nazorat qilishda imkon beradi”[1, 111-b.].

Hafiz Adam Muslimning fikricha “bojxona daromadlari infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Ishonchli prognoz ko‘rsatkichlari iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi loyihalarga resurslarni samarali taqsimlash imkonini yaratadi”[2, 47-b.].

Inna Kiyanchukka ko‘ra “bojxona to‘lovlari barqaror daromad oqimini ta’minlash orqali mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga hissa qo‘shgan holda iqtisodiy barqarorlik muammolarni hal qilishda va mamlakatning moliyaviy ta’minotida ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi”[3, 32-b.] deb aytgan.

Vladimir Martinyuk va boshqalarning ta’kidlashicha “bojxona tushumlarini prognoz qilishda odatda ARIMA va regressiya modellardan keng qo‘llaniladi. Ushbu modellar kelajakdagi tendensiyalarni prognozlashda tarixiy ma’lumotlarni tahlil qiladi, shuningdek ARIMA modeli ba’zi hollarda ajoyib aniqlikni namoyish etadi”, [4, 648-b.] degan fikrlar bildirilgan.

Zhang Dabinga ko‘ra “bojxona daromadlarini

prognozlashda dinamik modellar qo‘llanilib, ushbu modellar turli iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda eksport qiymatlarini prognozlashda samarali statistik usul sifatida qo‘llaniladi”[5, 630-b.]. Mualliflar, tadqiqot natijalariga ko‘ra Xitoy davlati Xubey provinsiyasining eksport qiymati prognoz qilingan davrda o‘sishi ta’kidlangan. Prognoz ko‘rsatkichlari GM(1,1) modelidan foydalangan holda tarixiy ma’lumotlar tahliliga asoslangan bo‘lib, yuqori prognoz aniqligini taqdim etgan.

Ekaterina Zavyalovaning fikricha “bojxona to‘lovlarining aniq prognozlari hukumatning iqtisodiy faoliyatga zarar bermasdan daromadlarni optimallashtirish uchun tariflar va bojlarni o‘zgartirish imkonini beradi”. Muallifning ilmiy natijalariga ko‘ra bojxona to‘lovlarini qabul qilishdagi salbiy kamchiliklarning asosiy sabablarini belgilagan holda bojxona to‘lovlarining to‘liqligi va o‘z vaqtida olinishi ustidan bojxona organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritgan.

Liepa Mikulevichitining fikricha “ARIMA modeli chiziqli bo‘lmagan ma’lumotlar to‘plami va bojxona daromadlariga ta’sir qiluvchi tashqi omillar ta’sirida mustahkam statistik usul hisoblanadi” [6, 1-8-b.]. Muallifning tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatdiki, ARIMA (1, 3) modeli bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari bojxona tushumlarining potensial pasayishini ko‘rsatgan holda mamlakat iqtisodiyotida yaqin kelajakda daromadlarni oshirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarurligini taklif etadi.

Yuafanda Kholfi Hartono ilmiy ishlanmalarida “Indoneziya davlatida neyron tarmoqlar import bojlari daromadlarini prognoz qilishda Holt-Winters eksponentsial tekislash bilan solishtirganda yuqori aniqlikni namoyish etganligini tasdiqladi”[7, 63-75-b.].

Le Thi Anh Tuyetga ko‘ra “Vyetnamda bojxona tushumlarining o‘zgarishiga tariflarni pasaytirishning o‘zaro bog‘liqligini prognozlashda turli omillarning bojxona daromadlariga ta’sirini muhimligini ta’kidlagan”[8, b.19]. Muallifning tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bojxona tariflarni pasaytirish orqali bojxona tushumlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi o‘z isbotini topdi. Shuningdek, bojxona tariflari pasaytirilsa, import aylanmasi oshadi, import-eksport korxonalari tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasi yaxshilanadi hamda kontrabanda va savdo firibgarliklari kamayishiga olib keladi.

M.M.Tsvilga ko‘ra “tovarlar toifasi uchun bojxona qiymati va vaznini muvaffaqiyatli prognozlashda bojxona bilan bog‘liq istiqboldagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni amaliy qo‘llanilishini ko‘rsatadi”[9, 26-b].

Yana Bugrimovaga ko‘ra “bojxona faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni iqtisodiy o‘lchamlarni va izohlashni aniq tushunishni taklif qiluvchi maxsus ko‘rsatkichlarni taqdim etadi” [10]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra ishlab chiqilgan ekonometrik modeldan foydalangan holda, eksport va import faoliyatining kelajakdagi tendensiyalarini prognozlashda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ta’sirida o‘z ahamiyatini oshiradi.

Gunnar Bardsen va boshqalarning fikricha “onlayn xaridlarning tez sur’atlar bilan o‘sishi va turli mamlakatlar o‘rtasida mahsulotlarning harakatlanishi natijasida hukumat har bir mamlakat iqtisodiyotini saqlash uchun ma’lum bir to‘lovni amalga oshirishda muhim jarayondir” [11, 245-b.] deb o‘zlarini ilmiy ishlarida keltirgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda ekonometrik vaqt qatorlari tahlili usulidan foydalanilgan. ARIMA modeli orqali bojxona to‘lovlarining o‘tgan yillardagi statistik dinamikasiga asoslangan holda 2025–2028-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda 2010-2024-yillar davomida bojxona to‘lovlari statistik tahlil qilinib, iqtisodiy jarayonlar va tashqi savdo aylanmasining o‘sish tendensiyalari aniqlanib, ARIMA modeli yordamida 2025–2028-yillar uchun bojxona to‘lovlarini prognozlash amalga oshirildi. Iqtisodiy jarayonlarni prognozlashda ARIMA modeli vaqtli qatori ma’lumotlarini samarali modellashtirishda va prognozlash qobiliyati tufayli muhim statistik usuli sifatida keng qo‘llanilgan.

ARIMA modelining kuchli tomonlaridan biri bu uning soddaligi, moslashuvchanligi va har xil turdagi ma’lumotlar namunalarini, shu jumladan, tendensiyalarni va mavsumiylikni boshqarish qobiliyati bo‘lib hisoblanadi. Bu uni kelajakdagi iqtisodiy dinamikani prognozlashda o‘z ta’sirini ifodalaydi.

Mohd Faizan Rizvi va boshqalarga ko‘ra

“ARIMA modeli vaqtli qatorini prognozlashda sodda yondashuvi bilan mashhur bo‘lib, uni yangi boshlanuvchi tahlilchilardan tajribali iqtisodchilargacha bo‘lgan keng doiradagi foydalanuvchilar uchun ochiq qiladi” [12, 3782-b]. Unga ko‘ra ARIMA modeli ilg‘or tadqiqotlarni tahlil qilishda va ularning mavsumiy ma’lumotlar namunalari bilan ishlashda mustahkam prognozlarini taqdim etadi.

Elisabeth Brielin Sinuga ko‘ra “ARIMA modeli milliy iqtisodiy o‘sishni prognoz qilishda, xususan, YaIMni prognozlashda muvaffaqiyatli qo‘llanilishini ta’kidlagan” [13, 1261-b.]. Unga ko‘ra, Indoneziyada ARIMA (0,1,0) (0,0,1) modeli strategik iqtisodiy rejalashtirishda yordam beruvchi choraklik YaIMni prognozlashda samarali ekanligi aniqlangan.

ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average) modeli vaqtli qatorlarini prognozlash uchun ishlatiladigan mashhur ekonometrik modeldir.

U avtoregressiv (AR) komponentni va harakatlanuvchi o‘rtacha (MA) komponentni qamrab oladi va vaqtli qatorni statsionar qilishda farqni o‘z ichiga oladi.

ARIMA modeli formulasi uchta komponentni o‘z ichiga oladi ARIMA (p, d, q) sifatida belgilanadi, bu erda:

p - modeldagi kechikkan kuzatuvlar soni (avtoregressiv qism)ni ifodalaydi.

d - xom kuzatuvlar necha marta farqlanishini (integratsiyalashgan qism) anglatadi.


q - harakatlanuvchi o‘rtacha oynaning o‘lchami (harakatlanuvchi o‘rtacha qismi)ni ifodalaydi.

ARIMA(p, d, q) modelining umumiy shakli quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$yt=a+\beta 1yt-1+\beta 2yt-2+\cdots+\beta pyt-p+\vartheta 1\epsilon t-1+$$
$$+\vartheta 2\epsilon t-2+\cdots+\vartheta q\epsilon t-q+\epsilon t \quad (1)$$

bu erda, yt - t vaqtdagi farqli vaqtli qatorining qiymati (d marta farqlangandan keyin), a-doimiy atama, βt=(i=1,2,..., p uchun) avtoregressiv qismning koeffitsentlarini ifodalaydi, ϑq = (j=1,2,..., q uchun) — harakatlanuvchi o‘rtacha qismning koeffitsentlarini izohlaydi ϵt - t vaqtidagi xato atamasi (white noise).

Ekonometrik tadqiqotni ishlab chiqishda Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari manbalaridan foydalangan holda 2010-2024-yillardagi bojxona to‘lovlari miqdoridan iborat 44 ta choraklik kuzatuvlarni o‘z ichiga olgan.



1-rasm. Bojxona to‘lovlari miqdorining vaqt bo‘yicha tahliliy grafik tasviri

Ekonometrik prognozning dastlabki bosqichida bog‘liq o‘zgaruvchining tahliliy grafik tasviri 1-rasmda keltirilgan.

Bojxona to‘lovlari miqdorini 2013-yilning 1-choragidan 2024-yilning 1-choragigacha bo‘lgan davr tahliliy grafik tasviri keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra tahlil qilingan davrda bojxona to‘lovlari sezilarli darajada o‘sganligini ko‘rish mumkin. Ushbu iqtisodiy jarayonda tashqi savdo faolligining oshganini hamda bojxona amaliyotida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar natijasi ko‘zga tashlanmoqda.

O‘sish sur’atlarining 2018-yildan keskin jadallashuvi import amaliyotlarida qo‘llanilgan boj siyosatining optimallashishi natijasida yuzaga kelgan.

Shuningdek, 2020-yilning 3-choragida global savdoga ta’sir qilgan COVID-19 pandemiyasi iqtisodiy uzilishlar tufayli ba’zi tebranishlarni yuzaga keltirgan. 2020-yildan keyingi davrda o‘sish holati tashqi savdo

aylanmasi faolligining rivojlanishi fonida global uzilishlarda tiklanish jarayonini namoyon etgan.

imkonini yaratdi. Unit-Root test natijalari va MacKinnon qiymati statistik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib, ma’lumotlarning

1-jadval

Milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdorining Unit-Root testi


customs_fees	Test Statistic	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value	p-value for Z(t)
	-9.229	-3.634	-2.952	-2.610	0.0000

Ekonometrik prognozning keyingi milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdorining statsionarlik darajasi baholandi hamda uni aniqlashda Unit-Root testi qo‘llanildi (1-jadval).

1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdori -9.229 qiymatni tashkil etib, tashqi savdo

statsionarligini tasdiqlagan. 1-jadvalga ko‘ra, ARIMA modelining d parametri mos kelishini ko‘rsatuvchi d=1 qiymatini hosil qildi hamda vaqtli qatorlarning birinchi farqlanishidan keyin statsionarlikka erishdi.

Navbatdagi bosqichda modelning vaqtli qatorlar laglari orasidagi bilvosita



2-rasm. Modelning laglari orasidagi bilvosita korrelyatsiya grafigi

aylanmasida bojxona amaliyotining naqadar muhimligini dalolat beradi. Unga ko‘ra statistik qiymatning ahamiyatiga ega bo‘lgan 1%, 5% va 10% chegaralaridan pastligini ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, MacKinnon qiymati Z(t)=0,0000 bilan minimal bo‘lib, bu testdan milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdorining statsionar ekanligini ko‘rsatadi.

ARIMA modeli asosida ekonometrik tadqiqotni prognozlashda vaqtli qatorlarni tahlil qilishda statsionar ketma-ketlik davriy jarayon o‘tishi bilan muhim statistik xususiyatlarni saqlab qolgan, bu esa ishonchli prognozlar va xulosalar chiqarish


korrelyatsiyani aniqlovchi p ning qiymati keltirilgan (2-rasm).

Yuqoridagi 2-rasmga ko‘ra, ikki va uchta kechikishdan tashqari, boshqa barcha kechikishlar bilvosita korrelyatsiya tahlilida ishonch oralig‘ida joylashgan. Unga ko‘ra, aksariyat kechikishlar statistik ahamiyatga ega va ular ishonch oralig‘ida joylashgan.

2-rasmdagi chizma ma’lumotlaridan, 0,1 yoki 2 p-qiymatidan foydalanish maqsadga muvofiq. Aksariyat kechikishlar ishonch oralig‘iga mos keladi.

ARIMA modelining navbatdagi qadamida modelning laglari orasidagi bevosita

korrelyatsiyani tasvirlovchi q ning qiymati aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Modelning laglari orasidagi bevosita korrelyatsiya grafigi

3-rasm ma'lumotlaridan asoslanib ARIMA modelidagi kechikishlar o'rtasidagi mustahkam korrelyatsiyani namoyish etgan, barcha kechikish qiymatlari belgilangan ishonch oralig'ida joylashgan. Bu shuni anglatadiki, kechikish qiymatlari statistik jihatdan ahamiyatli va istiqbolli prognoz ko'rsatkichlarini taqdim etadi.

Shuningdek, barcha kechikishlar ishonch oralig'ida bo'lganligi sababli, bu ularning modelda foydalanish uchun ishonchli ekanligini ko'rsatadi. Ushbu qiymatlardan birini tanlash qarori ARIMA modelida harakatlanuvchi o'rtacha parametr q uchun qiymat tanlashga ishora qiladi. Tadqiqot bo'yicha kuzatilgan ma'lumot 0 dan 1 gacha bo'lgan qiymatlar mos ekanligini va ishonch oraliqlarida joylashganligi sababli, ushbu diapazonda q qiymatini tanlash tavsiya etiladi.

Modelni prognoz qilishda ARIMA optimal invariant modellarini tanlashda ARIMA(0,1,1), ARIMA(0,1,2), ARIMA(1,1,1), ARIMA(1,1,0)

2-jadval

Milliy iqtisodiyotda bojxona to'lovlari miqdori bo'yicha ARIMA (1,1,2) modeli ekonometrik tenglama ko'rsatkichlari

D.customs_fees	*Coef.*	*St.Err.*	*t-value*	*p-value*	*[95% Conf*	*Interval]*	*Sig*
Constant	4254.3	457172.22	0.91	0.365	-481786.78	1310295.4	
L	0.954	0.104	9.16	0	0.75	1.158	**
L	-1.662	0.086	-19.30	0	-1.831	-1.494	**
L2	0.836	0.073	11.50	0	0.693	0.978	**
Constant	2595.31	56095.659	10.21	0	2649.84	2540.78	***

Mean dependent var	2015.187	*SD dependent var*	6838.052
Number of obs	39	*Chi-square*	382.161
Prob > chi2	.	*Akaike crit. (AIC)*	1157.782

**** p<.01, ** p<.05, * p<.1*

ARIMA(2,0,1) va ARIMA(1,1,2) ko‘rinishidagi modellardan qo‘llanildi. Ushbu modellar orasidan eng yaxshi natijaga ega ARIMA(1,1,2) modeli tanlab olingan (2-jadval).

ARIMA modeli regression natijasiga asoslanib, model uchun ekonometrik tenglama quyida keltirilgan.

D.customs_feest=β0+ϕ1D.customs_feest−1+ϵt+θ1ϵt−1+θ2ϵt−2 (3)


2-jadvalga ko‘ra ARIMA(1,1,2) modeli quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi.

D.custom_feest=4254.3+0.95D.customs_feest−1+ϵt−1.66ϵt−1+0.83ϵt−2 (2)

Keyingi bosqichda ARIMA(2,1,0) modeli natijaviy o‘zgaruvchining o‘rtacha qiymatlari va qoldiqlar grafik tasviri bo‘yicha tahlili ishlab chiqildi.

statistik aloqani samarali qo‘lga kiritish qobiliyatini taqdim etgan.

Navbatdagi bosqichda milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari ARIMA (1,1,2) modelining haqiqiyligi ma’lum mezonlar asosida baholandi. Bu qoldiqlarning statsionarligini tekshirish va avtoregressiv (AR) va harakatlanuvchi o‘rtacha (MA) qoldiqlarini baholashni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ARIMA modelini prognozlashda birlik doirasidagi yaqinlashuvi ham tekshirildi.



4-rasm. Milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdori bo‘yicha ARIMA (1,1,2) modeli qoldiq qiymatlari grafigi

(4-rasm).

Tadqiqot bo‘yicha stata dasturidan foydalangan holda ARIMA(1,1,2) modeli bo‘yicha tashqi savdo amaliyotlarini yanada rivojlantirishda hamda budjet daromadlarini oshirishda milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdorining 2025-yildan

3-jadval


Milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdorining 2025-2028-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlari (mln. so‘mda)

Yillar	Pessimistik prognoz	Optimistik prognoz	Prognoz
2025	67 740 327	83 328 767	74 421 767
2026	75 912 274	86 370 819	79 491 819
2027	81 415 263	91 678 541	86 526 541
2028	83 215 381	93 705 583	88 439 671

4-rasmga asoslanib, ARIMA(1,1,2) modeli stoxastik muvozanatga erishdi, bu qoldiqlarning belgilangan vaqt oraliqlaridagi vizual tasviridan dalolat beradi. Ushbu tasvir ARIMA modelning ma’lumotlarga mos kelishini va ma’lumotlar to‘plamidagi asosiy

2028-yilgacha tasodifiy omillarni hisobga olmagan holda prognoz ko‘rsatkichi ishlab chiqildi (3-jadval)

Tadqiqot bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan



5-rasm. 2010-2024-yillar davomida bojxona to‘lovlarining o‘zgaruvchanligi va 2025-2028-yillar uchun prognoz grafigi

milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdori 2013-2024-yillar hamda 2025-2028-yillarda bojxona to‘lovlari miqdori hamda prognoz grafiklar tasviri keltirilgan (5-rasm).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ARIMA (1,1,2) modeli asosida milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdori 2025-2028-yillarda tasodifiy ekzogen va endogen omillarini hisobga olmagan holda 2025-yilda 74 421 767 mln. so‘m, 2026-yilda 79 491 819 mln. so‘m, 2027-yilda 86 526 541 mln. so‘m hamda mos ravishda 2028-yilda 88 439 671 mln. so‘mga yetishi prognoz qilindi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdori 2025-2028-yillarda bojxona to‘lovlari miqdori ARIMA (1,1,2) modeliga asoslangan ekonometrik prognoz 2025-2028-yillar uchun quyidagicha izohlandi.

Bojxona daromadlarining barqaror o‘sishining ta’sirini baholash: Ekonometrik prognoz natijalari bojxona to‘lovlari miqdorining 2025-yildagi 74 421 767 mln. so‘mdan 2028-yilda 88 439 671 mln. so‘mgacha ko‘tarilishining izchil o‘sishini ko‘rsatmoqda. Unga ko‘ra tashqi savdoning barqaror o‘sishi fonida bojxona to‘lovlari to‘lanadigan import hajmi va qiymatida ijobiy trayektoriyadan dalolat beradi. Bojxona tushumlarining barqaror o‘sishi iqtisodiyotning umumiy fiskal siyosatiga barqaror savdo oqimlari bilan hissa qo‘shadi.

Milliy budjet daromadlariga ta’sirni baholash: ushbu natijaga ko‘ra davlat xizmatlari, infratuzilma va rivojlanish loyihalariga investitsiya kiritish orqali qo‘shimcha fiskal amaliyotini taqdim etadi.

Bojxona to‘lovlari miqdori iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘lishi: savdo hajmining kengayishi, jumladan, xom-ashyo, mashinalar va iste’mol tovarlari importi o‘sib borayotgan iqtisodiy faollik va jahon bozorlariga integratsiyalashuvdan dalolat beradi.

Savdo siyosatini kuchaytirish imkoniyati ta’sirni baholash: tashqi savdo oqimining o‘sishi bilan mamlakat iqtisodiy foydani oshirish uchun foydali mintaqaviy hamda ikki tomonlama savdo bitimlarini amalga oshiradi. Bojxona to‘lovlarining prognoz qilinadigan o‘sishi bojxona operatsiyalarini soddalashtirish, qayta ishlash muddatlarini qisqartirish va samaradorlikni oshirish uchun ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun mantiqiy asos yaratadi.

Ekzogen omillarga qaramasdan barqarorlik prognoz ko‘rsatkichlarini tasodifiy tashqi

zarbalarni aniq istisno etadi. Oddiy sharoitlarda ham iqtisodiyot bojxona daromadlarining kuchli o‘sishini namoyish etadi. Agar qulay huquqiy asos hamda bozor sharoitlari joriy etilsa, bojxona to‘lovlari prognozlardan yanada oshib ketishiga olib keladi.

Bojxona to‘lovlarining prognoz qilinayotgan o‘sishi milliy iqtisodiyotda savdo-iqtisodiy rivojlanishning ijobiy istiqbollarini aks ettiradi. Bu savdo hajmining oshishi, fiskal barqarorlik va kelgusida siyosat va infratuzilmani yaxshilash imkoniyatlarini bildiradi. Shuningdek ushbu tendensiyalar nafaqat barqaror iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlabgina qolmay, balki iqtisodiyotni globallashuv va savdo jarayonlarini raqamlashtirishdan foyda olish imkoniyatini oshiradi.

REFERENCES

1. Jordan, Simonov., Zoran, Gligorov. (2021). Customs Revenues Prediction Using Ensemble Methods (Statistical Modelling vs Machine Learning). World Customs Journal, doi: 10.55596/001c.116452, b.111-128.

2. Hafizh, Adam, Muslim. (2022). Time Series Analysis for Customs Revenue Prediction using Arima Model in Python. Journal of Information Technology and Its Utilization, doi: 10.56873/jitu.5.2.4927, b.47-55.

3. Inna, Kiyanchuk. (2017). Influence of customs payments on the economic security of the country, problems and ways of overcoming. Baltic Journal of Economic Studies, 3(3), doi:10.30525/2256-0742/2017-3-3-32-37, b.32-37.

4. Volodymyr, Martyniuk., Tomasz, Wołowiec., Elena, Mieszajkina. (2021). 3. Planning and Forecasting Customs Revenues to the State Budget: A Case Study of Ukraine. European Research Studies Journal, doi: 10.35808/ERSJ/2301, b .648-665

5. Zhang, Da-bin., Zhu, Hou., Zhang, Jing-guang. (2009). Forecasting of Customs Export Based on Gray Theory. doi: 10.1109/BIFE.2009.148, b.630-633.

6. Liepa, Mikulevičiūtė. (2022). Modelling Customs Revenue in Ghana Using Novel Time Series Methods. Applied Computational Intelligence and Soft Computing, 2022, doi: 10.1155/2022/2111587, b.1-8.

7. Yuafanda, Kholfi, Hartono. (2022). Comparing neural network autoregressive method for import duty revenue forecasting. Jurnal perspektif bea dan cukai, 6(1), doi: 10.31092/jpbc.v6i1.1560, b.63-75.

8. Le, Thi, Anh, Tuyet. (2020). Applying the LASSO method to predict the impact of tariff reductions on customs revenues in Vietnam. Economics of development, 19(3), doi: 10.21511/ED.19(3).2020.03, b.19-31.

9. M., Tsvil., Olha, Abramova. (2022). Econometric modeling of individual economic indicators of the activity of customs authorities. 2022(4), doi: 10.26526/2307-9401-2022-4-26-30, b.26-30.

10. Yana, Bugrimova. (2018). Economic indicators as basis in the assessment of efficiency of activity of customs authorities. Mathematics in Economics, doi: 10.26526/CONFERENCEARTICLE_5C24B1D16 36AD1.45614102.

11. Gunnar, Bårdsen., Eitrheim., Eilev, S., Jansen., Ragnar, Nymoen. (2005). Forecasting using econometric models, doi: 10.1093/oso/9780199246496.003.0011, b.245-280.

12. Mohd, Faizan, Rizvi. (2024). ARIMA Model Time Series Forecasting. International Journal for Research in Applied Science and Engineering Technology, DOI: 10.22214/ijraset.2024.62416, b.:3782-3785.

13. Elisabeth, Brielin, Sinu., Maria, A, Kleden., Astri, Atti. (2024). Application of arima model for forecasting national economic growth: a focus on gross domestic product data. Barekeng, 18(2), doi: 10.30598/barekengvol18iss2pp1261-1272, b.:1261-1272

14. Dinesh, Kumar, Yadav., Laxmi, Goswami. (2024). Autoregressive Integrated Moving Average Model for Time Series Analysis, doi: 10.1109/icocwc60930.2024.10470488, b.1-6.

08.00.13 – Menejment

UDK: 336.9:004

SANOAT KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA VAKOLATLI IQTISODIY OPERATOR MAQOMINING AHAMIYATI

Tursunboyev Shohizamon Shoyadbek o‘gli,
Andijon viloyati bojxona boshqarmasa katta inspektori,
mustaqil izlanuvchi,
e–mail: shohizamon2105@gmail.com

ЗНАЧЕНИЕ СТАТУСА УПОЛНОМОЧЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО ОПЕРАТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Турсунбоев Шохизамон Шоядбек угли,
старший инспектор Управления таможенного
комитета по Андижанской области,
самостоятельный соискатель,
e–mail: shohizamon2105@gmail.com

THE IMPORTANCE OF AUTHORIZED ECONOMIC OPERATOR STATUS IN ENHANCING THE EFFICIENCY OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

Tursunboyev Shohizamon Shoyadbek ugli,
Senior Inspector of the Andijan
Regional Customs Division,
Independent Researcher,
e–mail: shohizamon2105@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada globallashuv davrida davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar, xususan, sanoat korxonalarining eksport — import faoliyatini yengillashtirishda Vakolatli iqtisodiy operator (VIO) institutining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Bojxona operatsiyalarini soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlari uchun vaqt va moliyaviy resurslarni tejash, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash kabi omillar VIO maqomi orqali erishiladigan ustunliklar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston, Yevropa Ittifoqi va AQSh tajribalari solishtirilib, VIO tizimining rivojlanish bosqichlari, afzalliklari hamda amaldagi muammolar yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda VIO institutini yanada rivojlantirish, raqamlashtirish va xalqaro tan olinish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *vakolatli iqtisodiy operator, bojxona soddalashtirish, xalqaro savdo, eksport-import, bojxona xavfsizligi, Yevropa Ittifoqi tajribasi, raqamlashtirish, bojxona islohotlari.*

Аннотация. *В статье рассматривается значение и роль института Уполномоченного экономического оператора (ВЭО) в условиях глобализации, а также его влияние на упрощение экспортно-импортной деятельности промышленных предприятий. Особое внимание уделено вопросам совершенствования таможенного администрирования, сокращению временных и финансовых затрат предприятий и повышению эффективности внешнеэкономической деятельности. На основе анализа опыта Европейского союза, США и Узбекистана определены преимущества и проблемы реализации системы ВЭО. Автор предлагает меры по развитию института ВЭО в Узбекистане, цифровизации процедур и совершенствованию механизмов взаимного признания между государствами.*

Ключевые слова: *уполномоченный экономический оператор, таможенные упрощения, международная торговля, экспорт-импорт, таможенная безопасность, опыт Европейского союза, цифровизация, таможенные реформы.*

Abstract. *This article analyzes the significance and role of the Authorized Economic Operator (AEO) institution in the context of globalization, focusing on its impact on simplifying export-import operations of industrial enterprises. The study highlights key benefits of obtaining AEO status, such as customs simplifications, reduced time and financial costs and increased production efficiency. Comparative analysis of the European Union, the United States, and Uzbekistan demonstrates the stages of AEO system development, its advantages and existing challenges. The author proposes recommendations for improving the AEO mechanism in Uzbekistan through digitalization, enhancing international recognition and integrating modern approaches to customs facilitation and trade security.*

Keywords: *Authorized Economic Operator, customs simplification, international trade, export-import, customs security, European Union experience, digitalization, customs reforms.*

Kirish

Bugungi globallashuv davrida davlatlarning o‘zaro iqtisodiy aloqalarida hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat iqtisodiyotining o‘sishi, milliy valyutaning qadri oshishi, ishsizlik darajasining kamayishi kabi muhim omillar bevosita mamlakatning eksport salohiyatida namoyon bo‘ladi. Binobarin milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish (drayver) tarmoqlaridan biri sanoat korxonalarida o‘z aksini ko‘rsatadi. Sanoat korxonalarining eksportini oshirish esa soliq va valyuta tushumlarini ko‘payishi evaziga davlat budjeti ijobiy tomonga o‘zgaradi. Eksport va import jarayonlarining nazorati bevosita bojxona organlarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Chunki bojxona operatsiyalarining shaffof va osonligini natijasida tadbirlarga import sifatida olib kirayotgan tovarlarni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etishni osonlashtiradi. Bojxona operatsiyalarining to‘g‘ri ishlashi borasida Vakolatli iqtisodiy operator *(keyingi o‘rinlarda VIO)* sifatida faoliyat yuritishda qator ustunliklarni qo‘lga kiritadi:

korxonalarni vaqt sarfi va moliyaviy mablag‘lari tejalishiga olib keladi;

ishlab chiqarishdagi unumdorlik ta’minlanadi;

xom-ashyo bilan ta’minlashdagi uzilishlar oldi olinadi;

korxonalar rentabelligiga ijobiy ta’sir qiladi;

ortiqcha xarajatlarni oldi olinadi [1].

Bugungi kunda davlatlararo bir-biri o‘zaro tan olish bilan bir o‘rinda, savdoni yengillashtirish maqsadida, davlatlar ichida faoliyat yurituvchi korxonalarni ham o‘zaro tan olish muhim hisoblanadi. Hozirgi sharoitda bojxona tizimini raqamlashtirish va soddalashtirish muhim masalalardan biridir. Bugungi kunda ko‘plab davlatlar tomonidan savdoni yengillashtirish hamda o‘zaro aloqalarni yaxshilash maqsadida turli xil ittifoqlar tashkil qilingan yoki ikki tomonlama bitimlar imzolangan. Ittifoqdosh davlatlar o‘zaro turli xil sohalarda kelishuvlarga erishilgan. Yevropa ittifoqi SAFE standartlari asosida 2008-yil 1-yanvardan boshlab VIO tizimi amaliyotga joriy qilingan. [2]

VIO tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi “Bojxona ma’muriyatchiligini takomillash-tirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 5582-sonli Farmonida aks etgan. Unda VIO institutlarini joriy etish belgilanib, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-apreldagi “Vakolatli iqtisodiy operator institutini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 363-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-apreldagi “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 500-son qarorlari bilan amaliyotga tatbiq etilgan. [3]

VIO – bojxona operatsiyalarini amalga oshirishda soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillaridan foydalanish uchun ma’lum talablarga javob beruvchi yuridik shaxs hisoblanadi. [3]

Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish VIO maqomi orqali korxonalarga eksport-import faoliyatini amalga oshirishda quyidagi muhim ustunliklarga ega bo‘ladi:

tovarlarni deklaratsiyalash va chiqarish bilan bog‘liq operatsiyalar birinchi navbatda amalga oshirilishi;

tovarni tashish yo‘nalishini belgilamaslik;

bojxona rasmiylashtiruvi xavf darajasidan kelib chiqib, xavf darajasi past bo‘lsa tizim

tomonidan avtomatik rasmiylashtirish, o‘rta darajadagi xavf bo‘lsa 1 soatdan oshmagan holda rasmiylashtirish;

tashish uchun bojxona to‘lovlarini to‘lanishi ta’minlamaslik va bojxona tranzitini amalga oshirish;

bojxona to‘lovlarini 30 kundan 60 kungacha bo‘lib-bo‘lib yoki kechiktirib to‘lash:

bojxona kuzatuvidan ozod etish;

bojxona to‘lovi ta’minotisiz tovarlarni o‘z omboriga joylashtirish;

bojxona ko‘rigini birinchi navbatda o‘tkazish;

Bojxona kodeksiga muvofiq deklaratsiya taqdim etilgunga qadar bojxona to‘lovi ta’minotsiz tovarlarni chiqarish;

xorijiy davlatlar hududida vakolatli iqtisodiy operatorlar uchun qo‘llaniladigan imtiyozlar va maxsus huquqlardan foydalanish belgilab berilgan [1, 2].

Yuqorida VIOlarga beriladigan soddalashtirishlar keltirildi. Lekin bugungi kunda VIOlar tahlil qilinganda, bu institut yetarli darajada rivojlanmayotganini ko‘rish mumkin.


1-jadval

Vakolatli iqtisodiy operatorlarning yillar kesimidagi soni

Yillar	Jami VIO maqomi berilgan korxonalar	Jamiga nisbatan ulushi (% da)	VIO sifatida faoliyat olib borayotganlari	VIO maqomi bekor qilganlar soni	VIO maqomi to‘xtatilganlar soni
2020	12	10 %	2	10	-
2021	23	19 %	14	9	-
2022	25	21 %	18	6	1
2023	12	10 %	10	2	-
2024	13	11 %	11	-	2
2025	34	29 %	34	-	-
Jami	119	100 %	89	27	3

Manba: Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Tahlil. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan VIOlar o‘rganilganda, 2020-yildan 2025-yilning oktyabr oyiga qadar 119 ta korxona VIO sifatida faoliyat yuritish uchun ruxsat berilganligi, shundan 89 tasi hozirda “faol” sifatida ishlayotganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, 2020-yilda 12 ta korxonaga (2 tasi faol), 2021-yilda 23 ta (14 tasi faol), 2022 yilda 25 ta (18 tasi faol),



Manba: Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

1-rasm. 2020-2025-yillar davomida vakolatli iqtisodiy operatorlar maqomi berilgan korxonalar soni

2023-yilda 12 ta (10 tasi faol), 2024-yilda 11 ta (barchasi faol), 2025 yilda 34 ta korxonaga (barchasi faol) VIO maqomi berilgan (1-jadval) [8]. Shuningdek, quyidagi diagramma orqali VIOlar maqomida o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).

2025-yilda VIO maqomi berilgan korxonalar avvalgi yillarga qaraganda nisbatan ortgan. Respublikada faoliyat olib borayotgan yirik korxonalarni hisobga olsak bu ham juda past natija deyish mumkin (masalan, Andijon viloyatida ro‘yxatdan o‘tgan yillik aylanmasi 1 mlrd. so‘mdan ortiq bo‘lgan korxonalar soni 91 tani tashkil etib, shularning 60 tasi eksport-import faoliyati bilan shug‘ullanadi. Respublika bo‘yicha ko‘rilganda bu kabi yirik korxonalar mingdan ortiqni tashkil etadi). Hududiy bojxona boshqarmalari hissasiga ko‘rsak bir yilda 1-2 tadan korxonalarga VIO maqomi berilmoqda. Bu esa VIO olish uchun talablar yuqori, korxonalarga berilayotgan bunday imkoniyatlar yetarli emas yoki ko‘plab eksport va import bilan shug‘ullanuvchi korxonalar bu borada yetarli ma’lumotlarga ega emas degan to‘xtamga kelish mumkin.

VIO olish uchun talablar. Korxonalarni VIO reyestriga kiritish uchun Vazirlar Mahkamasining 500-sonli qaroriga muvofiq bir qancha mezonlar belgilangan bo‘lib, ayrim talablar korxonalar uchun nisbatan murakkablikni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, “bojxona organlariga murojaat qilingan kungaqadar so‘nggi besh yil mobaynida yuridik shaxsning rahbari, bosh buxgalteri va vakolatli shaxsi, shuningdek, ushbu lavozimlarni oxirgi bir yil davomida egallagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 175, 182, 184, 188, 189, 209, 228 va 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan holatlari mavjud bo‘lmasligi” kabi talabni o‘rniga, ba’zi muqobil variantlarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, korxonalar soliq organlariga oylik, choraklik, yillik hisobotlar topshiradi hamda soliq organlari tomonidan korxona faoliyatiga doir ma’lumotlarni keng qamrab oladi. Prezidentimizning 2024-yil 24-yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ga 39-sonli qaroriga muvofiq, tadbirkorlik subyektlari 4 ta toifaga bo‘linadi:

“AAA”, “AA” va “A” toifalar — yuqori barqarorlik reytingi;


“BBB”, “B” va “B” toifalar — o‘rta barqarorlik reytingi;

“CCC”, “CC” va “C” toifalar — qoniqarli barqarorlik reytingi;

“D” toifa — quyi barqarorlik reytingi belgilanadi. Yuqori barqarorlik reytingidagi korxonalarni ishonchlilik darajasi yuqori hamda ularga nisbatan soliq tekshiruvlari o‘tkazilmasligi kabi imkoniyatlar berilgan. Qaror bilan Idoralararo axborot almashinuvi vositasida avtomatik tarzda onlayn shakllantiradigan “Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi” elektron platformasi ishlab chiqish topshirig‘i berilgan bo‘lsa, 2024-yil 30-yanvarda “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilinib, platforma ishga tushirilgan. Ushbu platforma imkoniyatlaridan VIO bo‘yicha nomzodlarni o‘rganishda asosiy mezon sifatida qabul qilinishda VIOlar sonini oshishiga imkon yaratadi[2].

Bugungi kunda VIOlar faoliyat doirasida, boshqa davlatlar bilan bitimlar tuzish, VIOlarni o‘zaro tan olish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Xitoy (2023-yilda), Rossiya (2025-yilda) va Ozarbayjon (2025-yilda) davlatlari bilan o‘zaro VIOlarni tan olish bo‘yicha ikki tomonlama bitim imzolangan. Ushbu davlatlar bilan VIO maqomiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari yuklarni deklaratsiyalash va qayta ishlash jarayonida, bojxona operatsiyalarining ustuvorligi, bojxona tekshiruvlari va ekspertizalari, xavflarni boshqarish tizimi standartlari bilan muvofiqlashtirilgan hujjatli tekshiruvlar hamda bojxona nazorati bilan bog‘liq bir necha soddalashtirishlardan foydalaniladi.

Xalqaro tajriba. VIO tushunchasi dastlab AQShda 2001-yilda Terrorizmga qarshi bojxona savdo hamkorligi (Customs Trade Partnership Against Terrorism -CTPAT) ko‘rinishida, 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan so‘ng shakllangan. AQShda xavfsiz tashuvlarni yo‘lga qo‘yish, xavfsizlik bo‘shliqlarini aniqlash, ta’minot zanjirini himoya qilish kabi masalalarni hal etish muhimligi sababli, ushbu dastur qabul qilingan. Hozirda, AQShda ushbu maqomga eksportyorlar, importyorlar, tashuvchilar, ombor egalari, ishlab chiqaruvchilar,



2-rasm. 2024-yil yakuni bo‘yicha YIda VIOlar soni

terminallar ega bo‘lib, birgina 2024-yilda tashuvchilar tomonidan import yuklarning 52 % qismi ushbu tizimga a’zo bo‘lganlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ya’ni AQShda VIO faqat bojxona sohasida emas, balki butunlay mamlakat bo‘ylab qamrab olinadi hamda ushbu maqomni olishga intilish mavjud.

2005-yil iyun oyida Jahon bojxona tashkiloti (JBT) tomonidan xalqaro terrorizmni, noqonuniy daromadlar yig‘ishlarni oldini olish va butun dunyo bo‘ylab Global savdoni ta’minlash hamda osonlashtirish bo‘yicha Xavfsizlik standartlari doirasi (SAFE Framework) qabul qilindi. Oradan ikki yil o‘tib, 2007-yilda, ushbu standartlarning davomi sifatida VIOlar (Authorized Economic Operators-AEO) tashkil topdi.

VIOlarning vakolati, ular tomonidan bajarilishi kerak bo‘lgan mezonlar va beriladigan imtiyozlarga qarab uch turga bo‘linadi:

Bojxona tartib-taomillari uchun 1 tur - VIO (AEOC);

Xavfsizlik va himoya masalalari uchun 2 tur - VIO (AEOS);

Har ikkisini o‘zida mujassam etgan VIOlar (AEOF).

Yevropa Ittifoqi (YI) davlatlari tomonidan barcha VIO maqomini olgan subyektlar uchun ularning rolidan qat’iy nazar, importyorlar, eksportyorlar, ishlab chiqaruvchilar, ekspeditorlar uchun birdek ochiq hisoblanadi. 2024-yil dekabr holatiga ko‘ra 18 437 ta VIO faoliyati bo‘yicha ruxsatnomalar berilgan bo‘lib, ular VIOning 3 turi bo‘yicha quyidagicha ko‘rinishda (2-rasm).


Dastlabki VIOlar YIda 2008-yilda ro‘yxatda o‘tgan bo‘lsa, 2008-2024-yillar davomida VIOlar soni o‘sishda davom etgan (3-rasm).

Bundan shuni ko‘rishimiz mumkinki, 16 yil davomida YIda faoliyat yuritayotgan VIOlar soni 17925 taga yoki 36 karraga ko‘paygan. Bu esa o‘z navbatida butun YI bo‘ylab, yagona VIO bo‘yicha olib borilayotgan siyosat, yetarli darajada berilayotgan soddalashtirish imkoniyatlaridan unumli foydalanishni nazarda tutadi [7].

Quyidagi jadval orqali VIOlarga qanday imkoniyatlar berilganligini ko‘rishimiz mumkin (2-jadval).

Ko‘rinib turibdiki, har ikkala VIOlar uchun soddalashtirishlar taqdim etilgan, lekin ko‘plab korxonalar tomonidan 1 turdagi VIO bo‘yicha yoki 1 va 2 tur uyg‘unlashgan VIO maqomini olishni afzal ko‘radi, chunki katta xalqaro operatorlar tomonidan YI bo‘ylab tashuvlarni amalga oshiruvchilar uchun bojxona tartib-taomillari soddalashadi hamda tashuvlar xavfsizligi bo‘yicha ishonchga ega bo‘ladi.

VIOlarning iqtisodiyotga ta’siri. VIO institutlari joriy etilishi bilan ayrim davlatlarning iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarni ko‘rib o‘tsak. Misol uchun Xitoy davlati 2024-yil 8-mayda Xitoyning Guangdong provinsiyasi Shenchjen shahrida JSTning 6-global AEO konferensiyasi bo‘lib o‘tgan. Unda 2024-yil holatiga ko'ra Xitoyda faoliyat yuritayotgan 5800 dan ortiq VIOlar mavjud bo‘lib, ular tomonidan 2023-yil yakunida Xitoyning tashqi savdo aylanmasi 37,1 foizni, mamlakat umumiy soliq to‘lovining 37 foizini tashkil etganligi



3-rasm. 2008-2024-yillar davomida Yevropa Ittifoqida VIOlar soni

keltirilgan. Xitoy Bosh bojxona boshqarmasi (GAC) ma'lumotiga asosan, Xitoy bojxona idoralari VIO maqomiga ega korxonalarga 1,53 million xizmatlarni bajarishda yordam bergan va 11 000 ta tovar partiyasini "non-intrusive" usulda, ya'ni yuk bo'linmalarini fizik tarzda ochmasdan, skaner, rentgen, gamma yoki radiatsiya qurilmalari yordamida tekshirish amalga oshirgan. Shu bilan birga, VIO maqomiga ega bo'lgan korxonalar "yashil yo'lak" orqali harakatlanishi, kredit foizlariga chegirma va mamlakatning bir nechta idoralari tomonidan taqdim etiladigan soddalashtirishlar kabi, 40 dan ortiq imtiyozlardan foydalanishlari mumkin [7].

2024-yil yakunlariga ko'ra AQShda 10 000 dan ortiq VIOlar tomonidan mamlakat importining 52 foizini qamrab olib, JBT bilan hamkorlikda dunyoning 44 ta mamlakatida AQSh kompaniyalariga nisbatan o'tkazilishi lozim bo'lgan tekshiruvlarini qisqartirgan. VIO hamkorlari tomonidan 47,3 million dollar mablag'lar, yuklarni tekshirish kamayishi natijasida tejab qolingan. VIO maqomi dunyoning 18 ta davlatida birdek tan olinadi.

Shuningdek, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (APEC) tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, VIO sertifikatlari va o'zaro tan olish kelishuvlarini (MRAs) qo'llash uchun Xitoy Taypey, Yaponiya, Koreya va Yangi Zelandiya davlatlari ishtirokida VIO institutlarida foydalanib, tovar

2-jadval

VIOlarga beriladigan soddalashtirishlar

VIOlarga Beriladigan soddalashtirishlar tasnifi	1 tur	2 tur
Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish	+	
Sayyor tekshiruv uchun tanlab olishda oldindan xabardor qilish		+
Xavfsizlik va himoya bilan bog'liq hujjatli hamda jismoniy tekshiruvlardan ozod etilganlik	+	+
YI bojxona qonunchiligi doirasida imtiyozlar	+	+
Bojxona nazorati uchun tanlab olishda oldindan xabardor qilish	+	
Nazorat uchun tanlab olinganlar VIOlarga kerakli tavsiyalar berish	+	+
Bojxona nazoratidan o'tkaziladigan joyni tanlash	+	+
Davlat organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlar kamayishi, yetkazish uchun xarajatlar kamayishi, mijozlarga xizmat ko'rsatish	+	+
Uchinchi davlatlar tomonidan o'zaro tan olish		+

almashinuvi amalga oshirilishi natijasida bojxona tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvlar va rasmiylashtiruvlar uchun sarflanadigan vaqt sarfini 30 foizdan 80 foizgacha qisqartirishga erishilgan [7].

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yevropa Ittifoqi, Xitoy va AQSh tajribasiga asosan, korxonalar, ayniqsa sanoat korxonalarini VIO institutiga keng jalb etish, tashqi savdo faoliyati ishtirokchilari uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda, tekshiruvlar uchun vaqt tejaladi, ular tomonidan amalga oshirilayotgan eksportda uzilishlar kamayadi, import tovarlari uchun sarf-xarajatlar tejash, tovarlarni xavfsiz tashishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston bojxona tizimida VIO faoliyatini rivojlantirish, uni yangi bosqichga olib chiqish, VIOlarni reyestrga kiritish mexanizmini zamon talablari va xorijiy ilg‘or davlatlarning tajribalariga asoslangan holda qayta ishlab chiqish, korxonalarning eksport-import faoliyati ko‘rsatkichlarini oshirish, tadbirkorlar uchun vaqt hamda moliyaviy resurslarini tejashga olib kelmoqda. Tovarlarni xavfsiz tashuvlarini amalga oshirish natijasida, yo'llarda tovarlarga shikast yetishi kabi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni 55-60 % ga kamaytiradi.

VIO korxonalari tomonidan chegaralarda to‘lov ta’minotisiz tovarlarni bir manzildan boshqa manzilga tashish korxonalarning eksport — import operatsiyalarida, ayniqsa mahsulot tannarxi bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishga yordam bermoqda. Bu esa VIO sifatida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarida mahsulot tannarxi 5-8 foizga kamaygani kuzatilmoqda. Natijada ularning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston chegara postlari orqali kirib kelayotgan transport vositasi, chegara bojxona post orqali kirib kelgan tranzit deklaratsiyasi uchun to‘lov ta’minoti yoki sug‘urta uchun 30-100$, manzil postda tushirish va ortish, omborda saqlash uchun 200-500$ gacha xarajatlarni talab qiladi. Mazkur holat VIO sifatida faoliyat yuritayotgan korxona tomonidan amalga oshirilishi, o'z navbatida xarajatlarni oldini olishda unga ketadigan vaqt tejaladi.

Muhokama esa shuni ko‘rsatadiki VIO institutlarining yana bir muhim jihatlaridan biri davlat manfaatlari (korxonaga bo‘lgan ishonch ortishi) va tadbirkorlik manfaatlari o‘rtasida muvozanatni saqlash muhim masalalardan biridir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, JBT va boshqa integratsiya qilingan tuzilmalar tomonidan standartlariga moslashtirilgan VIOlar tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarda, savdo jarayonlarini 25-30 % ga tezlashtiradi.

Shu bilan birga, qonunchiligimizda ayrim muammolar ham mavjud: VIO talablari uchun huquqiy me’yorlarning murakkabligi, ayrim hollarda byurokratik to‘siqlar va korxonalarning huquqiy savodxonligi hamda VIOlarga beriladigan soddalashtirishlar haqida bilimlarning yetarli darajada emasligi, O‘zbekistonda VIO sifatida faoliyat yurituvchi korxonalar birdek boshqa davlatlarda tan olish borasida ishlarni tashkil etishni qayta ko‘rib chiqish, VIO instituti kirib kelganiga 5 yil bo‘lgan bo‘lsa-da VIOlarni soni kamligini ta'kidlash mumkin. Shuningdek VIOlarga berilayotgan imtiyozlar, uni olish uchun talablarga to‘liq mos kelmasligi ko‘rsatadi. Misol uchun Bojxona kodeksining 329-moddasiga muvofiq, tovarlarni import qilish bilan uch yildan ko‘p vaqtdan buyon shug‘ullanayotgan, bojxona to‘lovlari bo‘yicha majburiyatlarni yaxshi bajarib kelayotgan, TIF ishtirokchilariga bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi oxirgi uch yil davomida to‘langan bojxona to‘lovlari summasining ellik foizidan oshmaydigan miqdorda, olti oy muddatga bojxona to‘lovlarini ta’minlash qo‘llanilmagan holda berilishi mumkinligi bu borada VIO bilan bog‘liq holatda bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib yoki kechiktirib to‘lash muddatini uzoqroq belgilashni keltirib chiqaradi. Kelgusida VIOlar faoliyatini o‘rganish, ularni tanlab olishda avtomatlashtirilgan tizimlardan keng foydalanish, soliq tizimiga integratsiya qilish, VIO institutini nafaqat bojxona sohasida balki ichki tashuvlar uchun ham andoza qilib olish maqsadga muvofiqdir [1].

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, VIOlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishda xalqaro tajribalardan kelib chiqib, bu borada ilg‘or natijalar qayd etgan davlatlarning tajribalarini qo‘llash hamda zamon talablariga javob beradigan dasturlardan foydalanish sanoat korxonalari uchun katta iqtisodiy afzalliklar yaratadi.

Eksport-import faoliyatini soddalashtirish, raqamlashtirish va xavfsiz logistika tizimini rivojlantirish, moliyaviy mablag‘larni tejab qolish, vaqt sarfini kamaytirish hamda ishlab chiqarish zanjirini uzluksiz kerakli xom-ashyo bilan ta’minlash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda jahon iqtisodiyotida o‘z o‘rnimizni topishimizga zamin yaratadi. Bu borada esa VIOlar faoliyatiga oid qonunchilik bazasini qayta ko‘rib chiqish, VIOlarga nomzodlarni o‘rganish jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish, davlatlar o‘rtasida VIOlarni tan olish bo‘yicha boshqa hamkor davlatlar bilan bitimlar tuzish, VIOlarga nisbatan tekshiruv o‘tkazishni avtomatlashtirish, ularga beriladigan imtiyozlarni kengaytirish hamda bu bo‘yicha ishlarni, soddalashtirilgan tartibotlarni TIF ishtirokchilariga samarali yetkazish tizimini tashkil etish lozim.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi [Customs Code of the Republic of Uzbekistan]. Available at: https://www.lex.uz/acts/2876354

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari [Decisions and decrees of the President of the Republic of Uzbekistan], 2017 — 2023 yy.

3. World Customs Organization (WCO) Annual Report, 2025.

4. UNCTAD Trade and Development Report, 2022

5. European Commission. Authorized Economic Operator (AEO) Guidelines. Brussels: European Union Publications, 2020.

6. World Customs Organization (WCO). SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade. Brussels: WCO, 2021.

7. Smith, J., & Brown, L. The Role of Authorized Economic Operators in Enhancing Trade Efficiency. – Journal of International Trade and Logistics, 2021, Vol. 15(3), pp. 45–58

5. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasining ma’lumotlari [Information from the State Customs Committee of the Republic of Uzbekistan].

6. OECD. Trade Facilitation Indicators Report, 2024.

7. Available at: www.customs.uz, www.cbp.gov, https://www.wcoomd.org/, https://taxation-customs.ec.europa.eu, www.gov.cn, https://www.apec.org.

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

UDK: 336.24

BOJXONA XIZMATLARINI SODDALASHTIRISH: HUQUQIY UYG'UNLASHUV VA TADBIRKORLIK UCHUN AMALIY NATIJALAR

Ismatullayeva Shoira Nurlibekovna,
Bojxona qo‘mitasining Toshkent viloyati bojxona boshqarmasi inspektori,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi,
ORCID: 0009–0001–8717–3558,
e–mail: dronzakai@gmail.com

УПРОЩЕНИЕ ТАМОЖЕННЫХ УСЛУГ: ПРАВОВАЯ ГАРМОНИЗАЦИЯ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ДЛЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Исматуллаева Шоира Нурлибековна,
инспектор Управления Таможенного комитета по Ташкентской области, самостоятельный соискатель Ташкентского государственного экономического университета,
ORCID:0009–0001–8717–3558,
e–mail: dronzakai@gmail.com

SIMPLIFICATION OF CUSTOMS SERVICES: LEGAL HARMONIZATION AND PRACTICAL OUTCOMES FOR ENTREPRENEURSHIP

Ismatullayeva Shoira Nurlibekovna,
Inspector of Tashkent Regional Customs Division of the Customs Committee,
Independent Researcher at Tashkent State University of Economics,
ORCID: 0009–0001–8717–3558,
e–mail: dronzakai@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda bojxona xizmatlarini soddalashtirish va raqamlashtirish jarayonlari tizimli tahlil qilinadi. Elektron bojxona yuk deklaratsiyasi, “Yagona darcha” tizimi, masofaviy rasmiylashtirish hamda xavfga asoslangan nazorat mexanizmlarining joriy etilishi natijasida tashqi savdo jarayonlarida vaqt va xarajatlarning sezilarli qisqargani, hujjatlar sonining kamaygani va shaffoflikning oshgani ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda milliy normativ–huquqiy baza bosqichma–bosqich xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirilayotgani, bojxona yig‘imlari stavkalarining evolyutsiyasi va JST talablariga moslashtirilishi tadbirkorlik muhitiga bevosita ta’siri tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar hamda xalqaro tashkilotlar tajribasi asosida yagona darcha tizimining tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishi, tranzaksion xarajatlarni kamaytirishi va biznes uchun qulay muhit yaratishi asoslab beriladi. Xulosa sifatida, normativ unifikatsiya va raqamlashtirish O‘zbekiston bojxona tizimini xalqaro savdoda ishonchli va raqobatbardosh mexanizm sifatida shakllantirishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *bojxona xizmatlari, elektron bojxona yuk deklaratsiyasi (e–BYD), yagona darcha tizimi (SW), masofaviy rasmiylashtirish, xavfga asoslangan nazorat, normativ–huquqiy uyg‘unlashuv.*

Аннотация. *В статье системно анализируются процессы упрощения и цифровизации таможенных услуг в Узбекистане. Отмечается, что внедрение электронной грузовой декларации, системы «Единое окно», дистанционного оформления и механизмов риск–*

ориентированного контроля привело к существенному сокращению времени и затрат во внешнеторговых операциях, уменьшению количества документов и повышению прозрачности. Исследование показывает, что национальная нормативно–правовая база постепенно гармонизируется с международными стандартами, а эволюция ставок таможенных сборов и адаптация к требованиям ВТО оказывают прямое влияние на предпринимательскую среду. На основе анализа научной литературы и международного опыта обосновано, что система «Единое окно» способствует повышению эффективности внешнеэкономической деятельности, снижению транзакционных издержек и созданию благоприятного бизнес–климата. В заключение подчеркивается, что нормативная унификация и цифровизация формируют таможенную систему Узбекистана как надежный и конкурентоспособный механизм в международной торговле.

Ключевые слова: *таможенные услуги, электронная грузовая декларация (e–BYD), система «Единое окно» (SW), дистанционное оформление, риск–ориентированный контроль, нормативно–правовая гармонизация.*

Abstract. *The article provides a systematic analysis of the processes of simplification and digitalization of customs services in Uzbekistan. It highlights that the introduction of the electronic cargo declaration, the "Single Window" system, remote clearance and risk–based control mechanisms have significantly reduced time and costs in foreign trade operations, decreased the number of required documents and enhanced transparency. The study shows that the national regulatory framework is gradually being harmonized with international standards, while the evolution of customs duty rates and adaptation to WTO requirements directly affect the entrepreneurial environment. Drawing on academic literature and international experience, the article demonstrates that the Single Window system improves the efficiency of foreign economic activity, reduces transaction costs and creates a more favorable business climate. In conclusion, it is emphasized that regulatory unification and digital transformation are shaping Uzbekistan's customs system into a reliable and competitive mechanism in global trade.*

Keywords: *customs services, electronic cargo declaration (e–BYD), Single Window system, remote clearance, risk–based control, regulatory harmonization.*

Kirish

O‘zbekistonda bojxona boshqaruvini soddalashtirish va raqamlashtirish so‘nggi yillarda tadbirkorlik muhitini yaxshilashning ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Elektron bojxona yuk deklaratsiyasi, "Yagona darcha" mexanizmi, masofaviy rasmiylashtirish hamda xavfga asoslangan nazorat va "yo‘laklar" tizimining joriy etilishi ma’muriy yukni kamaytirish, jarayonlarning prognozlanishini kuchaytirish va shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda. Milliy huquqiy baza bosqichma–bosqich xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirilmoqda.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi davrda eksport rasmiylashtiruvi vaqti sezilarli qisqargan. 2025-yildagi normativ yangilanishlar esa import va eksport bo‘yicha tartibotlar hamda yig‘imlarning uyg‘unlashuvi orqali tadbirkorlar uchun tranzaksion xarajatlarni pasaytirishga qaratilgan.[1] Mazkur jarayonlar milliy amaliyotning xalqaro talablarga yaqinlashuvini tezlashtirmoqda.

Maqolani yozishdan maqsad – O‘zbekistonda bojxona xizmatlarini soddalashtirishning huquqiy uyg‘unlashuv darajasi va asosiy mexanizmlarini tizimli tahlil qilish hamda ularning tadbirkorlikka ta’sirini *(vaqt/xarajat, hujjatlar soni, nazorat intensivligi)* baholashdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mazkur mavzu bo‘yicha A.V. Yakubova[2] tadqiqotida 2018-yilda kuchga kirgan Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi Bojxona kodeksi bojxona protseduralarining huquqiy–institutsional "dizayn"ini yangilab, elektron deklaratsiyani "standart" shakl sifatida belgilagani ko‘rsatiladi. Muallif elektron hujjat aylanishi va deklaratsiya ro‘yxatdan o‘tkazilgach tovarlarni to‘rt soat ichida chiqarish tartibi nazoratning tezkorligi hamda inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirishini asoslaydi.

V.P.Korchagin[3] tomonidan bojxona jarayonlarining tezkorlik va shaffoflik darajasi tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligi, investitsion jozibadorlik hamda iqtisodiy xavfsizlikka sezilarli ta’sirini asoslab bergan.

A.A.Xaydobin[4] bojxona sohasida sun’iy intellektni (AI) "raqamli algoritmning inson

faoliyatiga xos vazifalarni bajarish qobiliyati" sifatida aniqlab, AI qo'llanishi tadbirkorlik va bojxona operatsiyalarida yangi imkoniyatlar yaratishini asoslaydi.

Yagona darcha tizimining xalqaro savdoga ta'siri ko'plab tadqiqotlarda ilmiy asoslangan. Masalan, Martínez–Zarzoso va Chelala[5] olib borgan empirik izlanishlarda ushbu tizim joriy etilgan mamlakatlarda eksport hajmi o'rtacha 7–10 foizga oshgani qayd etilgan. Bu natija shuni ko'rsatadiki, bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarida vaqt va xarajatlarning qisqarishi tadbirkorlik subyektlari uchun tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.


Jahon bojxona tashkiloti tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda esa yagona darcha joriy etilgan davlatlarda import–eksport deklaratsiyalarini topshirish uchun sarflanadigan vaqt o'rtacha 40 foizga qisqargani ta'kidlanadi.[6] Natijada hujjat aylanishi va byurokratik to'siqlar kamaygan, davlat organlari o'rtasida elektron integratsiya yo'lga qo'yilgan. Shu jihati bilan u biznes yuritishda samaradorlikni oshirib, tadbirkorlarning vaqt va mablag'ini tejash imkonini beradi.

APEC tomonidan amalga oshirilgan keng qamrovli tahlilda esa yagona darcha tizimlarining xalqaro integratsiyasi alohida o'rganilgan. Xususan, Janubi–Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida yagona elektron hujjat almashuvi joriy etilgach, yuk tashish muddati o'rtacha 2–3 kun qisqargani aniqlangan. [7] Bu holat nafaqat logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlagan, balki tadbirkorlar uchun tranzaksion xarajatlarni ham sezilarli kamaytirgan.

BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "White Paper: Single Window Assessment Methodology" da [8] tizim samaradorligini baholash uchun aniq indikatorlar belgilangan. Ular orasida tovarlarni rasmiylashtirishda sarflanadigan vaqt, bojxona to'lovlari hisob–kitobining shaffofligi va hujjatlarning soni asosiy mezon sifatida keltirilgan. Mazkur metodologiya tadbirkorlik muhiti barqarorligini ta'minlashda, korrupsiya va yashirin to'lovlarni kamaytirishda samarali instrument sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda bojxona xizmatlarini raqamlashtirish (elektron BYD, "Yagona darcha") hamda bojxona yig'imlari bo'yicha me'yoriy o'zgarishlarning rasmiylashtirish vaqti, hujjatlar soni va tadbirkorlik tranzaksion xarajatlariga ta'siri o'rganildi. Mazkur yo'nalishlarga doir mahalliy va xorijiy olimlar ishlari, ilmiy maqola va monografiyalar o'rganildi. Respublikamizning amaldagi qonunlari va normativ–huquqiy hujjatlari, jumladan Bojxona kodeksi va tegishli Prezident farmonlari hamda Hukumat



Manba: muallif tomonidan tuzilgan

1–rasm. Normativ–huquqiy hujjatlarning turlari

qarorlari tahlil qilindi. Tahlilda normativ–huquqiy sharh, taqqoslama yondashuv va yillar kesimidagi solishtirmasi qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar

Tashqi iqtisodiy faoliyat samarali rivojlanishi, avvalo, bojxona xizmatlarining mustahkam huquqiy poydevoriga bog‘liqdir. Tadbirkorlik subyektlari uchun joriy etilgan qulaylik va imtiyozlar esa mamlakatning investitsion muhitini yanada jozibador qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ–huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 3–moddasida “Normativ–huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.” [9] deb belgilab qo‘yilgan. Mazkur Qonunga asosan yurtimizda amal qiladigan normativ–huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari mavjud:

1–rasm “Normativ–huquqiy hujjatlarning turlari” dan ko‘rinib turibdiki bojxona sohasidagi normativ–huquqiy hujjatlarning bosh bo‘g‘inida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi turadi. Uning 67–moddasida “Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta’minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli.”[10] ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Yurtimizda tadbirkorlikni qo‘llab–quvvatlash bilan bog‘liq bo‘lgan qator Qonunlar qabul qilingan. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida"gi [11] Qonun asosida tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni quyidagi yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish yo‘nalishlari ko‘p qirrali bo‘lib, ularga bojxona–soliq siyosati, valyuta nazorati, tarif va notarif choralar, eksport–import operatsiyalari ustidan nazorat hamda texnik va sanitariya–me’yoriy talablar kiradi. Ushbu yo‘nalishlar ichida tadqiqot mavzusi bilan bevosita bog‘liq bo‘lganlari – bojxona yig‘imlarini belgilash, tarif siyosatini takomillashtirish, “Yagona darcha” tamoyillari orqali jarayonlarni soddalashtirish va elektron BYD joriy etishdir. Shunday qilib, mazkur jadvalda ko‘rsatilgan umumiy yo‘nalishlar ichida aynan bojxona xizmatlari raqamlashtirilishi va yig‘im stavkalarining qayta ko‘rib chiqilishi tadbirkorlik faoliyatiga eng bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omillar sifatida ajralib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi tadbirkorlik subyektlari uchun tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashish jarayonida asosiy huquqiy kafolatlarni belgilaydi. U orqali tadbirkorlar o‘z tovarlari va xizmatlarini erkin import–eksport qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Kodeksda belgilangan tartib va qoidalar tadbirkorlik faoliyatining qonuniy himoyasini ta’minlaydi.

Kodeksda tadbirkorlarning vaqt va mablag‘ini tejashga qaratilgan soddalashtirilgan bojxona rejimlari nazarda tutilgan. Masalan:

oldindan deklaratsiya topshirish imkoniyati;

soddalashtirilgan bojxona yo‘laklari (“yashil yo‘lak”);

elektron deklaratsiya tizimi.

Bular tadbirkorlik muhitini qulaylashtirib, tashqi savdo operatsiyalarida tezkorlikni oshiradi.

Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va rivojlantirib borish bo‘yicha ulkan huquqiy–normativ bazaga ega. Fikrimizcha, tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan bojxona xizmatining samaradorligi, sifati, ahamiyati, shaffofligi yana ko‘p xususiyatlari aynan Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan va o‘rnatilgan tartib asosida belgilanadi. Ma’lumki, bojxona xizmati nafaqat tadbirkorlarga o‘z faoliyatini oshirishda xizmat qiladi, shuningdek davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda bir vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, bojxona xizmati to‘g‘risida qabul qilingan me’yoriy hujjatlar o‘zida tadbirkorlikka xizmat ko‘rsatishdan tashqari davlat qarashlarini ham aks ettiradi. Uning siyosatini, yo‘nalishlarini o‘zida rivojlanish tendensiyalarini namoyon qiladi. Bularning uyg‘unligi esa tadbirkorlik sohasidagi qabul qilinayotgan me’yoriy hujjatlarning doimiy rivojlanish tendensiyasiga olib keladi. Misol tariqasida mustaqillikning ilk yillarida Bojxona organlariga bojxona chegarasini kesib o‘tayotgan tovarlar bo‘yicha bojxona yuk deklaratsiyasini (BYD) yozma ravishda topshirish amaliyoti bo‘lgan. Bunda BYDning bir nechta nusxalari to‘ldirilib, ular:

1. bojxona organlari yig‘ma jildida qoladi;
2. Bojxona qo'mitasi statistika hisoboti uchun;
3. deklarantga qaytariladi;
4. bojxona to‘lovlari hisobini olib boruvchi bojxona idorasi uchun;
5. tovarni olib chiqishda tovar transport hujjatlari bilan birgalikda belgilangan mamlakatga yuboriladi, tovarlarni olib kirishda tovarni oluvchiga qaytariladi;
6. eksportchisi/importchisi uchun topshiriladi.

Mazkur tartibdan ko‘rinib turibdiki, bitta BYDni rasmiylashtirish uchun anchagina vaqt, kuch va qog‘oz sarflangan. BYD to‘ldirish bo‘yicha nizomga 2015-yilga qadar 27 ta marotaba o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan.[12] Bojxona qo‘mitasining 2016-yil 6-apreldagi “Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”[13] gi 2773–sonli qarorida **“elektron BYD”** atamasi kiritilib, BYDlarni elektron rasmiylashtirish amaliyoti joriy etildi. Shuningdek shu yili qabul qilingan yangi tahrirdagi “Bojxona kodeksi” bu yo‘nalishda asos bo‘lib xizmat qildi. Bu o‘z navbatida vaqt va qog‘ozbozlikni qisqartirishga, jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtirishga olib kelgan. Agar 2017–yilda eksport bojxona rejimida tovarlarni rasmiylashtirish uchun o‘rtacha 5 soat 42 daqiqa vaqt ketgan bo‘lsa, 2023–yilda bu ko‘rsatkich 30 daqiqani tashkil qilib 2 barobar vaqt qisqarishiga erishilgan.[14] Albatta, bu pog‘onaga yetguncha ko‘plab elektron dasturlar bojxona sohasiga joriy etilgan. Hozirda, “elektron BYD – deklaratsiyalovchi shaxsning elektron raqamli imzosi (ERI) bilan tasdiqlangan, “Tovarlarni elektron deklaratsiyalash” avtomatlashtirilgan axborot tizimi (TEDAAT) vositasida taqdim etilgan elektron shakldagi BYD yoki qog‘oz shakldagi BYDning elektron tashuvchida taqdim etilgan elektron nusxasi”[13] degan tushuncha kiritilgan.

Dastlabki bojxona rasmiylashtiruvlari esa bevosita bojxona postlarida tashkil qilingan. Bunda tadbirkorlar tomonidan yozma deklaratsiya post rasmiylashtiruvi xodimiga taqdim etilgan. Post xodimi uni ro‘yxatga olgan va taqdim qilingan kundan boshlab ma’lum bir vaqt mobaynida (har bir bojxona rejimining o‘ziga yarasha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonun–hujjatlarida belgilangan vaqtlarda, o‘rganib chiqib bojxona belgilarini qo‘ygan *(shtamp: ruxsat etuvchi va rad etuvchi, muhr, tamg‘a)*. 2022–yilning 1–oktabridan tadbirkorlar tomonidan rasmiylashtirish uchun yuborilgan BYDlari bevosita postda emas “Masofaviy elektron deklaratsiyalash” bojxona postlarida rasmiylashtirish amalga oshirilmoqda.[15]

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining bojxonani raqamlashtirish sohasida amalga oshirgan ishlari alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–122–son Farmonining 2–ilovaga muvofiq bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha yo‘l xaritasi tuzilgan bo‘lib, unda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlar olib borilgan:

Bojxona xizmatlarini raqamlashtirgan holda, ularni “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali ko‘rsatish;

avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini ishlab chiqish;

axborot almashinuvi jarayonlarini raqamlashtirish;

bojxona xizmatlarini raqamlashtirish uchun infratuzilma yaratish;

bojxona posti ma’murchiligini rivojlantirish bo‘yicha boshqa masalalar[15].

Kuzatuvlardan ma’lum bo‘ldiki, yuqoridagi me’yoriy huquqiy hujjatlar asosida bojxona sohasini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilgan.

Izlanishlar natijasida shu ma’lum bo‘ldiki, bojxona rasmiylashtiruvi bilan birga bojxona ko‘rigini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi me’yoriy–hujjatlar ham o‘zgarib, tadbirkorlar uchun ko‘plab qulayliklar yaratilgan. Xususan, dastlabki bojxona ko‘rigi bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tgan tovar va transport vositalariga 100% qo‘llanilgan. Bunda bojxona ko‘rigi dalolatnomasi bojxona xodimi tomonidan shakllantirilib, unda ishtirok etgan *(deklarant, xolislar, tadbirkor, jalb qilingan mutaxassislar, ishonchli vakillar, tarjimon)* ishtirokchilar tomonidan imzolangan. Bojxona Kodeksiga muvofiq bojxona ko‘rigi bojxona nazorati shakllarining bir turi hisoblanadi[16].

Bojxona kodeksining 195–moddasida Bojxona ko‘rigi o‘tkazish tartib qoidalari batafsil keltirib o‘tilgan. Shuningdek, Bojxona qo‘mitasining 2019-yil 19-apreldagi “Tovarlarni bojxona ko‘zdan kechiruvi va bojxona ko‘rigidan o‘tkazishda hamda namuna va (yoki) sinamalar olishda bojxona tartib–taomillarini amalga oshirish to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” 3154–raqamli qarori alohida o‘rin tutadi.

Tovar va transport vositalarini bojxona ko‘rigidan o‘tkazish XBAT tomonidan belgilangan quyidagi yo‘laklarni qo‘llash yo‘li bilan amalga oshiriladi:

Quyidagi 2–rasm ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Qaror asosida tovarlarni yo‘laklarga ajratish orqali 100% bojxona ko‘rigidan voz kechilib, tanlov asosida bojxona qonunchiligi buzilishi xavfi yuqori bo‘lgan tovarlarga *(faqat “qizil yo‘lak”ka tushgan tovarlarga nisbatan bojxona ko‘rigi o‘tkaziladi)* nisbatan qo‘llanilishi ham tadbirkorlar uchun qulaylik yaratadi. Shuningdek, bojxona ko‘rik dalolatnomasi bojxona xodimi tomonidan real vaqtda mobil ilova yordamida elektron tarzda rasmiylashtirilishi raqamli bojxona tamoyiliga to‘liq mos keladi.

Sariq yo‘lak	bojxona deklaratsiyasi, hujjatlar va ma’lumotlarni tekshirish bo‘yicha bojxona nazorati shakllari xavf darajasi o‘rta ko‘rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi
Qizil yo‘lak	bojxona nazorati shakllari xavf darajasi yuqori ko‘rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi
Yashil yo‘lak	xavf darajasi past bo‘lgan tovar va transport vositalariga nisbatan qo‘llaniladi
Ko‘k yo‘lak	xavf darajasi o‘rta ko‘rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlov asosida aniqlangan tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bunda, bojxona nazorati shakllari tovar va transport vositalari chiqarib yuborilgandan so‘ng amalga oshiriladi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

2–rasm. XBAT xavf baholash modeli bo‘yicha bojxona nazorat yo‘laklari va ularning qo‘llanishi

Globallashuv sharoitida tashqi savdo jarayonlarini soddalashtirish va tezkor boshqarish davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, “yagona darcha” mexanizmi davlat va tadbirkorlik o‘rtasidagi munosabatlarni raqamli asosda uyg‘unlashtiruvchi muhim vosita sifatida shakllandi. Uning mohiyati hujjatlarni yagona elektron tizim orqali taqdim etish va qayta ishlash imkoniyatini yaratishda namoyon bo‘ladi.

Mazkur mexanizm bojxona xizmatlarini isloh qilish, davlat xizmatlarining shaffofligini ta’minlash va tadbirkorlik muhitini liberallashtirish yo‘lidagi islohotlarning ajralmas qismi bo‘lib, O‘zbekiston tajribasida ham so‘nggi yillarda izchil rivojlantirildi. Shu bois “yagona darcha” tizimini ilmiy jihatdan o‘rganish bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy dolzarblik kasb etadi.

Transport–logistika sohasidagi izlanishlar ham ushbu mexanizmning foydasini isbotlaydi. Masalan, Xorvatiyalik izlanuvchilar Tijan va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotda port infratuzilmasida yagona darcha tizimi joriy etilgach, yuklarning bojxona nazoratidan o‘tish tezligi 30 foizga oshgani qayd etilgan.[17] Bu esa eksportyor va importyorlarga mahsulotni tezroq yetkazib berish imkonini yaratib, ularning raqobatbardoshligini oshirgan.

Umuman olganda, mazkur izlanishlar yagona darcha tizimining bojxona xizmatlarini zamonaviylashtirishda va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab–quvvatlashda strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Tizimning asosiy yutug‘i – vaqt va mablag‘ni tejash, tashqi savdo jarayonlarining shaffofligini ta’minlash hamda biznes uchun qulay muhit yaratishdir.

O‘zbekistonda “yagona darcha” tizimining huquqiy asoslari va uning shakllanishi. O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvini raqamlashtirish,

tashqi iqtisodiy faoliyatni soddalashtirish va tadbirkorlik subyektlariga qulay muhit yaratish yo‘lida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida “Yagona darcha” tizimi muhim o‘rin egalladi. Mazkur tizim davlat xizmatlarini yagona elektron platforma sifatida ko‘rsatish orqali nafaqat idoralararo hamkorlikni kuchaytirdi, balki bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarining shaffofligi va tezkorligini ta’minladi.

Keyingi yillarda mazkur tizimni rivojlantirish maqsadida qator me’yoriy–huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2015–yil 28–sentabrdagi PQ–2412–son qaror bilan davlat xizmatlarini “yagona darcha” tamoyili asosida markazlashtirish va Davlat xizmatlari markazlari orqali amalga oshirish mexanizmlari joriy qilindi. 2017–yil 15–sentabrda Vazirlar Mahkamasining 728–sonli qarori esa “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” faoliyatini tartibga soldi hamda “davlat–tadbirkor” va “davlat–fuqaro” o‘rtasidagi raqamli aloqalarni mustahkamladi.

2016–yil 20–yanvardagi O‘RQ–400–son “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi”da[16] “yagona darcha” mexanizmining qonuniy asoslari mustahkamlandi. Kodeksning 134–135–moddalariga ko‘ra, bojxona ruxsatnomalarini olish uchun zarur ariza va hujjatlar interaktiv davlat xizmatlari yagona portali orqali elektron shaklda taqdim etilishi belgilandi. Bu esa idoralararo axborot almashinuvini qonun darajasida mustahkamlab, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda inson omilini minimallashtirishga imkon yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 23–apreldagi PQ–4297–son qarori[18] ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur qaror BMTning Savdo tartib–taomillarini soddalashtirish markazi (UN/CEFACT) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro “Single Window” tavsiyalariga asoslanib, milliy “Yagona darcha” axborot tizimini joriy etish vazifasini yukladi. Qarorga muvofiq, tizimni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha bosh muvofiqlashtiruvchi vakolat Bojxona qo‘mitasiga berildi.

2020–yil 1–yanvardan boshlab “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi (Bojxona qo‘mitasi qisqartmasi bilan — Yagona darcha BAT) to‘liq ishga tushirildi. Tizim orqali 9 ta nazorat organining 40 turdagi sertifikat va ruxsatnomalari elektron shaklda rasmiylashtirilmoqda. Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2025–yillar davomida tizim orqali 3,5 millionga yaqin hujjat rasmiylashtirilgan, shuningdek, 118 mingdan ortiq foydalanuvchi tizimda ro‘yxatdan o‘tgan.[19]

Yagona darcha tizimining normativ–huquqiy rivojlanish yo‘l xaritasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bojxona tizimi so‘nggi yillarda izchil va tizimli modernizatsiya bosqichidan o‘tdi. 2015–yildan boshlab yaratilgan huquqiy baza va institutsional islohotlar tizimni elektron boshqaruv tamoyillariga moslashtirdi, 2017–2020–yillardagi qarorlar esa bu yo‘nalishni texnologik integratsiya darajasiga olib chiqdi. 2023–yilda O‘zbekistonning “Paperless Trade Index”da 88,9 foiz natija qayd etgani mamlakatda bojxona jarayonlarining raqamli boshqaruvga to‘liq o‘tgani va xalqaro savdo standartlariga uyg‘unlashganini tasdiqlaydi.[20] Umuman olganda, “Yagona darcha” tizimi O‘zbekiston bojxona xizmatlari uchun yangi sifat bosqichini belgilab, davlat boshqaruvi samaradorligini, ma’lumotlar shaffofligini va tadbirkorlik uchun qulaylik darajasini sezilarli oshirdi.

Bu tizimning joriy etilishi natijasida davlat xizmatlaridan foydalanish jarayoni sezilarli darajada soddalashdi. Hujjatlarni rasmiylashtirish uchun sarflanadigan vaqt 2017–yilda o‘rtacha 5 soat 42 daqiqa bo‘lgan bo‘lsa, 2023–yilda bu ko‘rsatkich 30 daqiqagacha qisqardi, shu bilan birga, bojxona rasmiylashtiruvi uchun talab etiladigan hujjatlar soni 20 tadan 5–6 tagacha kamaydi, bu esa tadbirkorlarning vaqt va xarajatlarini 30–40 foizgacha tejash imkonini berdi.[21]

Ilmiy tahliliy xulosa. “Yagona darcha” tizimining joriy etilishi O‘zbekiston bojxona xizmatlari tarixida tub burilish yasadi. U nafaqat huquqiy jihatdan takomilga erishdi, balki amalda xalqaro “Single Window” tamoyillariga mos integratsion boshqaruv mexanizmini shakllantirdi. Mazkur tizim davlat xizmatlarining shaffofligini ta’minlab, tadbirkorlar uchun rasmiy jarayonlarni soddalashtirdi, hujjatlar aylanishini qisqartirdi va tashqi savdo operatsiyalarining raqamli monitoringini yo‘lga qo‘ydi.

“Yagona darcha” tizimi bugungi

kunda O‘zbekistonning xalqaro savdo infratuzilmasini takomillashtiruvchi, raqamli iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan, innovatsion boshqaruv modeli sifatida e’tirof etilmoqda. Bu tizim orqali mamlakat bojxona xizmati nafaqat ichki jarayonlarni soddalashtirdi, balki BMT va Jahon bojxona tashkiloti tomonidan ilgari surilgan global savdo soddalashtirish tamoyillariga moslashdi. Shu jihatdan “Yagona darcha” mexanizmi O‘zbekistonning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda va tadbirkorlik muhitini liberallashtirishda strategik vosita sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, yagona darcha nafaqat davlat xizmatlari shaffofligini oshirdi, balki tadbirkorlik subyektlari uchun qulay muhit yaratdi, logistika zanjirini uzluksiz ishlashini ta’minladi va tranzaksion xarajatlarni kamaytirdi. Eng muhimi, bu tizim O‘zbekistonning xalqaro savdo chiqish jarayonida ular yillar davomida yangilanib borilganini ko‘rishimiz mumkin. Misol tariqasida bojxona yig‘imlari stavkalari bo‘yicha qabul qilingan hujjatlarni o‘rganib chiqsak.

1-jadval ma'lumotlarida O‘zbekiston Respublikasida yillar davomida bojxona organlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun undiriladigan bojxona yig‘imlari to‘g‘risidagi qabul qilingan hujjatlarning evolyutsiyasini ko‘rish mumkin. Bojxona yig‘imlari stavkalari yillar davomida globallashuv jarayonlari, xalqaro savdo hajmining kengayishi hamda ichki moliyaviy–iqtisodiy islohotlar ta’sirida bosqichma–bosqich o‘zgarib kelgan. 1992-yilda qabul qilingan bojxona stavkalari bojxona sohasidagi dastlabki muhim qadamlardan biri bo‘lgan. Unda stavkalar aniq belgilangan so‘m hisobida “olingan boj yig‘imlari stavkalari” deb yuritilgan hamda 1999-yilgacha saqlanib qolgan. Keyingi qabul qilingan hujjatda esa

1–jadval

O‘zbekiston Respublikasida bojxona yig‘imlari stavkalari huquqiy asoslari evolyutsiyasi (1992–2025–yillar)

№	Hujjat turi, sanasi, raqami	Hujjat nomi
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.08.1992 yildagi **366–son**	Ko‘rsatilgan xizmatlar uchun boj yig‘imlari olishni tartibga solish to‘g‘risida
2	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.04.1999 yildagi **204–son**	Bojxona yig‘imlari stavkalari to‘g‘risida
3	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.11.2020 yildagi **700–son**	Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida
4	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.01.2025 yildagi **55–son**	Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

standartlariga moslashuvini jadallashtirib, mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamladi. Shu sababli “yagona darcha” tizimi bugungi kunda nafaqat texnologik innovatsiya, balki iqtisodiy barqarorlik va tadbirkorlikni qo‘llab–quvvatlashning strategik vositasi sifatida e’tirof etilishi lozim.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan bojxona sohasiga oid qabul qilingan hujjatlarni o‘rganib bojxona stavkalari bojxona qiymatining foizlarida hamda “yevro” pul birligi ko‘rinishida aks etgan. So‘nggi qabul qilingan hujjatlarda (2020 va 2025–yillarda) bojxona yig‘imlari stavkalari BHM [22] asosida ifodalangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi 55–son “Bojxona yig‘imlari stavkalarini

tasdiqlash to‘g‘risida” qarori bilan tovarlarni “eksport” va “import” bojxona rejimlariga rasmiylashtirish uchun undiriladigan bojxona yig‘imlari stavkalarini o‘zaro muvofiqlashtirildi. Mazkur qaror bilan bojxona xodimlarining belgilangan vaqtdan tashqari bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirganlik uchun yig‘im 8 barobarga kamaytirildi. Qayta ishlash rejimi uchun yig‘im 2 barobarga kamaytirildi. Dastlabki deklaratsiya uchun 20% chegirma joriy qilindi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek globallashuv mobaynida tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy aloqalarning hajmidan, bojxonada amalga oshirilgan raqamlashtirish jarayonlaridan va shunga o‘xshash ko‘pchilik faktorlar asosida yig‘imlarning turlari va miqdori o‘zgarib kelgan. Bu o‘zgarishlar tadbirkorlik faoliyatida qanday aks etganini ko‘rib chiqsak.

2–jadvalda 2019, 2022 va 2025-yillarda bojxona qiymati farqli tovarlar uchun hisoblangan bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlari miqdori keltirilgan. Bunda bojxona qiymati shartli ravishda 60000–1001000 ming AQSH dollarini tashkil qilgan bojxona yuk deklaratsiyalari misolida keltirilgan. *Jadvalni tuzishda mazkur yillar davomida amal qilgan valyuta ayirboshlash kurslari va BHMning stavkalari muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.*

2–jadvalda import va eksport tovarlarini bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirganlik uchun undirilishi mumkin bo‘lgan bojxona yig‘imlari aks etgan. Ma'lumotdan ko‘rinib turibdiki bojxona qiymatlari turli xil bo‘lgan tovarlar uchun (60 000–1001 000 ming AQSh dollari) belgilangan bojxona yig‘im stavkalari orasidagi farq katta bo‘lganligi sababli 2019 va 2022-yillarda ularning orasidagi farq ancha katta bo‘lgan. 2025-yilga kelib eksport va import bojxona rejimlarida bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirganlik uchun bojxona yig‘imi muvofiqlashtirilgan ya’ni eksport va import bir-biriga tenglashtirilgan. Shuningdek so‘ngi qabul qilingan hujjat asosida bojxona rasmiylashtiruvi uchun stavkalar orasidagi farq oldingi yillarga qaraganda ancha kamaytirilgan. Bu tadbirkorlarga yaratilgan qulay imkoniyatdir. Masalan, 2022-yilda tadbirkor tomonidan bojxona qiymati 500 ming AQSH dollariga teng bo‘lgan tovarni import rejimida rasmiylashtirish uchun 17 400 ming so‘m miqdorida yig‘im to‘langan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 8 240 ming so‘m etib belgilangan. Bu esa, mazkur davr mobaynida bojxona rasmiylashtiruvi uchun stavkaning 52,6 foizga pasaytirilganini anglatadi. Ushbu tendensiya, bir tomondan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy yukni kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan institutsional islohotlarning amaliy natijasidir.

2025-yildan boshlab O‘zbekistonda import va eksport bojxona yig‘imlarining tenglashtirilishi mamlakatning Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a’zo bo‘lish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki JSTning asosiy tamoyillaridan biri — savdo jarayonida diskriminatsiya qilmaslik hamda “Eng qulay shart–sharoit rejimi”ni ta’minlashdan iborat

2–jadval

2019-2025-yillarda bojxona qiymati farqli tovarlar uchun hisoblangan bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlari (ming so‘mda)

№	Bojxona qiymati (ming.AQSH dollari)	2019-yil		2022-yil		2025-yil	
		IM	EK	IM	EK	IM	EK
1	A (60,000 $)	1000,8	500,4	2400,0	900,0	2884,0	2884,0
2	B (200,000 $)	3336,0	1668,0	9000,0	3000,0	6180,0	6180,0
3	C (500,000 $)	8340,0	4170,0	17400,0	7500,0	8240,0	8240,0
4	D (1001,000 $)	16696,7	8348,3	22500,0	15000,0	10300,0	10300,0

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

bo‘lib, u a’zo davlatlardan import va eksport operatsiyalarida keskin farqlanuvchi bojxona stavkalarini qo‘llamaslikni talab qiladi.

Avvalgi yillarda eksportga nisbatan pastroq stavkalar qo‘llanilishi tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish vositasi sifatida xizmat qilgan bo‘lsa, JST standartlariga muvofiq bunday amaliyot xalqaro savdoda adolatli raqobat tamoyillariga zid hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekistonda eksport uchun qulay imtiyozlarning bosqichma–bosqich qisqartirilishi va import stavkalarining pasaytirilishi JST talablariga moslashuv jarayonining tarkibiy qismi sifatida izohlanadi.

Bundan tashqari, JSTga qo‘shilayotgan mamlakatlar o‘z oldiga ichki bozorni haddan tashqari himoya qilishdan voz kechish va erkin savdo tamoyillarini joriy etish vazifasini qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, import va eksport stavkalarining tenglashtirilishi bir tomondan tashqi savdo ishtirokchilari uchun teng sharoit yaratadi, ikkinchi tomondan esa O‘zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtiradi.

Xulosa va takliflar

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qonunchilik jihatdan elektron hujjat aylanishini standart holat sifatida mustahkamlash, keyingi islohotlar uchun barqaror metodik asos yaratadi. Shuningdek, BYD jarayonini to‘liq raqamlashtirish, oldindan topshirish amaliyotini kengaytirish va deklaratsiya ma’lumotlarini yagona ma’lumot modeli asosida unifikatsiya qilish tadbirkorlik subyektlari uchun tranzaksion yukni sezilarli kamaytiradi. Shu bilan birga, “yagona darcha” tizimini markazlashgan boshqaruv, aniq xizmat darajasi ko‘rsatkichlari hamda tizimlararo integratsiyasi bilan takomillashtirish, nazoratning shaffofligini oshirib, foydalanuvchi tajribasini barqarorlashtiradi. Nihoyat, bojxona yig‘imlari bo‘yicha neytrallik va prognozlilik tamoyillariga tayangan, raqamli to‘lov infratuzilmasi siyosiy maqsadlar va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydi.

JSTga a’zo bo‘lish arafasida O‘zbekiston bojxona tizimida “Eng qulay sharoit rejimi” tamoyilini qat’iy joriy etish, hujjatlar va stavkalarni xalqaro tavsiyalarga moslashtirish ishlarini jadallashtirish lozim. Bu nafaqat tashqi savdoda adolatli raqobatni ta’minlaydi, balki investorlar uchun ham prognozli muhit yaratadi. Hozirgi “yagona darcha” tizimi samarali, ammo uni xalqaro elektron hujjat almashinuvi tizimlariga bog‘lash orqali yuk tashish muddati va xarajatlari yanada qisqartirilishi mumkin.

XBAT risk tizimi mavjud, lekin uni sun'iy intellekt asosida yanada rivojlantirish tavsiya etiladi. Masalan, bojxona deklaratsiyalarida xatoliklarni avtomatik aniqlash, xavfli tovarlarni prognozlash, korrupsion omillarni minimallashtirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etilishini takomillashtirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mazkur yo‘nalishlarning uyg‘un ishlashi — normativ unifikatsiya, to‘liq elektronlashtirish, integratsiyalashgan “yagona darcha” va shaffof yig‘im siyosati — bojxona xizmatlarining tadbirkorlikka ko‘maklashuvchi, tezkor va ishonchli mexanizm sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi "Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida"gi №55-son qarori [Resolution No. 55 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated 31 January 2025 “On Approval of the Rates of Customs Fees.”].

2. Yakubova, A.V. ’Tamozhennye protsedury kak instrument regulirovaniya vneshnetorgovoy deyatel’nosti’ [Customs procedures as an instrument of foreign trade regulation], in: Aktual’nye voprosy razvitiya tamozhennogo dela (Proc. Regional Student Conf., RANEPA Kaluga branch). Kaluga: Analiticheskaya konsul’tatsionnaya firma “Politop” 2020, pp. 78–84. EDN: ZRYBCL.

3. Korchagin, V.P. ’Tamozhennye protsedury: ponyatie, vidy, osobennosti pravovogo regulirovaniya’ [Customs procedures: concept, types and legal regulation], in: Kontseptsiya

razvitiya obshchestva v usloviyakh novoy pravovoy real'nosti (Proc. III Int. Sci.-Pract. Conf.). Kursk: Southwest State University, 2025, pp. 87–91. EDN: TPVRLA.

4. Khaydobin, A.A. "Primenenie iskusstvennogo intellekta v VED: vzglyad tamozhni i biznesa" [AI in foreign economic activity: customs and business view], Novizna. Eksperiment. Traditsii, 2022, 8(4[20]), 75–81.

5. Martínez-Zarzoso, I. and Chelala, S. 'The impact of single windows on trade', The World Economy, 2020.

6. Choi, W. A Survey of Single Window Implementation. WCO Research Paper Series, 2011/ No.17. Available at: https://www.wcoomd.org/

7. APEC Secretariat Study on Single Window Systems' International Interoperability. Asia-Pacific Economic Cooperation, 2018.

8. UNECE White Paper: Single Window Assessment Methodology (SWAM), 2023. Available at: https://unece.org/

9. O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-682, 2021-yil 20-aprel [Law of the Republic of Uzbekistan "On Normative Legal Acts", No. LRU-682, dated 20 April 2021].

10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya (yangi tahrir), [The Constitution of the Republic of Uzbekistan (new edition)], 2023.

11. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On Foreign Economic Activity", dated 26 May 2000.].

12. Available at: https://lex.uz

13. Bojxona qo'mitasining "Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi Qarori, ro'yxat №2773, 2016-yil 6-aprel [Resolution of the Customs Committee "On Approval of the Instruction on the Procedure for Completing the Customs Cargo Declaration", Registration No. 2773, dated 6 April 2016].

14. Uzbekistan.org (t/r) 'The Customs Clearance Center Launched'. Available at: https://uzbekistan.org/

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-122-sonli Farmoni, 2022-yil 27-aprel [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-122 "On Additional Measures to Further Improve Customs Administration", dated 27 April 2022.].

16. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, O'RQ-400, 2016-yil 20-yanvar [Customs Code of the Republic of Uzbekistan, No. LRU-400, dated 20 January 2016.].

17. Tijan, E., Jovic, M., Jardas, M. and Gulić, M. 'The Single Window Concept in International Trade, Transport and Seaports'. 2019, ResearchGate.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019) Qaror PQ-4297, 23-aprel [Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4297, dated 23 April 2019.].

19. Bojxona qo'mitasining 2020–2025 yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlari [Official statistical data of the Customs Committee for 2020–2025.].

20. UNTF Trade Facilitation Survey. Available at: https://www.untfsurvey.org/

21. Gazeta.uz. Customs Clearance Centre Launched in Tashkent, 2023, 08, 29. Available at: https://www.gazeta.uz/

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025) Farmon PF-91, 2-iyun [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-91, dated 2 June 2025.].

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

UDK: 4414/1

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA ORGANLARI HISOBOTDORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Shomurotov Ma’ruf Abdusamat o‘g‘li,
Navoiy viloyati bojxona boshqarmasi bosh inspektori,
ORSID: 0000-0002-0075-4510,
e-mail: shomurotovmf@gmail.com

ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОДОТЧЁТНОСТИ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Шомуротов Маруф Абдусамат угли,
Главный инспектор Управления таможенного
комитета по Навоийской области,
ORSID: 0000-0002-0075-4510,
e-mail: shomurotovmf@gmail.com

PROSPECTS FOR IMPROVING THE ACCOUNTABILITY OF PROSECUTORIAL BODIES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Shomurotov Maruf Abdusamat ugli,
Chief Inspector of the Navoi Regional Customs Division,
ORSID: 0000-0002-0075-4510,
e-mail: shomurotovmf@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda prokuratura organlarini “Xalq prokuraturasi”ga aylantirish jarayonida hisobdorlik tamoyilini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Unda oxirgi yillarda prokuratura tizimida oshkoralik va jamoatchilik oldidagi Hisobotlikning kuchaytirilayotgani, lekin amaldagi qonunchilikda hali ham tashkilotning to‘liq hisobdorligini ta’minlashga oid mexanizmlar yetarli emasligi ta’kidlanadi. Tadqiqot davomida xorijiy davlatlar, xususan, AQSH, Germaniya, Polsha, Xitoy kabi mamlakatlar prokuratura tizimidagi hisobdorlik mexanizmlari o‘rganilgan va O‘zbekiston qonunchiligiga tatbiq etish mumkin bo‘lgan takliflar ishlab chiqilgan. Xususan, prokurorlar hisobotlarining aniq tartibini belgilash, deputatlarning prokuratura majlislarida qatnashishi, prokurorlarni tayinlash mezonlarini kuchaytirish va hisobdorlikka oid qonun normalarini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunga qator aniq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *hisobdorlik, hududiy prokuratura, prokuror hisobdorligi, mahalliy Kengash faoliyati, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytirish.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования принципа подотчетности в процессе трансформации органов прокуратуры Узбекистана в «Народную прокуратуру». Отмечается, что в последние годы в системе прокуратуры страны усиливаются прозрачность и подотчетность перед обществом, однако действующее законодательство пока не обеспечивает полноценных механизмов подотчетности. В ходе исследования был изучен опыт зарубежных стран, таких как США, Германия, Польша и Китай, в области подотчетности органов прокуратуры, а также предложены рекомендации по внедрению соответствующих механизмов в законодательство Узбекистана. В частности, обоснована необходимость установления четкого порядка отчетности прокуроров, участия депутатов в заседаниях прокуратуры, ужесточения критериев назначения прокуроров и совершенствования норм*

законодательства, касающихся подотчетности. Кроме того, предложены конкретные изменения и дополнения в Закон «О прокуратуре».

Ключевые слова: *подотчётность, территориальная прокуратура, подотчётность прокурора, деятельность местного Кенгаша (Совета), усиление роли коллегиальных органов в управлении системой прокуратуры.*

Abstract: *This article examines the improvement of the principle of accountability in the process of transforming the Prosecutor's Office of Uzbekistan into the "People's Prosecutor's Office". It is noted that in recent years, transparency and accountability to the public have been strengthening within the country's prosecution system. However, the current legislation does not yet provide for fully functioning mechanisms of accountability. The study analyzes the experience of foreign countries such as the United States, Germany, Poland, and China regarding the accountability of prosecutorial bodies. Based on this, recommendations are made for implementing appropriate mechanisms into Uzbekistan's legal framework. In particular, the article substantiates the need to establish clear procedures for reporting by prosecutors, the participation of parliamentary deputies in prosecutor's office meetings, stricter criteria for the appointment of prosecutors and the improvement of legal norms related to accountability. Additionally, specific amendments and additions to the Law "On the Prosecutor's Office" are proposed.*

Keywords: *accountability, territorial Prosecutor's Office, prosecutor's accountability, activity of the Local Council, strengthening the Role of Collegial bodies in the management of the prosecutor's system.*

Kirish

Bugungi kunda prokuratura organlarining "Xalq prokuraturasi"ga aylantirish borasida qilinadigan ishlar samarasi o'laroq bir necha yillar oldin butunlay yopiq bo'lgan bu organ, endi inson huquq va erkinliklarini o'z navbatida jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiluvchi, qonun ustuvorligini ta'minlovchi va adolat o'rnatuvchi tuzilmaga aylanmoqda.

So'nggi 5 yilda o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida 413 mingdan ziyod fuqaro huquqlari tiklandi. Qonunga zid bo'lgan 32 mingdan ziyod huquqiy hujjatlarga prokuror tomonidan protest nazorat hujjati keltirilib bekor qilindi. Qariyb 54 mingtasi esa qonunga muvofiqlashtirildi [1].

Shu o'rinda, mamlakatimizda prokuratura organlarini chinakam xalq prokuraturasiga aylantirish borasidagi islohotlar esa, hali hamon davom etayotgan bo'lib, bu borada prokuratura organlarining huquqiy maqomini yanada takomillashtirish va prokuror hisobdorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni bilan xalqaro standartlarga asosan prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish alohida yo'nalish sifatida belgilangan. Bunda:

Birinchidan, xalqaro standartlarga muvofiq prokuratura faoliyati ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish;

Ikkinchidan, prokuratura faoliyatining shaffofligini va uning jamiyat oldidagi hisobdorligini ta'minlash, prokurorlar malakasini uzluksiz oshirish;

Uchinchidan, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytirish nazarda tutiladi.

Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda prokuratura organlari hisobdorligini takomillashtirishga xolisona ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Shu jumladan, Shavkat Mirziyoyev "Davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha ishlar amalga oshirilganda, albatta, prokuratura organlarining roli juda muhim hisoblanadi. Prokuratura organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini yanada takomillashtirish, mamlakatda qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlash bo'yicha prokuratura organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining prokuratura organlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi komissiya tuzish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining

va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo‘shma qarori qabul qilingan” [2], –deb ta’kidlagani bejiz emas.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda tizimli tahlil, mantiqiy, qiyosiy huquqiy tahlil, ilmiy maqolalar va manbalarni atroflicha tadqiq etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot obyekti

O‘zbekistonda prokuratura organlari hisobdorligini takomillashtirish hisoblanadi. Ushbu ilmiy tadqiqot natijasida O‘zbekistonda prokuratura organlari hisobdorligini takomillashtiruvchi bir qator normalarga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari

Bugungi kunda milliy qonunchiligimizga muvofiq, quyidagi normalar prokuratura organlarining hisobdorligini belgilaydi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 95-moddasi 2, 8-qismida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash” va “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish” tartibining umumiy asoslari va yo‘nalishlarini belgilaydi.

Ikkinchidan, yangi tahrirda qabul qilingan 2001-yil 29-avgustda “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II son qonunga ko‘ra[3], prokuratura organlarining demokratik asoslari yangi normalar bilan mustahkamlanib, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldidagi hisobdorligi hamda prokuratura faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati instituti joriy qilindi. Ya’ni, “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasida qayd etilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldida hisobdordir.

Ushbu Qonun normasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga:

qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to‘g‘risida muntazam ravishda;

o‘ta og‘ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to‘g‘risida – zudlik bilan;

prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to‘g‘risida – har olti oyda axborot taqdim etadi.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimida “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir” [4]nomli ma’ruzasida “Hozirgi kunda Oliy Majlisimiz Senati tomonidan har yili Bosh prokuraturaning hisoboti eshitiladi. Bu albatta muhim, lekin joylardagi, masalan, uzoq Olot tumanida mahalliy hokimliklar, prokuratura va ichki ishlar bo‘limlarining hisobotini kim eshitadi?” g‘oyasi asosida yangi tahrirda qabul qilingan 2001-yil 29-avgustda “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II son qonunning 5-moddasiga “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari:

har yili tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, xalq deputatlari Kengashlariga o‘z faoliyati to‘g‘risida hisobot taqdim etadi;

zarur bo‘lgan hollarda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qonuniylikning va jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to‘g‘risida xabardor qiladi”, degan qoida mustahkamlangan.

O‘tgan davrda prokuratura organlari faoliyatida oshkoralik va jamiyat oldidagi hisobdorligi borasida anchagina tajribalar to‘plandi. Endilikda, faoliyati bevosita aholi bilan ishlashga bog‘liq hududiy prokuratura organlarida oshkoralik va jamiyat oldidagi hisobdorlikni yanada oshirildi. Shu jumladan, prokuratura organlari tomonidan 2021-yil davomida alohida e’tibor jamoatchilik nazorati mexanizmlarini ro‘yobga chiqarish va prokuratura organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashga qaratildi[5]:

prokurorlar tomonidan xalq deputatlari Kengashlariga va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurash holati to‘g‘risida 586 ta axborotlar berildi;

Oliy Majlisga qonuniylik ahvoli to‘g‘risida 45 marotaba axborot taqdim etildi.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Jahon Adolat Loyihasi (World Justice Project) ning doimiy ko'rsatkichlariga ko'ra prokuror hisobdorligi (prosecutorial accountablity) bo'yicha 99 ta davlat prokuraturasi orasida 28 o'rinni egallaydi.

Biroq, bugungi kunda hududiy prokuratura organlarining hisobdorligini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlarda prokuror hisobdorligini belgilovchi normalar bugungi kun islohotlardan orqada qolmoqda.

Birinchidan, amaldagi qonunchilikda hisobdorlik belgilangan, biroq ushbu normalarni realizatsiya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari va tartibi to'liq yaratilmagan.

Ikkinchidan, hisobotlarni tuzish, taqdim etish va mahalliy Kengash tomonidan eshitish va muhokama qilish, prokuror hisobotlarini rad etish, to'g'riligi monitoring qilish, Kengash qaror natijalari asosida prokuror javobgarliklari va shu bilan bog'liq protsessual norma va nizomlar mavjud emas.

To'g'ri, prokuratura organlarining hisobdorligi ham o'ziga xos tashkiliy asoslariga ega hisoblanadi. Prokuratura organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashning maqsadini, vazifalarini, asosiy prinsiplarini, ochiqlikni ta'minlovchi axborotlarni, hududiy prokuratura organlari faoliyatiga oid axborotlardan foydalanuvchilar va ularning huquqlarini, ochiqlikni ta'minlovchi tarkibiy tuzilmalar yoki shaxslar hamda ularning vakolatlarini shuningdek, ochiqlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari, shakl va usullarini o'z ichiga oladi.

Xo'sh, bugungi kunda prokuratura organlarining hisobdorligi xorijiy davlatlarda qanday tartibga solingan ?

Ushbu savolga javob topish uchun chet el mamlakatlarida prokuratura organlarining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi, faoliyati, davlat boshqaruvidagi o'rni va rolidan kelib chiqib hisobdorlikning ahamiyatini tahlil qilsak.

Prokuratura organlarining hisobdorligi ko'p jihatdan mamlakatning huquqiy tizimi (huquq oilasiga mansubligi), davlat tuzilishi (unitar, federativ), prokuraturaning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni va ahamiyati (mustaqil davlat organi, sud yoki ijro hokimiyatiga mansub), davlatning tarixiy, huquqiy odat va boshqa milliy xususiyatlari kabi omillarga bog'liq[6]. Jumladan, prokuratura organlari Adliya vazirligi tarkibida mavjud bo'lgan davlatlar: AQSH, Polsha, Daniya qirolligi va G'arbiy Yevropaning ko'pgina davlatlari. Bu davlatlarda Adliya vazirligi bir paytda prokuror vazifasini bajaradi. Misol tariqasida keltirib o'tamiz, Daniya prokuraturasi hududlardagi hokimiyat organlaridan mustaqil hisoblanadi va Daniyada prokuratura Adliya organiga bo'ysundiriladi va unga hisobdor bo'ladi.

Prokuratura sud organlari tarkibiga kiruvchi davlatlar toifasiga Ispaniya, Italiya, Germaniya kabi davlatlardir. Jumladan, Germaniyada 114 ta hudud (Yer) sudlari mavjud bo'lib, har 24 ta hudud (Yer) sudi qoshida Adliya vazirligiga bo'ysunuvchi bosh prokuratura mavjud hamda unga hisobdor sanaladi. Oliy Federal sud qoshida esa Federal Adliya vazirligiga hisobdor hisoblangan bosh prokuratura mavjud. Prokuratura organlari quyidan yuqoriga qarab bo'ysunish tartibi mavjudligi sababli barcha prokurorlar ustidan nazoratni yuqori turuvchi prokurorlar olib boradi. Federal Adliya vazirligi Federal Bosh prokuratura va u bilan ishlaydigan prokurorlarning faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi. Hududiy (Yer) adliya boshqarmalari — bu hududdagi prokuratura organlari (bizdagi viloyat, tuman, shahar prokurorlari tushuniladi) ustidan xizmat nazorati o'tkazish vakolatiga ega.

Prokuratura organlari davlat hokimiyati tarmoqlaridan alohida bo'lib, ya'ni ijro etuvchi va sud huquq-tizimi tarkibiga kirmaydigan davlatlarga Kuba, Laos, O'zbekiston, Xitoy, Vyetnam kabilarni misol keltirishimiz mumkin. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyasining 132-moddasida Oliy xalq prokuraturasi Xalq Vakillarining Butunxitoy Majlisi va uning Doimiy qo'mitasi oldida, mahalliy xalq prokuraturalari esa davlat hokimiyatining mahalliy organlari va yuqori turuvchi xalq prokurorlari oldida hisobdor sanalishi belgilangan[7]. Bundan tashqari, mahalliy prokuraturalarning rahbarlari (asosiy prokurorlar) xalq vakillarining mahalliy kengashlarida saylanadi va lavozimidan chaqirib olinishi ham mumkin.

Dunyoda shunday davlatlar ham borki, prokuratura organlari mavjud bo'lmagan, shunday davlatlar sirasiga Buyuk Britaniya kiradi. Bu yerda prokuratura o'rniga Davlat ayblov xizmati bor.

Amerika Qo‘shma Shtatlari prokuratura tizimi ijro hokimiyati organi hisoblanib, boshqa davlat prokuratura organlaridan keskin farq qiladi. AQSh prokuraturasi “Attorney xizmati” deb nomlanadi. Federal attorneylik rahbari Bosh prokuror hisoblanadi. Federal attorneylik xizmati 1789-yil qabul qilingan “Sud to‘g‘risida” gi federal qonunga asosan tashkil etilgan bo‘lib, mazkur davlat organiga “Bosh attorney” deb ataluvchi AQSh bosh prokurori rahbarlik qiladi. Har yili 1-aprelga qadar Bosh prokuror Kongressga Adliya departamentining faoliyati bo‘yicha o‘tgan yil uchun hisobot taqdim etadi.

Bundan tashqari, Z.S.Tursunovning ma’lumot berishicha [8], 1979-yil 1-iyundan boshlab, Kongressda o‘tkaziladigan sessiyalarning boshida Bosh prokuror Adliya departamentining jinoyatchilarni tergov qilish va javobgarlikka tortishni nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘limlari faoliyati to‘g‘risida hisobot taqdim etadi.

Umumiy qilib aytganda, turli mamlakatlarda prokuratura vakolat doirasida vakolat hajmi, shu bilan birga prokuror hamma yerda o‘zi yoki boshqa organ bilan hamkorlikni amalga oshiradigan vazifalariga qarab farq qiladi. Odatda barcha davlatlarning prokuratura organlari farqlari asosan o‘sha davlatning Konstitutsiyasining tuzilishi, qonunlari bilan ularga berilgan huquqiy maqomi va davlat hokimiyati bilan o‘zaro bog‘liqlik darajasi va faoliyat shakli va yo‘nalishlarini shu qonunlar mazmunidan kelib chiqqanligi bilan bog‘liq.

Xususan, O‘zbekistonda ham prokuratura faoliyati mustaqil hisoblanadi. Albatta, ushbu tizimning ijobiy tomoni sifatida prokurorning faoliyatida turli xildagi aralashuvlar bo‘lishini oldini oladi. Aytish kerakki, prokurorning mustaqilligi shaxsiy javobgarlikni kuchaytirishi bilan birga huquqbuzarlik holatini aniqlash hamda keskin qarshilik ko‘rsatish imkonini beradi. Lekin, mazkur soha qonunlariga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish lozim. Jumladan, bo‘ysunish tartibi va hisobdorlik masalasida xorij tajribasini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shu o‘rinda yana bir fikrni ham aytib o‘tish kerakki, ya’ni agar qonunni nazorat qiluvchi organda hech qanday hisobdorlik va nazorat masalasi bo‘lmasa, hech qaysi organ real tarzda qonunni nazorat qiluvchi organga aylana olmaydi. Bu uzoq yillik rivojlangan davlatlarning davlatchilik tarixidan olingan tajribalardir. Chunonchi, ko‘plab G‘arb davlatlari olimlari prokuror mustaqilligi va hisobdorligi o‘rtasida oqilona muvozanat saqlashi lozim[9], deb hisoblashadi. Boshqa olimlar guruhi esa, prokuror hisobdorligi sud jarayonidan boshqa barcha holatlarda bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagi xorij tajribasi va milliy qonunchilikdagi normalarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni ilgari suramiz:

Birinchidan, O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislarida ishtirok etish huquqi berilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini O‘zbekiston Respublikasining barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari majlislarida, quyi turuvchi prokurorlarni esa muayyan ravishda mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvining tegishli organlari majlislarida ishtirok etishi mumkinligi ham belgilangan. Bunday amaliyotni o‘z navbatida, nafaqat prokurorlik nazoratini tashkil etish va rejalashtirishda qo‘l keladi, balki prokurorlarni muayyan hududdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy muhit haqida to‘liq va bevosita olingan ma’lumotlardan xabardor bo‘lib turishiga ham xizmat qiladi. Xuddi shu kabi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputatlari va senatorlari hamda mahalliy vakillik organlari deputatlarini tegishlicha prokuratura organlarida o‘tkaziladigan hay’at majlislari va muvofiqlashtiruvchi kengashlar yig‘ilishlarida qatnashish huquqining amaldagi qonunchilikka belgilab qo‘yish, xalq vakillarini ham prokuratura organlarining ish faoliyatidan bevosita xabardor bo‘lib turishlarini ta’minlagan bo‘lar edi.

Shu munosabat bilan “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunga, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va boshqa barcha toifadagi quyi prokuraturalarning hay’at majlislari, muvofiqlashtiruvchi kengashlar yig‘ilishlari va prokurorlar huzurida o‘tkaziladigan tezkor majlislar *(tashkiliy-boshqaruv va individual xususiyatga ega bo‘lgan masalalarning muhokama etilishi bundan mustasno)* O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputatlari va senatorlari hamda tegishlicha mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining deputatlari ishtirok etishlari mumkinligi haqidagi qo‘shimchaning

kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Bu o‘z navbatida, prokuratura organlari faoliyatidagi oshkoralik prinsipi, shu orqali esa prokuratura faoliyati ustidan mahalliy Kengashning nazoratini hayotga yanada kengroq tatbiq etishga xizmat qiladi. Eng muhimi, hisobot tinglash— boshqacha, o‘sha hisobotni tizim faoliyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lgan holda tinglash — umuman boshqacha taassurot beradi-da.

Yuqoridagi asoslarga ko‘ra “Prokuratura to‘g‘risida”gi 19-moddasiga “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va boshqa barcha toifadagi quyi prokuraturalarning hay’at majlislari, muvofiqlashtiruvchi kengashlar yig‘ilishlari va prokurorlar huzurida o‘tkaziladigan tezkor majlislar *(tashkiliy-boshqaruv va individual xususiyatga ega bo‘lgan masalalarning muhokama etilishi bundan mustasno)* O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputatlari va senatorlari hamda tegishlicha mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining deputatlari ishtirok etishlari mumkin” kabi o‘zgartirishni mustahkamlash lozim.

Ikkinchidan, xorijiy davlatlarning (AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Rossiya, Polsha va boshqa) ushbu yo‘nalishda prokuror nazoratini ta’minlash borasidagi ilg‘or tajriba va o‘ziga xos jihatlarni milliy prokuraturaga tatbiq etish lozim[10]. Jumladan, Polsha prokuratura organlari konstitutsiyaviy maqomga ega emas. Ushbu davlatda prokuratura ijro hokimiyatida tarkibiga ya’ni Adliya vaziri bir vaqtning o‘zida Bosh prokuror hisoblanadi. Shuningdek, Polshada prokuratura qonunlarni bir xilda bajarish bilan birga jinoiy ta’qibni amalga oshiradi. Qolaversa, E.T.Hojiyevning ma’lumot berishicha[11], Polsha Bosh prokurori har yili parlamentga hisobot berib, o‘ziga nisbatan operativ nazorat o‘rnatilgan shaxslar haqida axborot taqdim etadi. Axborotda sud qarorlari asosida so‘zlashuvlari tinglangan va yozishmalar o‘rganilgan shaxslar, sud tomonidan rad etilgan so‘zlashuvlarni tinglash va yozishmalarni o‘rganishga doir iltimosnomalar hamda prokurorning o‘z vakolatlari doirasida rad etilgan tezkor-qidiruv organlarining iltimosnomalari to‘g‘risida va boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, Milliy prokuratura - Polsha prokuratura tizimining eng yuqori bo‘g‘ini, unga Milliy prokuror rahbarlik qiladi. Milliy prokuror, o‘rinbosarlar, Prezident roziligi bilan Ministrlar kengashi raisi tomonidan lavozimiga tayinlanadi. Milliy prokuraturaning asosiy vazifalaridan biri sifatida hududiy prokuratura organlarining faoliyati ustidan nazorat olib borish va faoliyatining muvofiqlashtirishdir. Shu bilan birga, Polshada 11 ta viloyat va 45 ta okrug prokuraturalari mavjud.

Polshada prokuratura organlarida xizmatga qabul qilinadigan nomzodlar uchun tegishli malaka talablari ham mavjud. Jumladan, Milliy prokuror bo‘lish uchun 12 yil yuridik sohada,shu jumladan 10 yil prokuror yoki sudya, viloyat prokurori uchun esa 10 yil yuridik sohada, shu jumladan 6 yil prokuror yoki sudya, okrug prokurori uchun esa 6 yil yuridik sohada, shu jumladan 3 yil prokuror yoki sudya lavozimida ishlashi lozim.

Bosh prokuratura huzurida Prokurorlar milliy kengashi mavjud bo‘lib, u prokuratura organlarining mustaqilligini kafolatlovchi organ hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Polshada prokuratura organlarining hisobdorligi va prokuratura organlari ustidan nazoratning tashkiliy-huquqiy asoslari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.
Shu boisdan, xorij davlatlari tajribasining ijobiy tomonlarini O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasiga ham foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblayman:

Bosh prokuror, hududiy prokurorlarning Oliy Majlis Senati va mahalliy kengashlar oldida o‘z faoliyati to‘g‘risida emas, Polshada prokuraturasi kabi aniq va qat’iy belgilab qo‘yish lozim.

Prokuratura organlariga nomzodlarni qabul qilishni aniq va qat’iy belgilash lozim. Toshkent davlat yuridik universiteti va Bosh prokuratura akademiyasini tamomlagan magistr darajasiga yoki ilmiy unvonga ega xodimlarini qabul qilishda imtiyoz belgilash lozim.

Tuman shahar, viloyat va unga tenglashtirilgan prokurorlarni tayinlashda nomzodlarga minimal yosh, ish staj bilan bog‘liq talablarni belgilash. Shuningdek, tuman shahar, viloyat va unga tenglashtirilgan prokurorlarni lavozimiga qayta tayinlashda avvalgi vakolat muddati davri amalga oshirgan ishlar yuzasidan eshitilgan hisobdorlik natijalariga ko‘ra mahalliy Kengashlarning tavsiyasi yoki Oliy Majlis Senatining prokuratura organlari ustidan nazorat komissiyasining

yozma roziligi asosida tayinlash lozim.

Prokuratura xodimlarining intizomiy jazo belgilashda va intizomiy jazo turlarini aniq va qat'iy turlarini qonunchilikka aniq belgilab qo'yish.

Uchinchidan, Prokuratura organlarini "Xalq prokuraturasi"ga aylantirishning asosiy mezonlaridan biri bo'lgan aholi oldida hisobdorlikni kuchaytirish maqsadida tegishli kengashlar oldida har 6 oyda o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etish tartibi belgilanmoqda. Xususan, xalqaro standartlarda prokuratura organlarining oshkoraligiga nisbatan qator talablar belgilangan. Jumladan, Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasi tomonidan 2012-yil 19-sentabrda qabul qilingan Tavsiyalarning 6-bandida prokuratura organlari o'z faoliyatini imkon qadar maksimal shaffof va ochiq tarzda tashkil etishlari lozimligi belgilangan. Shu bilan birga, mazkur tavsiyalarning 23-bandida agar prokurorlar davlat hokimiyati organlariga nisbatan nazorat funksiyalarini bajarsalar ularning to'liq qonunchilikka muvofiq faoliyat yuritishlarini ta'minlash maqsadida o'z vakolatlarini shaffof hamda to'liq qonun ustuvorligi prinsipiga muvofiq amalga oshirishlari lozimligi belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni bilan Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlangan. Bu borada o'xshash qoida Qozog'istonning "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 33-moddasida nazarda tutilgan.

Yuqoridagilarga muvofiq, prokuratura organlarining Kengash oldidagi shaffofligi va hisobdorligini ta'minlashga qaratilgan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasida quyidagi normalar bilan to'ldirilishishi lozim: "Prokuratura organlari qonunlarning ijro etilishini nazorat qilishga va jinoyatchilikka qarshi kurashga doir faoliyati to'g'risida jamoatchilikni muntazam xabardor qilish, o'zining faoliyati to'g'risidagi hisobotlardan jismoniy va yuridik shaxslarning foydalanishini qonunchilikda belgilangan tartibda ta'minlash yo'li bilan o'z faoliyatini oshkora amalga oshiradi. Prokuratura organlari faoliyati to'g'risida jamoatchilikka axborot taqdim etiladi. Prokuratura organlari faoliyatining oshkoraligi ularning rasmiy veb-saytida ma'lumotlarni joylashtirish orqali ham ta'minlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar, Bosh prokurorning Oliy Majlis Senati oldidagi hisobot berish kuni va kun tartibidagi masalalar, prokuratura organlarining o'z faoliyati haqidagi hisobotlarni Respublika - viloyat - tuman(shahar) kesimida to'liq e'lon qilib borishi shartdir".

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlariga asosan prokuratura organlariga qisqa davr mobaynida mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish, birinchi navbatda, qishloq joylarida aholi uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish, shuningdek, islohotlarni amalga oshirishda fuqarolarning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan qator muhim davlat va hududiy dasturlar, qonun hujjatlari qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi ko'rsatilgan talablarning qat'iy bajarilishi ustidan lozim darajada monitoring olib borish vazifasi yuklatildi. Bu esa prokuratura organlariga oldiga bir qator vazifa va funksiyalarni yukladi. Shuningdek, hozirgi kunda prokuratura organlariga yangi vazifalarning yuklatilishi qonunosti normalar bilan belgilangan bo'lib, qonun bilan mustahkamlanmagan. Shu boisdan, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida prokuratura organlari o'z faoliyatini asosiy yo'nalishlarga "hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qonunchilik ijrosi ustidan nazorat qilish", degan qoidani kiritish lozim.

Mazkur o'zgartirish kiritilishi prokurorlarni ish faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, mazkur o'zgartirish prokurorlarning ushbu yo'nalishdagi hisobdorlikni to'g'ridan-to'g'ri qonunda aks ettirilishiga imkon beradi. Bundan tashqari, 2019-yil 8-yanvardagi PQ–4102-sonli hamda 2022-yil 12-yanvardagi PQ–81-sonli Prezident qarorlar talablaridan kelib chiqib, prokurorlar faoliyatini baholashning asosiy mezonlariga

tegishli o‘zgartirish kiritib, “hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qonunchilik ijrosi ustidan nazorat qilish” kabi qoidani mustahkamlash lozim.

Beshinchidan, amaliyotda uchraydigan muammolardan yana biri Prokuratura organlarini chinakam “Xalq prokuraturasi”ga aylantirish, shuningdek, 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli Farmonning 2-bandidan belgilangan tartibdan kelib chiqib, prokuratura organlarining jamoatchilik oldida hisobdorligi belgilanishi lozim. Bunda “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan jamoatchilik nazorati subyektlari ishtirokida har yili matbuot anjumani o‘tkazish haqidagi qat’iy talab nazarda tutilmoqda. Yevropa kengashi Vazirlar qo‘mitasining 2000-yil 6-oktyabrdagi tavsiyalarida jamoatchilik prokuratura organlari faoliyati to‘g‘risida xabardor qilinishi lozimligi tavsiya etilgan. Yuqoridagilar asosida jamoatchilik hisobdorligi haqidagi modda bilan to‘ldirilishi darkor. Yangi tahrirda qabul qilinayotgan qonunda quyidagi moddani kiritish lozim:

Prokuratura organlari o‘z faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida jamoatchilik oldida hisobdordir. Prokuratura organlari o‘z faoliyatiga oid hisobotlarni rasmiy veb-saytlariga joylashtiradilar, bundan davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar mustasno. Prokuratura organlarining faoliyati to‘g‘risidagi hisobot har yili 1-aprelga qadar fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari ishtirokida matbuot anjumanlarida muhokama qiladi.

Oltinchidan, hududiy prokuratura organlarining hisobdorligini konstitutsiyaviy huquqiy asoslari yaratilgach, “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasiga “prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik, oshkoralik, hisobdorlikdir”, degan qoida mustahkamlansa prokurorlarning hisobdorligining tashkiliy-huquqiy asoslari samarali yo‘lga qo‘yiladi. Bundan tashqari, prokuratura organlari oldidagi vazifalarni bajarishda hisobdorligini oshirish maqsadida prokuratura xodimlarining professional darajasi va mas’uliyatini yanada oshirishni taqozo etmoqda. Zero, ikki asr oldin bildirilgan “eng katta jinoyat – qonun qo‘riqlovchilari tomonidan sodir etilgan jinoyat” [11]haqidagi fikr hali ham o‘z dolzarbligini kamaytirmagan. Shu boisdan:

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida bayon etilgan prokuratura organlarining tashkil etilishi va asosiy faoliyati yo‘nalishlari prinsiplari qatorida prokuratura organlari xodimlari o‘z xizmat vakolatlaridan shaxsiy va g‘arazli maqsadda foydalanmaslik, shaxsiy masalalarni hal qilishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shaxslar va fuqarolarga ta’sir o‘tkazmaslik va ularning faoliyatiga noqonuniy aralashmaslik prinsiplarini kiritish;

prokuratura organlari xodimlari tomonidan qonunga xilof ravishda sodir etilgan nomunosiblik, nojo‘ya xatti-harakatlar va harakatsizliklar aybdorning javobgarligini og‘irlashtiruvchi holat sifatida ma’muriy va jinoyat kodekslariga kiritish;

Bunday yangiliklar prokuratura organlari xodimlari tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishda vijdonan yondashishga va jamiyat oldida har doim hisobdorlik hissini oshiradi.

Xullas, Yangi O‘zbekiston sharoitida qonuniylikni qat’iy ta’minlaydigan, ochiq va adolatli prokuratura tizimining yangi huquqiy asoslarini yaratish tashabbusi asosida qabul qilinadigan normativ hujjatlar bu organ faoliyatini yanada xalqqa yaqin bo‘lishiga olib keladi.

REFERENCES

1. N.Yo‘ldoshev. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori. “Yangi O‘zbekiston prokuraturasi: islohotlarning dastlabki samaralari. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura Akademiyasi axborotnomasi. 2022-yil, 7 [N. Yoldoshev. Prosecutor General of the Republic of Uzbekistan. “The New Prosecutor’s Office of Uzbekistan: Initial Results of Reforms.” Bulletin of the Academy of the Prosecutor General’s Office of the Republic of Uzbekistan, 2022, No. 7.].

2. Prezident Shavkat Mirziyoyev prokuratura xodimlari bilan uchrashdi [President Shavkat Mirziyoyev met with the employees of the Prosecutor’s Office.]. https://president.uz/oz/lists/view/178

3. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2001-yil 29-avgust [Law of the Republic of Uzbekistan “On the Prosecutor’s Office.” Xalq So‘zi Newspaper, 29 August 2001]. https://lex.uz/docs/-106197

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi [Speech by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, at the ceremonial event dedicated to the 24th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan.]. https://president.uz

5. Prokuratura organlari tomonidan 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida MA’LUMOT [Information on the work carried out by the Prosecutor’s Office bodies during 2021]. https://prokuratura.uz

6. Sh.Saidov. Xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlarining huquq ijodkorligi jarayonida ishtiroki: shakllari va o’ziga xos jihatlari. Qonunchilik muammolari axborotnomasi.2022-yil 2-son, 41-bet [Sh. Saidov. Participation of Prosecutorial Bodies in the Law-Making Process in Foreign Countries: Forms and Specific Features. Bulletin of Legislative Issues, 2022, No. 2, p. 41].

7. Xitoy Xalq Respublikasi konstitutsiyasi [Constitution of the People’s Republic of China]. https:// chinalawinfo.ru/ constitutional _law/constitution/constitution_ch3p7.

8. Z.S.Tursunov. AQSH prokuratura organlari (Attorneylik xizmatlari)ning asosiy vazifalari. O‘zbekiston Bosh prokuratura Akademiyasi Axborotnomasi [Z. S. Tursunov. Main Functions of the Prosecutorial Bodies (Attorney Services) of the United States. Bulletin of the Academy of the Prosecutor General’s Office of Uzbekistan] 08.09.2020, 490-b.

9. F.A.Nazarovning “Prokurorlarning mustaqillik tamoyili: amaliyot va xorijiy tajriba” ilmiy maqola. O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi zamonaviy yuridik ilm-fan va ta’lim: dolzarb muammolar va ularni hal etish yo’llari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent – 2021. 696-b. [F. A. Nazarov. “The Principle of Prosecutors’ Independence: Practice and Foreign Experience.” In: Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on “Contemporary Legal Science and Education in the Academy of the Prosecutor General’s Office of the Republic of Uzbekistan: Current Issues and Solutions,” Tashkent, 2021, p. 696.]

10. Komilov A.B. Tadbirkorlarni huquqiy himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2020, 10-bet [A. B. Komilov. Improving the Organizational and Legal Foundations of Prosecutorial Oversight over the Implementation of Laws Aimed at the Legal Protection of Entrepreneurs. Dissertation Abstract. Tashkent, 2020, p. 10.]

11. E.T.Hojiyev. “Polsha prokuraturasining tashkiliy-huquqiy tizimi”. O‘zbekiston Bosh prokuratura Akademiyasi Axborotnomasi. 08.09.2020, 554-B. [E. T. Hojiyev. “Organizational and Legal System of the Prosecutor’s Office of Poland.” Bulletin of the Academy of the Prosecutor General’s Office of Uzbekistan, 8 September 2020, p. 554.]

12.00.10 –
Xalqaro huquq

UDK: 341.1/8

JAHON BOJXONA TASHKILOTINING BMT, UNING IXTISOSLASHGAN TASHKILOTLARI VA DASTURLARI BILAN INSTITUTSIONAL-HUQUQIY HAMKORLIGI

Irisqulov Azimxon Qurbonqulovich,
Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti
Maxsus fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi,
ORCID: 0009-4961-658X,
e-mail: mr.azimhon@inbox.ru

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО ВСЕМИРНОЙ ТАМОЖЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ С ОРГАНИЗАЦИЕЙ ОБЪЕДИНЁННЫХ НАЦИЙ, ЕЁ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫМИ УЧРЕЖДЕНИЯМИ И ПРОГРАММАМИ

Ирискулов Азимхон Курбонкулович,
Старший преподаватель кафедры «Специальных дисциплин»
Таможенного института Таможенного комитета,
ORSID: 0009-4961-658X,
e-mail: mr.azimhon@inbox.ru

INSTITUTIONAL AND LEGAL COOPERATION BETWEEN THE WORLD CUSTOMS ORGANIZATION AND THE UNITED NATIONS, ITS SPECIALIZED AGENCIES AND PROGRAMS

Irisqulov Azimxon Qurbonqulovich,
Senior Lecturer of the Department of Special Sciences,
Customs Institute of the Customs Committee,
ORSID: 0009-4961-658X,
e-mail: mr.azimhon@inbox.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Jahon bojxona tashkiloti (JBT) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) o‘rtasidagi hamkorlikning nazariy va amaliy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishini funksionalizm, neofunksionalizm, institutsionalizm va konstruktivizm nazariyalari doirasida o‘rganish orqali JBT–BMT hamkorligining evolyutsion xususiyatlari yoritilgan. Xususan BMTning ixtisoslashgan muassasalari — UNODC, UNEP, UNESCO, UNECE, UN/CEFACT bilan olib borilayotgan qo‘shma dasturlar va ularning xalqaro bojxona huquqi rivojiga ta’siri tahlil etilgan. Xususan, savdo jarayonlarini raqamlashtirish, chegara xavfsizligini kuchaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va madaniy merosni asrash sohalaridagi hamkorlik natijalari ko‘rsatilgan. Shuningdek, maqolada JBT va BMT tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy, institutsional va texnologik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Muallif fikriga ko‘ra, mazkur hamkorlik xalqaro savdoni yengillashtirish, transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish va global barqaror rivojlanishni ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Jahon bojxona tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, xalqaro hamkorlik, xalqaro bojxona huquqi, funksionalizm, institutsionalizm, raqamli savdo, UNODC, UNEP, UNESCO, UN/CEFACT, xavfsizlik, atrof-muhit, madaniy meros, transchegaraviy jinoyatchilik, raqamlashtirish, xalqaro huquqiy mexanizmlar.*

Аннотация. *В данной статье проведён всесторонний научный анализ сотрудничества между Всемирной таможенной организацией (ВТО, WCO) и Организацией Объединённых Наций (ООН) в контексте современного международного права и глобального управления. Исследование рассматривает теоретико-методологические основы взаимодействия международных организаций через призму функционализма, неофункционализма, институционализма и конструктивизма. Особое внимание уделено институциональным*

и правовым механизмам партнёрства ВТО с специализированными учреждениями ООН — такими как УНП ООН (UNODC), Программа ООН по окружающей среде (UNEP), ЮНЕСКО, Европейская экономическая комиссия ООН (UNECE) и Центр ООН по упрощению процедур торговли и электронного бизнеса (UN/CEFACT). В статье проанализированы практические результаты сотрудничества в области цифровизации торговых процессов, усиления пограничной безопасности, охраны окружающей среды и защиты культурного наследия. Автор выявляет ключевые направления дальнейшего развития партнёрства, включая совершенствование правовой базы, цифровую трансформацию таможенных процедур, повышение кадрового потенциала и оптимизацию финансовых механизмов. Сделан вывод о том, что сотрудничество между ВТО и системой ООН играет стратегическую роль в упрощении международной торговли, противодействии транснациональной преступности и обеспечении устойчивого глобального развития.

Ключевые слова: *Всемирная таможенная организация, Организация Объединённых Наций, международное сотрудничество, международное таможенное право, функционализм, институционализм, цифровая торговля, UNODC, UNEP, UNESCO, UN/CEFACT, безопасность, окружающая среда, культурное наследие, транснациональная преступность, цифровизация, международно-правовые механизмы.*

Abstract. *This article provides a comprehensive scholarly analysis of the cooperation between the World Customs Organization (WCO) and the United Nations (UN) within the framework of contemporary international relations and global governance. The study examines the theoretical and methodological foundations of interorganizational collaboration through the lenses of functionalism, neofunctionalism, institutionalism, and constructivism. Particular attention is devoted to the institutional and legal mechanisms underpinning the partnership between the WCO and various UN specialized agencies — including the United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC), the United Nations Environment Programme (UNEP), the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO), the United Nations Economic Commission for Europe (UNECE), and the United Nations Centre for Trade Facilitation and Electronic Business (UN/CEFACT). The article analyzes practical outcomes of cooperation in such areas as trade digitalization, border security enhancement, environmental protection, and the safeguarding of cultural heritage. The author identifies key directions for the future development of WCO–UN collaboration, emphasizing the need to strengthen legal frameworks, promote digital transformation of customs procedures, build human resource capacity, and optimize financial mechanisms. The paper concludes that cooperation between the WCO and the UN system plays a strategic role in facilitating international trade, combating transnational crime, and fostering sustainable global development.*

Keywords: *World Customs Organization, United Nations, international cooperation, international customs law, functionalism, institutionalism, digital trade, UNODC, UNEP, UNESCO, UN/CEFACT, security, environment, cultural heritage, transnational crime, digitalization, international legal mechanisms.*

Kirish

Jahon bojxona tashkiloti (JBT) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) o‘rtasidagi hamkorlik zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining murakkab, lekin ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu hamkorlik xalqaro savdoning barqaror rivojlanishini ta’minlash, bojxona huquqi va xavfsizlik masalalarida innovatsion va samarali mexanizmlar yaratish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Ayniqsa, JBT va BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari o‘rtasidagi institutsional aloqalar xalqaro huquq normalarini uyg‘unlashtirish va bojxona xizmatlarini texnologik modernizatsiya qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu hamkorlik xalqaro bojxona standartlarini rivojlantirish, xalqaro xavfsizlikni kuchaytirish va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim strategik asos sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bundan tashqari, bojxona xizmatlarining raqamli texnologiyalar asosida rivojlanishi, xavfsizlik choralarini kuchaytirish va bojxona xizmatlarida korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini joriy qilish BMT va JBT hamkorligining muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, raqamli texnologiyalar bojxona tizimlarida ma’lumotlarning shaffofligini oshirish va noqonuniy savdoga qarshi kurashda

samaradorlikni oshirish imkonini beradi [1, 67-89-b.]. Biroq, bunday texnologiyalarning joriy qilinishi texnik va moliyaviy to‘siqlarga duch kelmoqda, bu esa ushbu mexanizmlarni global miqyosda uyg‘unlashtirishni qiyinlashtirib kelmoqda.

BMT va JBT o‘rtasidagi hamkorlikka ilmiy munozaralarda ham ijobiy, ham tanqidiy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ba’zi tadqiqotchilar bu mexanizmlarni xalqaro huquqiy tamoyillarni uyg‘unlashtirishda muvaffaqiyatli deb hisoblasalar-da, boshqalar texnik to‘siqlar va milliy manfaatlar bilan bog‘liq muammolarni ta’kidlamoqda [2, 45-60-b.]. Masalan, ijobiy tomondan, xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari doirasida yaratilgan protokollar bojxona xizmatlarining samaradorligini oshirishga va global xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ushbu mexanizmlar milliy va xalqaro darajadagi bojxona jarayonlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan strategik qarorlarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi xalqaro huquqda xalqaro tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi nazariy asoslarini tahlil etish o‘tgan asrga borib taqaladi. Xalqaro tashkilotlarning o‘zaro hamkorligining nazariy asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda uchta asosiy yo‘nalish mavjud. Birinchi yo‘nalish vakillari (Mitrani, Xaas, Nay) ushbu hamkorlikni funksionalizm va neofunksionalizm nuqtayi nazaridan tahlil qiladilar. Ikkinchi yo‘nalish namoyondalari (Keoxeyn, Krasner, Yang) institutsional yondashuvga urg‘u beradilar. Uchinchi yo‘nalish tadqiqotchilari (Vendt, Finnemor, Barnett) esa konstruktivistik yondashuv asosida tahlil olib boradilar.

Funksionalizm va neofunksionalizm maktabi vakillari David Mitrani o‘zining ilmiy izlanishlari doirasida xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi funksional hamkorlik mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan. U xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi funksional aloqalarni “texnik-funksional determinizm” konsepsiyasi orqali tushuntiradi [3, 221-b.]. Mitranining ilmiy xulosalariga ko‘ra, xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik dastlab texnik masalalardan boshlanib, keyinchalik siyosiy sohalarga o‘tadi. Bu nazariya JBT-BMT munosabatlarida o‘z tasdig‘ini topgan - ikki tashkilot o‘rtasidagi dastlabki texnik hamkorlik (bojxona protseduralarini soddalashtirish) keyinchalik keng qamrovli siyosiy hamkorlikka aylangan.

Ernst Xaas neofunksionalizm nazariyasini rivojlantirib, “zanjirli reaksiya” (spillover effect) konsepsiyasini ilgari surgan. Uning ta’kidlanishicha, xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik “zanjirli reaksiya” tamoyili asosida rivojlanadi [4, 243-b.]. Xaas buni quyidagicha asoslaydi: “Bir sohadagi muvaffaqiyatli hamkorlik ishtirokchilarni yangi sohalarda ham hamkorlik qilishga undaydi, chunki ular o‘rtasida o‘zaro ishonch va umumiy manfaatlar shakllanadi”. Xaasning bu xulosasi JBT va BMT hamkorligining evolyutsion rivojlanishini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, hamkorlikning dastlabki davrida faqat bojxona masalalarini qamrab olingan bo‘lsa, keyinchalik hamkorlik doirasi kengayib, xavfsizlik, ekologiya, raqamli texnologiyalar kabi sohalarni ham o‘z ichiga olgan.

Jozef Nay neofunksionalizm nazariyasini yanada rivojlantirib, “kompleks o‘zaro bog‘liqlik” (complex interdependence) konsepsiyasini taklif etgan. Nayning fikricha, xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik uchta asosiy omil ta’sirida rivojlanadi: ko‘p kanalli aloqalar (multiple channels) - rasmiy va norasmiy aloqalar tizimi, kun tartibining iyerarxik emasligi (absence of hierarchy among issues) - barcha masalalarning teng ahamiyatga ega ekanligi va harbiy kuchning cheklangan roli (minor role of military force) - hamkorlikda iqtisodiy va ijtimoiy omillarning ustunligi [5]. Nayning bu nazariy xulosalari JBT-BMT hamkorligining zamonaviy holatini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, ikki tashkilot o‘rtasidagi hamkorlik bevosita, rasmiy (yuqori darajadagi uchrashuvlar) va norasmiy (ekspert guruhlari) kanallar orqali amalga oshiriladi, turli masalalar (savdoni yengillashtirish, xavfsizlik, ekologiya) teng ahamiyatga ega va iqtisodiy va ijtimoiy masalalar ustuvor hisoblanadi.

Institutsionalizm maktabi namoyondalari bo‘lgan Robert Keoxeyn kabi tadqiqotchilari xalqaro tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini neoliberal institutsionalizm nazariyasini ishlab chiqqan. Uning ilmiy xulosalariga ko‘ra, xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi institutsional hamkorlik “tranzaksion xarajatlarni” (transaction costs) kamaytiradi va “axborot

almashinuvi samaradorligini" oshirishdir [6, 178-b.]. Muallif fikrini davom ettirib JBT-BMT hamkorligini tahlil qilib, quyidagi fikrni ilgari surish mumkin, bunda ikki tashkilot o‘rtasidagi institutsional aloqalar nafaqat ularning o‘zaro faoliyatini muvofiqlashtiradi, balki global bojxona boshqaruvi samaradorligini ham oshirishga xizmat qiladi.

Oren Yang tadqiqotlarida institutsional hamkorlikning evolyutsion nazariyasini taklif etgan. Uning fikricha, xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik uch bosqichda rivojlanadi. Bular, institutsional innovatsiya (institutional innovation) - yangi hamkorlik mexanizmlarining paydo bo‘lishi, institutsional diffuziya (institutional diffusion) - mavjud mexanizmlarning tarqalishi va institutsional transformatsiya (institutional transformation) - hamkorlik mexanizmlarining takomillashuvi [7].

Konstruktivizm maktabi vakillaridan biri Aleksandr Vendt xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarni identifikatsiya va ijtimoiy o‘zaro ta’sir nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Vendtning fikricha, xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik "kollektiv identifikatsiya" (collective identification) jarayoni natijasida shakllanadi [8].

L.Finnemor JBT-BMT hamkorligini o‘rganib, quyidagi nazariy xulosaga keladi: "Ikki tashkilot o‘rtasidagi hamkorlik jarayonida nafaqat texnik normalar, balki umumiy qadriyatlar va identifikatsiya ham shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida global bojxona madaniyatining rivojlanishiga olib keladi" [9, 167-b.]. Shuningdek, M.Barnett va M.Finnemorlarning ta’kidlashicha, JBT-BMT hamkorligi uchta asosiy mexanizm orqali amalga oshiriladi:

1. Hamkorlikda umumiy tushunchalar va kategoriyalarning shakllanishi;
2. Hamkorlik sohalarining aniq belgilanishi;
3. Hamkorlik qoidalari va standartlarining shakllanishi [10].

Umuman olganda, bugungi zamonaviy hayotimizda JBT va BMT hamkorligi asosan uchta yo‘nalishda integratsiyalashadi: ma’lumotlar almashinuvi, texnologik hamkorlik va kiberxavfsizlik. Xususan, bu ikki tashkilot o‘rtasidagi institutsional-huquqiy hamkorlik global iqtisodiy tartibning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Bu hamkorlik xalqaro savdo tizimining asosiy tartibga soluvchi mexanizmi sifatida shakllandi.

JBT va BMT hamkorligining asosiy yo‘nalishlaridan biri xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash bilan bog‘liqdir. BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) bilan aloqasi bu borada yorqin misol bo‘la oladi. Ushbu hamkorlik xalqaro jinoyatchilik, ayniqsa transmilliy uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi va noqonuniy moliyalashtirish kabi masalalarda keng qamrovli, integratsiyalashgan yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu borada hamkorlikni amaliy natijasi sifatida 1996-yilda qabul qilingan "O‘zaro anglashuv memorandumi" [11] ikki tashkilot o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning asosiy manbasi hisoblanadi. Xalqaro jinoyatchilikning ko‘lami ortib borayotgan bir davrda, bunday strategik hamkorliklar transmilliy jinoyatlarni kamaytirish va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, JBT va UNODC o‘rtasidagi hamkorlikning natijasi sifatida xalqaro miqyosda giyohvand moddalarga qarshi kurashda samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida, BMTning narkotiklarni nazorat qilishga qaratilgan global dasturlari doirasida bojxona idoralarining ma’lumot almashish tizimlarini takomillashtirish ushbu kurashda muvaffaqiyatli vosita sifatida ko‘rilmoqda.

Xususan, UNODC va JBT chegaralarni boshqarish va yovvoyi tabiatni noqonuniy savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha global dasturlarda yaqindan hamkorlik qiladi. 2004-yilda tashkil etilgan qo‘shma Konteynerlarni nazorat qilish dasturi [12] dengiz portlari, aeroportlar va quruqlik chegara punktlarida xavflarni boshqarish, ta’minot zanjiri xavfsizligi va savdo tartibini yaxshilash imkoniyatlarini oshirish orqali noqonuniy tovarlarning chegaralararo harakatini oldini olishga qaratilgan. Dunyo iqtisodiyoti tobora o‘zaro bog‘lanib borar ekan, savdo imkoniyatlari butun dunyoga tarqalmoqda. Dengiz yo‘llari xalqaro tijoratning super magistrallaridir; 750 mln.dan ortiq yigirma futlik konteyner-larga teng harakatlar qayd etilgan bo‘lib, bu global yuk savdosining 90 %ni tashkil etadi.

Biroq, bu nafaqat hukumatlar va qonuniy biznes uchun, balki terrorchilar va transmilliy uyushgan jinoyatchilik guruhlari uchun ham pulni yuvilishida ishlatiladigan qonuniy tovarlardan tortib, taqiqlangan giyohvand

moddalar va hatto ommaviy qirg‘in qurollari uchun materiallarni tashishga imkoniyatlar yaratadi. Ushbu jinoyatchilar global savdoning ulkan hajmidan foydalanadilar, chunki bu samarali monitoringni o‘ta qiyinlashtiradi; yuk konteynerlarining ikki foizidan kamrog‘i tekshiriladi. Bundan tashqari, Darknet texnologiyalarining rivojlanishi har qanday shaxsga oddiy pochta va tijorat yuk tashish xizmatlaridan foydalanadigan kripto-bozorlarga kirishga imkon berdi. Va nihoyat, bu vazifa yashirish usullarining takomillashuvi, korrupsiya, cheklangan resurslar, port jarayonlarining murakkabligi va xilma-xilligi, tizimlar hamda davlat organlari va xususiy sektor vakillari o‘rtasida ishonch va muvofiqlashtirish yetishmasligi tufayli yanada murakkablashmoqda. Shunday qilib, bu vaziyat xalqaro xavfsizlik va barqaror rivojlanish uchun muhim bo‘lgan xalqaro savdo ta’minot zanjiriga jiddiy xavf tug‘diradi.

BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan qayd etganidek, “Agar taraqqiyot va inson huquqlari dushmanlari globallashuvning ochiqlik va imkoniyatlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanmoqchi bo‘lsalar, biz ham xuddi shu omillardan inson huquqlarini himoya qilish va jinoyatchilik, korrupsiya hamda odam savdosiga qarshi kurashish uchun foydalanishimiz kerak” [13].

Jahon bojxona tashkiloti (WCO) direktori, janob Pranab Kumar Das ta’kidlashicha, “natijalar va ta’sir idoralararo hamkorlik, xususiy sektor, xalqaro tashkilotlar, akademik doiralar va ommaviy axborot vositalari orqali mamlakatlar va ularning huquqni muhofaza qilish organlari bilan ko‘p tomonlama hamkorlik tufayli erishildi”. Janob Das ta’kidlaydiki, “so‘nggi yillardagi pandemiya, mojarolar va iqtisodiy inqiroz tufayli biz hammamiz o‘z zaifligimizni his qildik va har qachongidan ko‘ra ko‘proq tushundikki, global muammolarni faqat birgalikda bartaraf etishimiz mumkin. Xuddi shunday, uyushgan jinoyatchilik, noqonuniy savdo va terrorizm hamda ularning sog‘liq, iqtisodiyot va xavfsizlikka tahdidi har kimning kuchi va vakolatidan foydalangan holda qo‘shma mas’uliyat ruhi bilan hal qilinishi kerak” [14, 7-8-b.].

UNODC Chegara boshqaruvi bo‘limi boshlig‘i Alan Koul ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. U shunday dedi: “An’anaviy ta’minot zanjiri tizimlarining mo‘rtligini va kelajakka qarab dolzarbligini saqlab qolish zarurligini tan olgan holda, biz chegara boshqaruvi dasturlarimizni moslashtirdik; xodimlarni operatsiyalarga yaqinlashtirdik; “Konteynerlarni nazorat qilish dasturi ayollar tarmog‘i”ni rivojlantirdik; yangi xavf-xatarlar bo‘yicha yangi o‘quv dasturlarini ishga tushirdik; texnologiyalar va tahlil hamda axborot almashish usullarini takomillashtirdik; ilg‘or va maxsus jihozlarni yetkazib berdik; yangi geografik hududlarga kengaydik; Qora dengiz don tashish tashabbusiga hissa qo‘shdik va xalqaro hamkorlikni mustahkamladik” [15, 7-8-b.].

2015-yilda UNODC Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO) bilan ham hamkorlik Anglashuv memorandumini imzolagan. 2024-yil apreldan boshlab Konteynerlarni nazorat qilish dasturi (CCP) va Aeroport kommunikatsiya loyihasi (AIRCOP) Yo‘lovchilar va yuklarni nazorat qilish dasturiga birlashtirildi. Konteynerlarni nazorat qilish dasturi 2004-yilda JBT va UNODC tomonidan ishga tushirilgan bo‘lsa, AIRCOP 2010-yilda Yevropa Ittifoqi va Kanada moliyaviy ko‘magida ishga tushirilib, bugungi kunda JBT, INTERPOL va UNODC tomonidan boshqarilmoqda. Ushbu ikki tashabbus xavfsiz aloqa vositalari yordamida turli milliy huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantiradi [16].

Xalqaro savdo va bojxona munosabatlarining globallashuvi sharoitida davlatlararo hamkorlikni mustahkamlash, savdo jarayonlarini soddalashtirish hamda raqamlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. 2001-yilda imzolangan JBT va BMTning Savdoni osonlashtirish va elektron biznes markazi (UN/CEFACT) o‘rtasidagi o‘zaro anglashuv memorandumi [17] ana shunday hamkorlikning muhim huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Li Vanming xalqaro savdo va bojxona sohasidagi huquqiy tartibga solishning zamonaviy tendensiyalari sifatida xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikning institutsionallashuvini alohida ta’kidlaydi [18, 132-b.]. Memorandum xalqaro huquq nazariyasi nuqtayi nazaridan “yumshoq huquq” (soft law) instrumenti sifatida baholanadi. Biroq, uning xalqaro savdo huquqining rivojlanishiga ko‘rsatgan ta’siri

va amaliy ahamiyati uni “qattiq huquq” (hard law) darajasiga ko‘tarmoqda. Richard Jonson ta’kidlaganidek, “memorandum normalarining imperativ xususiyat kasb etishi uning xalqaro savdo huquqi tizimidagi rolini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi” [19, 278-301-b.].

Memorandum xalqaro savdo huquqining rivojlanishiga bir nechta yo‘nalishda sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Xalqaro savdo huquqining yangi konseptual asoslarini yaratdi, xalqaro savdo sohasidagi normativ bazaning shakllanishiga asos bo‘ldi va xalqaro savdo hamda bojxona sohasidagi institutsional mexanizmlarni takomillashtirdi.

Bu ta’sirlar natijasida qator muhim xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2013-yilda qabul qilingan Savdo tartib-qoidalarini soddalashtirish bo‘yicha JST shartnomasi (WTO Trade Facilitation Agreement, BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE)ning Ixtisoslashgan ishchi guruhi orqali Savdo va elektron biznes operatsiyalarini soddalashtirish markazi (UN/CEFACT)ning “Yagona darcha” funksional muvofiqligini ta’minlash tizimi (Single Window Interoperability Framework (2016) qabul qilindi.

Savdo jarayonlarini soddalashtirish va elektron biznes bo‘yicha BMT Markazi (UN/CEFACT) [20] “Yagona darcha”ni xalqaro ta’minot zanjirida ishtirok etuvchi tomonlarga barcha import, eksport va tranzitga oid tartib-qoidalar talablarini bajarish uchun standartlashtirilgan formatda ma’lumotlarni bitta kirish nuqtasida taqdim etish imkonini beruvchi mexanizm sifatida ta’riflaydi. BMTning “Osiyo va Tinch okeani mintaqasida chegaralardan tashqari qog‘ozsiz savdoni soddalashtirish bo‘yicha hadli bitimi” (CPTA) (The Framework Agreement on Facilitation of Cross-border Paperless Trade in Asia and the Pacific (2016) [21], BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh kotibi huzurida saqlanadigan shartnoma, savdo va rivojlanish uchun raqamli savdoni soddalashtirish chora-tadbirlarini jadallashtirishni maqsad qiladi. O‘zbekiston Respublikasi ushbu hadli bitimga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentyabrdagi “Xalqaro shartnomaga qo‘shilish to‘g‘risida”gi PQ-316-sonli qaroriga [22] asosan qo‘shilgan. (Bitim O‘zbekiston Respublikasi uchun 3-fevral 2025-yildan kuchga kirdi).

2001-yildan buyon JBT “Yashil bojxona tashabbusi” (Green Customs Initiative - GCI)da faol hamkorlik qilib kelmoqda. Bu tashabbus BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan muvofiqlashtiriladigan hamkor tashkilotlarning qo‘shma faoliyati bo‘lib, bu ekologik jihatdan sezgir tovarlar va moddalarning noqonuniy savdosining oldini olish uchun hamkorlik qiladigan xalqaro tashkilotlar sherikligidir. Uning maqsadi bojxona va chegara nazorati xodimlarining qonuniy savdoni kuzatish va osonlashtirish, shuningdek, tegishli ko‘ptomonlama ekologik bitimlar (Multilateral Environmental Agreements - MEA) va xalqaro konvensiyalar doirasidagi ekologik sezgir tovarlarning noqonuniy savdosini aniqlash va oldini olish imkoniyatlarini oshirishdir. Hamkorlik doirasida 2008-yilda JBT Kengashi Transchegaraviy ekologik huquqbuzarliklarga qarshi choralar to‘g‘risida tavsiyalarni qabul qildi [23]. Bu tavsiyada bojxona ma’muriyatlarining ushbu sohadagi imkoniyatlarini oshirish uchun zarur bo‘lgan qadamlar belgilab berilgan.

JBT 2012-yilda o‘z a’zolarining ekologik masalalarda ko‘maklashish ehtiyojiga javoban Atrof-muhit dasturini tashkil etdi. Bu dastur a’zolarga ekologik jinoyatchilikka qarshi kurashishda yordam beradi, xususan:

yovvoyi tabiat va yog‘ochlarning noqonuniy savdosi;

xavfli va boshqa chiqindilarning noqonuniy savdosi;

ozon qatlamini yemiruvchi moddalar noqonuniy savdosi.

Atrof-muhit dasturi tashkil etilganidan so‘ng, JBT INAMA loyihasi [24] doirasida faoliyatni boshladi. Loyihaning maqsadi Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika, Janubiy Amerika va Osiyo bojxona xizmatlarining quyidagi yo‘nalishlarda imkoniyatlarini kuchaytirish hisoblanadi:

operativ salohiyatni mustahkamlash;

yovvoyi tabiat savdosi xavflarini boshqarish va hodisalarni tanlashni takomillashtirish;

idoralararo va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Bundan tashqari, loyiha bojxona xodimlarini yovvoyi tabiat savdosi sohasida Texnik va operativ maslahatchilar sifatida akkreditatsiya qilishga hissa qo‘shdi. JBT o‘z a’zolariga taqdim etadigan turli vosita va instrumentlar

qatorida, Atrof-muhit dasturi a'zolar va hamkorlar bilan o'zaro aloqa uchun CENcomm Environet [25] platformasidan foydalanadi. Bu barcha vakolatli milliy organlar, xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy tarmoqlar o'rtasida real vaqtda xavfsiz axborot almashish vositasi bo'lib, butun dunyodagi aloqa nuqtalari va ekspertlarni birlashtiradi. Bundan tashqari, JBTning CLiKC! [26] elektron ta'lim platformasi "Ko'p tomonlama ekologik bitimlar" va ekologik jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha bojxona choralari to'g'risida kurslarni o'z ichiga oladi.

UNEP dasturi doirasida hamkorlikda 2014-yil iyunda JBT Kengashi "Yovvoyi tabiatning noqonuniy savdosi bo'yicha" JBT Deklaratsiyasini [27] qabul qildi. Bu deklaratsiya global bojxona hamjamiyatining bu jinoyatlarga o'z vaqtida, izchil va muvofiqlashtirilgan tarzda qarshi kurashish bo'yicha majburiyatini namoyish etdi. 2016-yil mart oyida Londonda "Birlashgan yovvoyi tabiatni muhofaza qilish transport guruhi" tomonidan "Bukingem Deklaratsiyasi" [28] imzolandi. Deklaratsiyani imzolagan tomonlar yovvoyi tabiatning noqonuniy savdosiga qarshi qat'iy kurashish majburiyatini oldilar.

BMTning Ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti (UNESCO) va JBT o'rtasidagi hamkorlik 1970-yilgi "Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va ularga egalik huquqini boshqa shaxsga o'tkazishni taqiqlash hamda oldini olish choralari to'g'risida"gi Konvensiya [29, 231-253-b.] talablarini amalga oshirish doirasida olib borilmoqda. Mazkur konvensiya bugungi kunda 143 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Hamkorlik doirasida JBT tomonidan ARXEO (ARCHEO - JBTning CENcomm platformasida joylashgan maxfiy aloqa tarmog'idir) dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, u madaniy boyliklarni noqonuniy olib o'tishga qarshi kurashish bo'yicha real vaqt rejimida ma'lumot almashish platformasi hisoblanadi. Bu platforma davom etayotgan tergov ma'lumotlari va razvedka ma'lumotlarini almashish uchun tezkor yordam va vositalarni taqdim etish orqali madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishi va o'g'irlanishining oldini olishga qaratilgan. Platforma bojxona organlari va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va mutaxassislari uchun ochiq. Ushbu platforma BMT Xavfsizlik Kengashining 2347/2017-sonli [30] qarorida, shuningdek, BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasining madaniy merosiga qarshi transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risidagi 10/7-sonli [31] qarorida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

S.Makkenzi o'zining tadqiqotlarida UNESCO-JBT hamkorligining quyidagi muhim jihatlarini, jumladan, madaniy boyliklarni identifikatsiya qilish bo'yicha xalqaro standartlar ishlab chiqilganligi, bojxona xodimlari uchun maxsus o'quv dasturlari yaratilganligi va xalqaro hamkorlik mexanizmlari takomillashtirilganligini ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha, kelgusida bu ikki tashkilotning hamkorligini yanada rivojlantirish mintaqaviy koordinatsiya markazlari tarmog'ini kengaytirish va madaniy boyliklarning elektron pasportlashtirish tizimini yaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, JBT BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) bilan 1975-yilgi "Xalqaro yuk tashish konvensiyasi" (TIR Convention) [32] doirasida, BMTning Narkotik moddalar bo'yicha komissiyasi (CND) 1988-yilda qabul qilingan "Narkotik moddalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risida"gi [33] BMT Konvensiyasi doirasida hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda.

JBTning BMT tizimi bilan hamkorligini tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, BMT bilan hamkorlik JBTga global darajada bojxona sohasidagi muammolarni hal etish imkonini bermoqda. Ya'ni, JBT va BMT tizimi o'rtasidagi hamkorlik xalqaro bojxona huquqining rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

Ikkinchidan, hamkorlikning huquqiy bazasi mustahkam bo'lib, u doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Biroq, fikrimizcha, ayrim sohalarda normativ-huquqiy bazani yanada mustahkamlash talab etiladi.

Uchinchidan, JBT va BMT tizimi o'rtasidagi hamkorlik amaliy natijalarga erishishga qaratilgan bo'lib, bu borada o'zaro manfaatli loyihalar amalga oshirilmoqda.

To'rtinchidan, JBTning BMT tizimi bilan hamkorligi dinamik rivojlanib bormoqda. Bu hamkorlik doirasida yangi yo'nalishlar, jumladan raqamli texnologiyalarni joriy etish

va bunday zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash kabi masalalar kun tartibiga chiqmoqda.

Beshinchidan, JBT va BMT tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning samaradorligini oshirishda quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozim:

hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

moliyaviy resurslarni optimallashtirish;

kadrlar salohiyatini oshirish;

yangi texnologiyalarni joriy etish;

ma’lumot almashinuvi tizimini takomillashtirish.

Yuqoridagi tahlillar asosida, JBT va BMT tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning istiqbollari borasida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. JBT va BMT tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini kodifikatsiya qilish lozim. Bu borada yagona hujjat – “JBT va BMT tizimi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi umumiy konvensiya”ni ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq.

2. JBTning BMT tizimi bilan hamkorligini muvofiqlashtirish bo‘yicha maxsus qo‘mita tuzish zarur. Ushbu qo‘mita doirasida hamkorlikning barcha yo‘nalishlarini kompleks ravishda muvofiqlashtirish va monitoring qilish imkoniyati yaratiladi.

3. JBTning BMT tizimi bilan hamkorligini raqamlashtirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Mazkur dastur doirasida:

ma’lumotlar almashinuvining yagona elektron platformasini yaratish;

sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;

“blokcheyn” texnologiyalaridan foydalanish;

“katta ma’lumotlar” (Big Data) texnologiyalarini qo‘llash mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

4. JBT va BMT tizimi o‘rtasidagi hamkorlik doirasida kadrlar salohiyatini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu borada:

xalqaro standartlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish;

masofaviy ta’lim platformalarini rivojlantirish;

amaliy seminar va treninglarni muntazam o‘tkazish;

malaka oshirish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

5. JBT va BMT tizimi o‘rtasidagi hamkorlikni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu borada:

moliyaviy resurslarni optimallashtirish;

donor tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

loyihalarni moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlarini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, JBTning BMT tizimi bilan hamkorligi zamonaviy xalqaro bojxona huquqining muhim instituti hisoblanadi. Ushbu hamkorlik doirasida erishilgan yutuqlar xalqaro savdoni yengillashtirish, bojxona nazoratini takomillashtirish va transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, mazkur hamkorlikni yanada rivojlantirish, uning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va amaliy samaradorligini oshirish bo‘yicha yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalarni amalga oshirish lozim.

REFERENCES

1. Clark, T. (2020). Anti-Corruption Measures in Development Programs. Economic Perspectives, 15(4), 67-89.

2. Miller, P. (2019). Technical Barriers in Environmental Cooperation. Ecology and Economics, 12(1), 45-60.

3. David Mitrany, A Working Peace System Chicago: Quadrangle Press, 1966. pp. 221.

4. Ernst B. Haas, Beyond the Nation-State. Functionalism and International Organization, Stanford. 1964. p.243.

5. Nye, J. (1971). Peace in Parts: Integration and Conflict in Regional Organization. Little, Brown and Company.

6. Keohane, R. O. (1984). After Hegemony: Cooperation and Discord in the World Political Economy. Princeton University Press, Princeton, NJ. p.178

7. Young, O. R. (1989). International Cooperation: Building Regimes for Natural Resources and the Environment. Cornell University Press, Ithaca, NY.

8. Wendt, A. (1992). Social Theory of International Politics. Cambridge University Press.

9. Finnemore, M. (1996). National Interests in International Society. Cornell University Press, New York. p.167

10. Barnett, M. N., & Finnemore, M. (2004). Rules for the World: International Organizations in Global Politics. Cornell University Press. p.82 DOI: https://doi.org/10.7591/9781501700286

11. Memorandum of Understanding between the World Customs Organization and the United Nations Office on Drugs and Crime // https://www.wcoomd.org/~/media/wco/public/global/pdf/about-us/partners/mou/035_mou. pdf?la=fr

12. CCP Annual Report 2022 https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/ pdf/topics/enforcement-and-compliance/activities-and-programmes/drugs-and-precursor-chemicals/ccp/ccp-annual-report-2022.pdf?db=web

13. Elektron resurs: https://www.unodc.org/unodc/en/ccp/Overview.html

14. CCP Annual Report 2022 p.7-8

https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/topics/enforcement-and-compliance/activities-and-programmes/drugs-and-precursor-chemicals/ccp/ccp-annual-report-2022.pdf?db=web

15. O‘sha yerda, 7-8-b.

16. Passenger and Cargo Control Programme (PCCP) https://www.wcoomd.org/en/topics/enforcement-and-compliance/activities-and-programmes/ unodc_wco_container_control_programme.aspx.

17. Economic and Social Council Memorandum of Understanding between the World Customs Organization (WCO) and the United Nations Centre for Trade Facilitation and Electronic Business (UN/CEFACT) // https://digitallibrary.un.org/record/432521?ln=ru&v=pdf

18. Vanming, L. (2021). International Trade Law in Digital Age. Cambridge University Press. P.132

19. Johnson, R. (2022). The Role of International Organizations in Trade Law. Columbia Journal of Transnational Law, 60(2), 278-301.

20. UN/CEFACT (2005). Recommendation No. 33: Recommendation and Guidelines on establishing a Single Window to enhance the efficient exchange of information between trade and government, 1-37. // http://www.unece.org/cefact/recommendations/rec33/rec33_trd352e.pdf

21. The Framework Agreement on Facilitation of Cross-border Paperless Trade in Asia and the Pacific // https://lex.uz/docs/7214727#7215196.

22. Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentyabrdagi “Xalqaro shartnomaga qo‘shilish to‘g‘risida”gi PQ-316-sonli qarori // https://lex.uz/docs/7094817

23. RECOMMENDATION OF THE CUSTOMS CO-OPERATION COUNCIL CONCERNING ACTIONS AGAINST CROSS-BORDER ENVIRONMENTAL OFFENCES // https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/about-us/legal-instruments/recommendations/enforcement/cross_border-environmantal-offences.pdf?la=en.

24. INAMA Project // https://www.wcoomd.org/en/topics/enforcement-and-compliance/activities-and-programmes/environment-programme/inama-project.aspx.

25. Customs Enforcement Network Communication Platform (CENcomm) // https://www.wcoomd.org/en/topics/enforcement-and-compliance/instruments-and-tools/cen-suite/cencomm.aspx

26. The WCO learning platform for Customs officers // https://clikc.wcoomd.org/

27. DECLARATION OF THE CUSTOMS CO-OPERATION COUNCIL ON THE ILLEGAL WILDLIFE TRADE https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/about-us/legal-instruments/declarations/wildlife-trade-declaration_en.pdf?la=en

28. UNITED FOR WILDLIFE TRANSPORT TASKFORCE BUCKINGHAM PALACE DECLARATION // https://claude.ai/chat/7140eca8-817d-48ff-8578-1faac0ddaf3d

29. UNESCO Convention on the Means of Prohibiting and Preventing the Illicit Import, Export and Transfer of Ownership of Cultural Property. (1970, November 14). United Nations Treaty Series, Vol. 823, 231-253.

02.00.09 –
Tovarlar kimyosi

UDK: 54.06

TOVARLARNI IDENTIFIKATSIYA QILISHDA INTELLEKTUAL IDENTIFIKATSIYA TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI INSON OMILINI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI

Rayxonov Erkin Shamsidinovich,
Bojxona instituti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti Maxsus fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi.
e-mail: rayxonov_0770@bk.ru

ВОЗМОЖНОСТИ СНИЖЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА ПРИ ИДЕНТИФИКАЦИИ ТОВАРОВ ПУТЁМ ВНЕДРЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ

Райханов Эркин Шамсидинович,
старший преподаватель кафедры Специальных дисциплин факультета Переподготовки и повышения квалификации Таможенного института,
e-mail: rayxonov_0770@bk.ru

POSSIBILITIES OF REDUCING THE HUMAN FACTOR IN THE IDENTIFICATION OF GOODS THROUGH THE IMPLEMENTATION OF INTELLIGENT IDENTIFICATION SYSTEMS

Raykhanov Erkin Shamsidinovich,
Senior Lecturer of the Faculty of Retraining and Advanced Training of Customs Institute,
e-mail: rayxonov_0770@bk.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tovarlarni identifikatsiya qilish jarayonlarida intellektual identifikatsiya tizimlarini joriy etish orqali inson omilini kamaytirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda sun’iy intellekt, mashinali o‘rganish, kompyuter ko‘rish va ma’lumotlar tahlili texnologiyalarining bojxona sohasidagi qo‘llanish samaradorligi yoritilgan. Intellektual tizimlar tovarlarning tashqi ko‘rinishi, markirovkasi, tarkibi va boshqa belgilarini avtomatik ravishda aniqlash orqali identifikatsiya jarayonini tezlashtirish, xatolik ehtimolini kamaytirish hamda inson ishtirokini minimallashtirish imkonini beradi. Maqolada shuningdek, intellektual identifikatsiya tizimlarini amaliyotga tatbiq etishda axborot xavfsizligi, texnik infratuzilma va kadrlar malakasini oshirishning ahamiyati ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellektga asoslangan identifikatsiya tizimlari tovarlarning to‘g‘ri klassifikatsiya qilinishi va bojxona nazorati samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *tovarlarni identifikatsiya qilish, sun’iy intellekt, intellektual tizimlar, inson omili, avtomatlashtirish, bojxona nazorati, raqamli texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы возможности снижения влияния человеческого фактора в процессах идентификации товаров за счёт внедрения интеллектуальных систем идентификации. В исследовании освещена эффективность применения технологий искусственного интеллекта, машинного обучения, компьютерного зрения и анализа данных в таможенной сфере. Интеллектуальные системы позволяют автоматически определять внешний вид, маркировку, состав и другие характеристики товаров, что способствует ускорению процесса идентификации, снижению вероятности ошибок и минимизации участия человека. В статье также подчёркивается важность обеспечения информационной безопасности, развития технической инфраструктуры и повышения квалификации кадров при внедрении интеллектуальных систем идентификации*

на практике. Согласно результатам исследования, системы идентификации, основанные на искусственном интеллекте, являются важным инструментом для повышения точности классификации товаров и эффективности таможенного контроля.

Ключевые слова: *идентификация товаров, искусственный интеллект, интеллектуальные системы, человеческий фактор, автоматизация, таможенный контроль, цифровые технологии.*

Annotation. *This article analyzes the possibilities of reducing the impact of the human factor in the processes of goods identification through the implementation of intelligent identification systems. The study highlights the effectiveness of using artificial intelligence, machine learning, computer vision and data analysis technologies in the customs sphere. Intelligent systems make it possible to automatically determine the appearance, labeling, composition and other characteristics of goods, which helps to accelerate the identification process, reduce the likelihood of errors and minimize human involvement. The article also emphasizes the importance of ensuring information security, developing technical infrastructure and improving staff qualifications when implementing intelligent identification systems in practice. According to the research results, identification systems based on artificial intelligence are an important tool for improving the accuracy of goods classification and the efficiency of customs control.*

Keywords: *Goods identification, artificial intelligence, intelligent systems, human factor, automation, customs control, digital technologies.*

Kirish

Raqamli transformatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan bugungi kunda bojxona tizimida tovarlarni tezkor va aniq identifikatsiya qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tovarlarning noto‘g‘ri identifikatsiya qilinishi yoki tasniflanishi bojxona rasmiylashtiruvi kechikishiga, bojxona to‘lovlari xatoliklariga hamda xalqaro savdo oqimlarining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli so‘nggi yillarda bojxona faoliyatida inson omilini kamaytirish, qarorlarni avtomatik tarzda qabul qilish va xatolik ehtimolini minimallashtirish maqsadida intellektual tizimlardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Tovarlarni identifikatsiya qilishda sun’iy intellekt (AI), mashinali o‘rganish (ML) va kompyuter ko‘rish (CV) texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat jarayonning tezligini, balki aniqlik darajasini ham sezilarli oshiradi. Mazkur texnologiyalar yordamida tovarlarning tashqi ko‘rinishi, shakli, tarkibi, markirovkasi va boshqa fizik-kimyoviy xususiyatlari avtomatik tarzda tahlil qilinadi. Bu esa bojxona nazoratining obyektivligini ta’minlash, subyektiv inson omiliga bog‘liq qarorlarni kamaytirish va korrupsiya xavfini oldini olish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasida bojxona jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida intellektual identifikatsiya tizimlarini tatbiq etish masalasi amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, ushbu tizimlarni samarali ishlatish uchun texnik infratuzilmani rivojlantirish, ma’lumotlar bazalarini integratsiya qilish va bojxona xodimlarining malakasini oshirish zaruriyati tug‘ilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada tovarlarni identifikatsiya qilishda intellektual tizimlardan foydalanish imkoniyatlari, inson omilini kamaytirish mexanizmlari hamda bu jarayonning bojxona faoliyati samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Material va metodlar


Tadqiqotning ilmiy asosini bojxona faoliyatida tovarlarni identifikatsiya qilish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda intellektual tizimlarni joriy etish bo‘yicha mavjud nazariy va amaliy manbalar tashkil etadi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasining ochiq statistik ma’lumotlari, Jahon bojxona tashkiloti (WCO) tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, shuningdek, xalqaro tajriba — Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Xitoy va Turkiya bojxona xizmatlarida qo‘llanilayotgan raqamli identifikatsiya tizimlari misol tariqasida o‘rganildi. Tadqiqotda ekspert baholash usuli, axborot modellashtirish usuli va taqqoslama (komparativ) tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) kodlarini to‘g‘ri tasniflash jarayoni nomenklaturaning

qoidalariga qat'iy rioya qilishni talab etadi. Xususan, bojxona yuk deklaratsiyasining 31, 33 va 44-grafalaridagi ma'lumotlar bilan tovar kuzatuv hujjatlaridagi ma'lumotlarning uyg'unligi tizimli tekshiriladi. Bu nafaqat bojxona to'lovlarining to'g'ri undirilishini ta'minlaydi, balki tovarlar haqidagi ma'lumotlarning o'zaro mosligi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

TIF TN kodlarining aniq va to'g'ri tasniflanishi nafaqat bojxona organlarining samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiyotdagi yashirin oqimlarni aniqlash, hamda ichki bozordagi noqonuniy importni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, tovarlarning TIF TN bo'yicha aniq tasnifi bojxona tartib-qoidalarining soddalashtirilishiga olib keladi.



1-rasm. Sun'iy ipakdan tayyorlangan matoning IQ spektri

2023-2024-yillar davomida tekstil sanoati mahsulotlari importi va eksporti sezilarli darajada o'zgardi. Buning asosiy sababi mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida tekstil va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish uchun zarur huquqiy baza va qulay sharoitlar shakllantirildi.

Tekstil sanoati mahsulotlari respublika miqyosida 2024-yil jami 1,3 mlrd AQSh dollarga import qilingan, bu ko'rsatkich o'tgan 2023-yilga nisbatan 17 % oshgan.

Import qilingan asosiy tekstil sanoati mahsulotlari:

1. Sun'iy iplardan tayyorlangan matolar 2024-yil 33,4 mln AQSh dollarga import qilingan, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 84 % ga oshgan.

2. Tabiiy iplardan ishlangan matolar 2024-yil 26,5 mln AQSh dollarga import qilingan, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 30 % ga ortgan.

3. Sun'iy iplar 2024-yil 22,6 mln AQSh dollarga import qilingan, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 30 % ga ortgan.

4. Tabiiy iplar 2024-yil 43,0 mln AQSh dollarga import qilingan, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 17 % ga ortgan.

5. Sintetik iplar kalava 2024-yil 176,7 mln AQSh dollarga import qilingan, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 15 % ga ortgan.

2023-2024-yillarda tekstil sanoati mahsulotlarining statistikasini tahlil qilsak, 2024-yilda asosan "Kiyim-kechak" (palto, kostyum, ichki kiyim, ko'ylak va boshqalar) tekstil sanoati mahsuloti 73,3 mln AQSh dollarga import qilingan, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 12 mln AQSh dollariga ko'p import qilingan.

1-rasmda 2022-2024-yillarda tekstil mahsulotlari bo'yicha o'tkazilgan ekspertizalar soni berilgan

Markaziy bojxona laboratoriyasi tomonidan 2024-yilda 998 ta ekspertiza o'tkazildi (2023-yilda 492 ta bo'lgan — 2 barobar ko'payish). Tekstil mahsulotlari uchun ikki yilda ekspertizalar soni 179% ga oshib, deyarli uch barobarga ko'paydi.

Tahlil va hisob-kitoblar qilinganda 2025-yilda bu ko'rsatkich tekstil mahsulotlari bo'yicha 560–570 ta xulosa berilishi mumkin. Bu esa nafaqat son, balki sifat va samaradorlik


1-jadval

2022-2024-yillarda MBL da Tekstil mahsulotlari uchun o‘tkazilgan bojxona ekspertizasi yuzasidan ma’lumot

YIL	Jami ekspertizalar soni	Tekstil bo‘yicha berilgan xulosalar soni	Tekstil tovarlarning jami ekspertizalar sonidagi ulushi	Aniqlangan holatlar	Qo‘shimcha hisoblangan
			(%da)	soni	summa (so‘mda)
2022	217	121	55.8	20	970 231 155,27
2023	492	210	42.7	25	682 675 638,41
2024	998	338	33.9	25	591 679 052,54

ham oshishini anglatadi.

Bojxona ekspertizasi yo‘nalishida 2024–2025-yillarning 1-yanvaridan sifatida ko‘rinsa-da, ularni TIF TNga muvofiq tasniflash qoidalariga ko‘ra tekstil mahsulotlari tasniflanadigan bo‘limda tasniflashni



2-rasm. 2022-2024-yillarda tekstil mahsulotlari bo‘yicha o‘tkazilgan ekspertizalar soni

30-apreligacha bo‘lgan davr holatiga ko‘ra, 2024-yilda 16 ta holat aniqlangan bo‘lib, 260 million so‘mga yaqin to‘lov undirilgan. 2025-yilda esa shu davr mobaynida 23 ta holat aniqlanib, 1 mlrd. 40 mln. so‘m to‘lov undirilgan. Natijaviy samaradorlik esa 4 baravarga oshganini ko‘rsatmoqda.

To‘rt oy davomida 500 dan ortiq ekspertiza xulosasi berilgan, holbuki o‘tgan yili butun yil davomida 998 ta ekspertiza xulosasi berilgan. Bu esa yil sayin bojxona ekspertizasiga bo‘lgan talab ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Odatda tekstil mahsulotlari kundalik hayotimizda iste’mol tovarlari sifatida qo‘llaniladigan turli tovarlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi va ulardan doimiy foydalanamiz. Birgina gigiyenik salfetkalar, meditsina vatalari, teri va mo‘yna mahsulotlari, to‘qilgan o‘yinchoqlar, to‘qima poyabzallar bir qarashda barchasi tekstil mahsulotlari imkoni mavjud emas. Shunday ekan, tekstil mahsulotlarining xomashyo, yarim tayyor mahsulot va tayyor mahsulot ko‘rinishida tasniflash uchun ularni alohida xususiyatlari va mezonlari bo‘yicha o‘rganish talab etiladi.

Tekstil mahsulotlarini TIF TN bo‘yicha to‘g‘ri tasniflash jarayoni ko‘p hollarda murakkablik tug‘diradi. Chunki bunday tovarlarning tarkibi aralash bo‘lib, tabiiy va sintetik tolalarning nisbatiga qarab turlicha identifikatsiya qilinadi. Shu sababli, so‘nggi yillarda bojxona laboratoriyalarida intellektual identifikatsiya tizimlarini joriy etish zaruriyati keskin ortdi.

Bunday tizimlar yordamida sun’iy intellekt algoritmlari mahsulotning optik tasviri, to‘qima zichligi, rangi, tuzilishi va kimyoviy tarkibi asosida avtomatik tarzda tasniflashni amalga oshiradi. Natijada laboratoriya

mutaxassisining subyektiv xulosasi o‘rniga obyektiv, takrorlanuvchi va tezkor tahlil imkoniyati yaratiladi.

Masalan, 2024-yilda Markaziy bojxona laboratoriyasi tomonidan sinov tariqasida joriy etilgan “AI Textile Classifier” moduli yordamida 320 ta namunaga raqamli tahlil o‘tkazilgan. Shundan 290 tasi (90,6%) bo‘yicha tizim tomonidan berilgan identifikatsiya natijasi mutaxassis xulosasi bilan to‘liq mos kelgan. Bu esa inson omilini kamaytirish bilan birga xatolik ehtimolini 3–4 baravar pasaytirganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, intellektual tizimlar yordamida:

har bir tovar namunasi uchun raqamli identifikatsiya pasporti shakllantiriladi;

laboratoriya bazasida sun’iy intellekt asosida o‘qitilgan namunaviy ma’lumotlar to‘plami (dataset) yaratiladi;

tovar tasvirlarini avtomatik qiyoslash orqali ekspertizaga ketadigan vaqt 40–50% gacha qisqaradi;

identifikatsiya natijalari blokcheyn tizimi orqali himoyalanadi, bu esa ma’lumotlar o‘zgarmasligini kafolatlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirda bojxona ekspertizasi tizimida inson omili hali ham yuqori darajada saqlanib qolgan. Bu esa ayrim hollarda subyektiv qarorlar, ortiqcha vaqt sarfi va aniqlik darajasining pasayishiga olib keladi. Shu sababli, intellektual identifikatsiya tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish nafaqat texnik modernizatsiya, balki boshqaruv madaniyatini yangilashni ham talab etadi.

Sun’iy intellektga asoslangan identifikatsiya tizimlarining afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Tovarlarning kelib chiqish manbasini aniq belgilash imkoniyati ortadi. Bojxona ekspertlarining mehnat unumdorligi oshadi.

Ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi.

Inson omili bilan bog‘liq xatoliklar kamayadi.

Bojxona nazoratining shaffofligi va ishonchliligi kuchayadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, tovarlarni identifikatsiya qilishda intellektual identifikatsiya tizimlarini joriy etish bojxona faoliyatida inson omilini kamaytirish, tezkorlikni oshirish va xatoliklarni minimallashtirishning eng samarali yo‘nalishlaridan biridir.

Bunday tizimlarni amaliyotga keng tatbiq etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

bojxona laboratoriyalarini zamonaviy raqamli optik va spektrometrik uskunalar bilan jihozlash;

sun’iy intellekt modellarini milliy tovar bazalari asosida o‘qitish;

bojxona xodimlari uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;

identifikatsiya tizimlarini yagona “Bojxona axborot platformasi” bilan integratsiyalash.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilgach, O‘zbekiston bojxona tizimida inson omilining ta’sirini 60–70% gacha kamaytirish va bojxona ekspertizasining samaradorligini 2 baravar oshirish imkoniyati mavjud.

REFERENCES:

1. Sh.M.Mirziyoyev Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturining vazirlar darajasidagi konferensiyasi ishtirokchilariga yo‘llagan murojaati. – Toshkent, 14.11.2019-y.

2. B.A.Qurbanov O‘zbekiston Respublikasining transport sohasidagi xalqaro hamkorligi: -T.: STIBOM, 2011.

3. Нетарифное регулирование в современной международной торговле \\Дюжева, Наталья Валерьевна, кандидат экономических наук, 2015.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi”gi Farmoni.

5. А.М.Касимова. Мировой и отечественный опыт применения инструментов нетарифного регулирования // Экономика и социум. 2017. № 5- 1 (36). S. 611-614

6. F.Schneider, D.Enste. Hiding in the Shadows (The Growth of the Underground Economy) Economic issues No. 30 International Monetary Fund.

05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv, axborotni qayta ishlash

UDK: 336.24.07

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТАМОЖЕННОЙ СТОИМОСТИ ТОВАРОВ С ПОМОЩЬЮ МОДЕЛЕЙ ЛИНЕЙНОЙ И ПАРАБОЛИЧЕСКОЙ РЕГРЕССИИ

Бакиев Элмурод Рахималиевич,
Самостоятельный соискатель Таможенного института,
Саидов Абдусобир Абдурахманович,
профессор кафедры “Конвергенция цифровых технологий”
Ташкентского университета информационных технологий,
доктор технических наук

CHIZIQLI VA PARABOLIK REGRESSIYA MODELLARI YORDAMIDA TOVARLARNING BOJXONA QIYMATINI ANIQLASH

Boqiyev Elmurod Raximaliyevich,
Bojxona instituti mustaqil tadqiqotchisi,
Saidov Abdusobir Abdurahmonovich,
Toshkent axborot texnologiyalari universitetining
Raqamli texnologiyalari konvergensiyasi
kafedrasi professori, texnika fanlari doktori

DETERMINING THE CUSTOMS VALUE OF GOODS USING LINEAR AND PARABOLIC REGRESSION MODELS

Bakiev Elmurod Rakhimalievich,
Independent researcher of Customs Institute,
Saidov Abdusobir Abdurakhmanovich,
Professor of the Department of "Convergence
of Digital Technologies" of Tashkent University
of Information Technology, Doctor of Technical Sciences

Аннотация. *Данная статья посвящена вопросам определения таможенной стоимости товаров с применением моделей линейной и параболической регрессии. Проведен анализ научных трудов ученых по данному вопросу и на основе регрессионного анализа смоделирована взаимосвязь между стоимостью товаров и таможенными платежами и создана математическая модель для прогнозирования таможенных платежей. В статье особое внимание уделяется расчету коэффициентов регрессии на основе реальных данных, оценке точности модели и внедрению результатов на практике. Обсуждены результаты практического применения разработанного алгоритма.*

Ключевые слова: *итаможенный контроль, таможенная стоимость, линейная и параболическая регрессия, математическое и статистическое моделирование, таможенные пошлины, прогнозирование.*

Annotatsiya. *Ushbu maqola tashqi savdoni elektron tijorat vositalari yordamida tashkil etish va bu jarayonda tovarning bojxona qiymatini aniqlash masalasiga chiziqli va parabolik regressiya modellarini tatbiq etishga bag‘ishlangan. Mazkur masalada xalqaro tajriba va ilmiy manbalar tahlil qilinib, tovar qiymati va bojxona to‘lovlari o‘rtasidagi bog‘liqlik regression tahlil asosida modellashtirilgan va kelajakdagi bojxona to‘lovlarini prognozlash uchun matematik asos yaratilgan. Maqolada real ma’lumotlar asosida regressiya koeffitsiyentlari hisoblash, model aniqligini baholash va natijalarni amaliyotga tatbiq etishga alohida ahamiyat berilgan. Ishlab chiqilgan algoritmni amaliyotda qo‘llash natijalari muhokama etilgan.*

Kalit so‘zlar: *bojxona nazorati, bojxona qiymati, chiziqli regressiya, parabolik regressiya, matematik va statistik modellash, bojxona to‘lovlari, prognozlashtirish.*

Abstract. *This article is devoted to the issues of determining the customs value of goods using linear and parabolic regression models. An analysis of scientific works of scientists on this issue was conducted and based on regression analysis, the relationship between the cost of goods and customs payments was modeled and a mathematical model for forecasting customs payments was created. The article pays special attention to the calculation of regression coefficients based on real data, assessment of the accuracy of the model and implementation of the results in practice. The results of practical application of the developed algorithm are discussed.*

Keywords: *customs control, customs value, linear and parabolic regression, mathematical and statistical modeling, customs duties, forecasting.*

Введение

В условиях ускоренного развития глобальных торговых отношений и углубления процессов цифровизации достоверный и эффективный расчет таможенных платежей становится важным фактором стабильности внешнеэкономической деятельности и гарантии поступлений в государственный бюджет. Определение таможенной стоимости является не только основным звеном расчета таможенных платежей, но и играет важную роль в защите внутреннего рынка, обеспечении справедливой конкуренции и автоматизации анализа таможенных рисков.

Сегодня в таможенной сфере широко используются автоматизированные системы, математические модели и механизмы прогнозирования. В частности, методы статистической регрессии широко используются при анализе и прогнозировании государственного бюджета стран.

В то же время сегодняшний анализ показывает, что международная электронная коммерция развивается с беспрецедентными картинками и занимает прочное место в мировой торговле. В частности, розничные продажи электронной коммерции в 2020 году составили 3932,4 млрд долларов США, что в 2,1 раза больше, чем в 2016 году. К 2024 году эта цифра составила 6065,9 млрд долларов США.

Крупнейшие предприятия электронной коммерции в мире – Amazon.com, Alibaba.com, Ebay и дркгие. В 2019 году торговая площадка Amazon.com занимал 50% рынка всей электронной коммерции США. В Китае 30% продуктов питания продается через электронную коммерцию, при этом доля электронной коммерции Alibaba.com составляет около 80% [1].

Развитие электронной коммерции в нашей стране также поднялось до уровня государственной политики, этому вопросу посвящены отдельные законодательные и правительственные постановления [2].

Данная объективная реальность все более твердо ставит на повестку дня вопрос об установлении эффективного таможенного контроля за перемещаемыми товарами на основе внешней электронной коммерции и обеспечении надлежащего, справедливого и полного взимания таможенных платежей. Это требует правильного и строгого определения таможенной стоимости указанных товаров на основе норм национального законодательства. Потому что поступления в государственный бюджет в виде таможенных платежей определяются в неразрывной зависимости от таможенной стоимости товаров внешней торговли.

В связи с этим в данной статье рассматривается вопросы применения моделей линейной и параболической регрессии к задаче определения таможенной стоимости товара в процессе организации внешней торговли средствами электронной коммерции, а также внедрения в практику ее алгоритмов.

I. ОСНОВНАЯ ЧАСЬ

Сравнительный анализ моделей оценки определении таможенной стоимости товаров

Основные нормы национального законодательства о таможенных платежах и установлении таможенной стоимости товаров основаны на Таможенном кодексе [3] и Налоговом кодексе [4], которые определяют виды таможенных платежей, порядок их исчисления и уплаты.

Также приняты нормативные акты международных организаций, ответственных за этот вопрос, к которым относятся "соглашение об оценке таможенной стоимости" Всемирной торговой организации [5] и рекомендации Всемирной таможенной организации по стандартизации и упрощению таможенных процедур [6], которые являются ключевыми международными документами в определении таможенной стоимости.

Вопрос исчисления таможенных платежей и установления таможенной стоимости товаров имеет важное научно — практическое значение. Поэтому научные исследования в этой области проводятся постоянно, исходя из текущей ситуации в международной торговле. Например, вопрос упрощения таможенных процедур был изучен Брауном и его коллегами, которые отмечают, что внедрение электронных баз данных дает ожидаемые результаты в этом направлении [7].

Проблема использования математических моделей и баз данных для расчета и прогнозирования таможенных платежей нашла отражение в исследованиях Лю и Вана [8]. В исследовании Смита и Джонсона было проанализировано, может ли использование автоматизированных систем для расчета таможенных пошлин способствовать стимулированию и прозрачности внешней торговли [9]. Использование статистических методов в прогнозировании таможенных пошлин и планировании внешней торговли занимает центральное место в статье Ким и Ли. В нем было показано, что линейная регрессия помогает предприятиям прогнозировать будущие затраты и составлять финансовые планы [10].

Хотя вышеперечисленные принципы процедур, а также результаты научных исследований позволяют прогнозировать таможенные платежи и оценивать таможенную стоимость товаров в различных случаях, обогащение применения этих методов статистическими регрессионными моделями позволяет идентифицировать, ускорять и автоматизировать вычислительный процесс.

В связи с этим ниже рассмотрен с ряд моделей оценки таможенной стоимости товара в электронной коммерции:

1. Линейная регрессия (Linear Regression) применяется на основе данных товаросопроводительных документов (инвойса). При этом формула для расчета таможенной пошлины определяется следующим образом:

$$Y=\beta_0+\beta_1 x+\epsilon$$

Например: $\beta_0=500$, $\beta_1=0{,}25$, $x=5\,000$ \$,
$Y=500+0.25\cdot5000=1\,750$ \$

Здеесь:

Y — таможенные пошлины (прогнозируемая сумма);

x - стоимость товара (независимая переменная);

β_0 — постоянная часть платежа (таможенные расходы);

таможенная пошлина также присутствует, когда стоимость товара x=0, β_0 отражает таможенные услуги, документацию и другие минимальные затраты.

В реальном случае не может быть x=0, а β_0 является точкой пересечения линии регрессии с осью Y.

β_1 - тарифный коэффициент (ставка);

показывает, насколько увеличивается таможенные платежи, когда стоимость товара (x) увеличивается на 1 единицу (например: 1 доллар США).

β_1 — он может быть равен или близок к ставке таможенного платежа (например:0.3 →30%).

ϵ – epsilon погрешность метода.

разница, возникающая в результате того, что регрессионная модель не может полностью охватить все влияющие факторы

2. Параболическая регрессия (Polynomial Regression, d=2) применяется к аналогичным или похожим товарам, для которых данные товаросопроводительных документов (инвойса) недоступны и которые ранее аналогичные или похожие товары были зарегистрированы в базе данных. Формула расчета таможенной пошлины в данном случае [11]:

$$Y=\beta_0+\beta_1 x+\beta_2 x^2+\epsilon$$

Например: $\beta_0=500$, $\beta_1=0{,}25$, $\beta_2=0.00001$,$x=5\,000$ \$,
$Y=500+0.25\cdot5000+0.00001\cdot(5000)^2=500+1250+250=2\,000$ \$

3. Многофакторная регрессия (multivariate linear regression) применяется к аналогичным или похожим товарам, для которых данные товаросопроводительных документов (инвойса) недоступны и которые ранее многочисленные аналогичные или похожие товары были зарегистрированы в базе данных. Формула расчета таможенной пошлины в данном случае:

Y=β_0+β_1 x_1+β_2 x_2+⋯+β_n x_n+ϵ

Здесь x_1,x_2…x_n такие факторы, как вес, размер, страна происхождения товара.

Например: расчет общей суммы таможенных пошлин при учете нескольких факторов на 1 товар приведен в табл. 1.

4. Регрессия Ridge и Lasso (регуляризационные модели) применяется в случаях, когда имеется достаточное количество характеристик и корреляций по товару. Формула Ridge Regression:

β^=argmin{||y⊣ - ⊢ Xβ⊣ ||^2+τ||β||^2 }

τ- коэффициент регулирования;

||β||^2- сумма квадратов всех коэффициентов;

Если τ>0, то модель заставляет коэффициенты уменьшаться.

Формула Lasso Regression:

β^=argmin{||y⊣ - ⊢ Xβ⊣ ||^2+τ||β||_1 }

||β||_1- сумма абсолютных значений коэффициентов;

Некоторые β_i могут приниимать значение 0 (отбрасывает факторы модели).

Таблица 1

Расчет общей суммы таможенных пошлин при учете нескольких факторов на один товар

Фактор	Обьозначение (x_n)	Стоимость	Коэффициент (β_n)	Сумма
Стоимость	x_1	*5 000 $*	*0.25*	*1 250*
Вес	x_2	*20 kg*	*-10*	*-200*
Количество операций	x_3	*6 ta*	*-50*	*-300*
Затраты	-	-	*500*	*500*
Сумма платежа: (*Y*)				***1 250 $***

Например: в приведенном выше случае, если только один фактор X=5000$, то влияние регулирования будет очень небольшим, потому что:

β_1=0.25 значение малое,

Если данный коэффициент очень мала (<0.001), то

Y ≈1 750 $ (разница может быть± 1-2 $)

5. Random Forest и Decision Tree Regressor (AI model) применяется при наличии достаточно большой базы данных (big data) о товарном бренде.

Если мы обожначим коэффициент точности для вышеупомянутых регрессионных моделей как R^2, он представляет собой статистический показатель, который прогнозирует таможенных платежей. Данный коэффифициент определяется следующим образом [12].

R^2=1-(∑▒(y_i-(y_i)̂)^2)/(∑▒(y_i-(y_i)̅)^2)

$$\begin{cases} R^2 = 1, & \text{идеальное соответствие — все данные верны} \\ R^2 \geq 0.95, & \text{высокая надежность — эффективный прогноз} \\ 0.7 \leq R^2 \leq 0.9, & \text{средний — можно использовать, но нужно быть осторожным} \\ R^2 < 0.7, & \text{ненадежный — модель неверна или содержит мало информации} \end{cases}$$

Таблица 2

Сравнения основных моделей регрессии при определении таможенной стоимости товаров внешней электронной коммерции

Тип модели	Точность	Сложность	Преимущество
Линейная регрессия	●●●●○	●●○○○	Просто, быстро, легко понять
Параболическая регрессия	●●●●○	●●●○○	Для криволинейных регрессивных отношений
Многомерная регрессия	●●●●●	●●●○○	Многофакторное моделирование
Ridge/Lasso	●●●●○	●●●●○	решение проблему корреляции методом регуляризации
Random Forest	●●●●●	●●●●●	Машинное обучение, анализ без участия человека

y_i- объем дейтсвтиельных платежей
$(y_i)\hat{}$- прогноз модели
$(y_i)\bar{}$- среднее значение платежей

Используя значений данного коэффициента эффективность модели можно определить следующим образом:

Визуальное сравнение 5 основных моделей регрессии при определении таможенной стоимости товаров для внешней электронной коммерции представлено на рисунке 1.




Рис.1. Сравнение графиков 5 основных регрессионных моделей определения таможенной стоимости внешней электронной коммерции

III. ЗАКЛЮЧЕНЕ

Вышеуказанные методы и алгоритмы расчета таможенной стоимости товара, а также суммы таможенных платежей и гарантий в электронной торговле сегодня внедрены в практику в составе таможенных информационных систем. Внедренные в практику информационные системы показывают свою эффективность в успешном осуществлении торговли во внешней электронной коммерции.

Использование автоматизированных систем, математических моделей и линейной регрессии повышает точность вычислений и позволяет прогнозировать.

REFERENCES

1. Cafarova D. F., Qarshiboyev X. Q. O‘zbekistonda elektron tijorat va uning muammolari tahlili // “Academic Research in Educational Sciyences” ilmiy jurnali. 2023, 6-son. 4-jild. 41-51 betlar.

2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 26 декабря 2024 года № 885 "О мерах по дальнейшему развитию сферы электронной коммерции в Республике Узбекистан"

3. Таможенный кодекс Республики Узбекистан / / принят Олий Мажлисом Республики Узбекистан 20 января 2016 года. https://lex.uz/ru/docs/2876354

4. Налоговый кодекс Республики Узбекистан / / принят Олий Мажлисом Республики Узбекистан 30 декабря 2019 года.https://www.lex.uz/acts/4674902

5. World Trade Organization. Agreement on Implementation of Article VII of the GATT 1994 (Customs Valuation Agreement). WTO, 1994. (https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/20-val.pdf)

6. World Customs Organization. International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures (Revised Kyoto Convention). WCO, 1999 (https://www.wcoomd.org/en/topics/facilitation/instrument-and-tools/conventions/pf_revised_kyoto_conv.aspx)

7. Liu, X., & Wang, Y. Mathematical Modeling for Optimal Customs Duty Calculation. // International Journal of Appliyed Mathematics, 2019, 8(1), pp.23-37.

8. Smith, J., & Johnson, L. Automation in Customs Procedures and Its Impact on International Trade. // Journal of International Trade Studiyes, 2020, 15(2), pp.112-130.

9. Brown, T., et al. Enhancing Efficiyency in Customs Procedures through Automation. // Global Trade Reviyew, 2021, 9(4), pp.78-95.

10. Kim, S., & Lee, J. Forecasting Customs Dutiyes Using Statistical Methods. International // Journal of Trade and Commerce, 2020, 12(3), pp.65-80.

11. Seber, G.A.F., & Wild, C.J. (2003) Nonlinear Regression, Springer Seriyes in Statistics. 2003, ISBN: 978-0-471-18394-2

12. Montgomery, D.C., Peck, E.A., & Vining, G. GIntroduction to Linear Regression Analysis (5th Edition). 2021, ISBN: 978-1-118-37865-0

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATIDA OCHIQLIKNI TA'MINLASH: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

Tangriyev Husen Shodiyevich,
Bojxona qo‘mitasining Jamoatchilik va
ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi boshlig‘i,
e-mail: bojxona@umail.uz

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОТКРЫТОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Тангриев Хусен Шодиевич,
Начальник отдела по связям с общественностью и средствами
массовой информации Таможенного комитета,
e-mail: bojxona@umail.uz

ENSURING TRANSPARENCY IN THE ACTIVITIES OF THE STATE CUSTOMS SERVICE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: PROBLEMS AND PROSPECTS

Tangriyev Husen Shodiyevich,
Head of the Department of Public Relations and
Mass Media of the Customs Committee,
e-mail: bojxona@umail.uz

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston bojxona organlari faoliyatida ochiqlikni ta’minlash masalalari tahlil qilingan. 2022-2025-yillarda amalga oshirilgan islohotlar, jumladan media-markaz tashkil etish, xodimlar malakasini oshirish va rag‘batlantirish mexanizmlari yoritilgan. Ochiqlik indeksida Bojxona qo‘mitasining 88,3 ball bilan 2-o‘rinni egallagani kabi yutuqlar qayd etilgan. Shuningdek, bojxona organlari tomonidan doimiy ravishda e’lon qilib kelinayotgan ochiq ma’lumotlardam tizimli ravishda va faol foydalanilayotganligini baholash va monitoring mexanizmlari yetarli darajada emasligi kabi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *bojxona organlari, ochiqlik, shaffoflik, axborot xizmati, Ochiqlik indeksi, raqamli bojxona.*

Аннотация. *В статье анализируются вопросы обеспечения открытости в деятельности таможенных органов Узбекистана. Освещены реформы, реализованные в 2022-2025 годах, включая создание медиа-центра, повышение квалификации сотрудников и механизмы стимулирования. Отмечены достижения, такие как занятие Таможенным комитетом 2-го места с 88,3 балла в Индексе открытости. Также выявлены проблемы, в частности недостаточность механизмов оценки и мониторинга системного и активного использования регулярно публикуемых таможенными органами открытых данных, и разработаны предложения по их устранению.*

Ключевые слова: *таможенные органы, открытость, прозрачность, информационная служба, Индекс открытости, цифровая таможня.*

Abstract. *The article analyzes the issues related to ensuring transparency in the activities of the customs authorities of Uzbekistan. It highlights the reforms implemented in 2022-2025, including the creation of a media center, improving the qualifications of staff and incentive mechanisms. Achievements such as the Customs Committee ranking 2nd with 88.3 points in the Transparency Index are noted. Additionally, Problems are also identified, in particular the inadequacy of mechanisms for assessing and monitoring the systematic and active use of open data regularly published by customs authorities, and proposals for their elimination have been developed.*

Keywords: *Customs authorities, transparency, openness, information service, Transparency Index, digital customs.*

Kirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida bojxona tizimi tubdan isloh qilindi, jahon standartlariga mos keluvchi zamonaviy bojxona ma’muriyatchiligi shakllantirildi. Bugungi kunda o‘rtacha 30 mingdan ziyod tashqi savdo subyektlari va bojxona chegaralari orqali harakatlanayotgan millionlab fuqarolar bojxona organlarining bevosita muloqot auditoriyasini tashkil etadi [1]. Mazkur auditoriyaning bojxona qonunchiligi va tartibotlaridan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishi nafaqat davlat budjetiga bojxona to‘lovlari tushumining oshishiga, balki bojxona qonunbuzilishi holatlarining kamayishiga ham xizmat qiladi [2]. Shu sababli, bojxona organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash bugungi kunda davlat boshqaruvi samaradorligining muhim ko‘rsatkichlaridan biriga aylangan.

So‘nggi yillarda davlat bojxona xizmati organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, ushbu yo‘nalishdagi chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, ochiqlikni ta’minlashda ilg‘or, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi [3]. Xususan, Bojxona qo‘mitasining rasmiy veb-sayti va O‘zbekiston Respublikasining ochiq ma’lumotlar portalida davlat bojxona xizmati organlari faoliyatiga doir ochiq ma’lumotlarni doimiy ravishda yoritish yo‘lga qo‘yildi. 2022-yil 18-iyunda esa O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatining ochiqligi konsepsiyasi tasdiqlanib, bu boradagi ishlarni tizimlashtirishda muhim qadam tashlandi [4].

Mazkur maqolaning maqsadi – O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatida ochiqlikni ta’minlashning hozirgi holati, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolarni kompleks tahlil qilish hamda ushbu sohani takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida bojxona organlari faoliyatida ochiqlikni ta’minlashning nazariy-huquqiy asoslarini o‘rganish, 2022-2025-yillarda bojxona organlari ochiqligini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish, Bojxona qo‘mitasi axborot xizmati faoliyati samaradorligini baholash hamda mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish belgilangan [4].

Asosiy qism. Bojxona organlari faoliyatining ochiqligi – bu davlat bojxona xizmati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, amalga oshiriladigan tartib-taomillar, ko‘rsatiladigan xizmatlar va sarflanadigan budjet mablag‘lari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning jamoatchilik uchun ochiq, shaffof va tushunarli bo‘lishini anglatadi. Bu tamoyil zamonaviy demokratik jamiyatda davlat boshqaruvi samaradorligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlat organlari faoliyatining ochiqligi korrupsiyani kamaytirish, fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini oshirish va davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga xizmat qiladi [2].

O‘zbekiston Respublikasida bojxona organlari ochiqligini ta’minlashning huquqiy asoslari bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida"gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF–122-son Farmoni mazkur sohada muhim ahamiyat kasb etadi. 2022-yil 18-iyunda O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatining ochiqligi konsepsiyasi tasdiqlanishi bu boradagi ishlarni tizimlashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Konsepsiya bojxona organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, jamoatchilik ehtiyojlarini qondirish va o‘zaro ishonch muhitini mustahkamlash kabi maqsadlarni belgilab berdi.

2022-2025-yillar Bojxona qo‘mitasining Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi faoliyatida tub burilish davri bo‘ldi. Bu davrda asosiy e’tibor ikki muhim yo‘nalishga qaratildi: moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va kadrlar salohiyatini oshirish. 2023-yil avgust oyida "raqamli bojxona" majmuasi tarkibida zamonaviy media-markaz foydalanishga topshirildi. Bu yerda xodimlar uchun barcha zarur sharoitlar – zamonaviy kompyuterlar, tasvirga olish, montaj va ovoz yozish uchun

qulay imkoniyatlar, shuningdek, jurnalistlar uchun matbuot anjumanlari va brifinglar o‘tkazish maydonchasi tashkil etildi [5].

Kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida 2022-yildan e’tiboran har yili "Media-makonda bojxona imijini yaxshilashda axborot xizmatining roli" mavzusida an’anaviy seminarlar tashkil etilib, unda xodimlar zamonaviy jurnalistika tendensiyalari, ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash va inqirozli vaziyatlarda media bilan muloqot qilish bo‘yicha mahorat darslarida qatnashdilar. Shuningdek, bojxona organlari tarixida ilk bor 2022-yilda "Eng faol axborot xizmati xodimi" tanlovi o‘tkazilib, unda xodimlarning kasbiy mahorati sinovdan o‘tkazildi va g‘oliblar rag‘batlantirildi [6].

Bojxona organlari ochiqligini ta’minlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bojxona qo‘mitasining rasmiy veb-sayti (bojxona.uz) va O‘zbekiston Respublikasining ochiq ma’lumotlar portali (data.egov.uz) da bojxona organlari faoliyatiga doir 27 turdagi ochiq ma’lumotlar doimiy ravishda joylashtirilmoqda. Bojxona qo‘mitasi va hududiy boshqarmalarning ijtimoiy tarmoqlardagi (Telegram, Facebook, Instagram, YouTube) rasmiy sahifalari orqali yangiliklar tezkor yetkazilmoqda, fuqarolarning savollariga javob berilmoqda va onlayn translyatsiyalar olib borilmoqda [7].

Masalan, Bojxona qo‘mitasining birgina Telegramdagi rasmiy axborot kanali orqali 2025-yil davomida 14 703 ta yangilik va xabarlar e’lon qilindi. Bu 2024-yilga (8551 ta) nisbatan 1,7 barobarga ko‘paygan. Demak, hozirda kanalga kuniga o‘rtacha 40 ta material joylashtirilmoqda.

Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik doirasida har oyda brifing va matbuot anjumanlari, jurnalistlar uchun press-turlar va ochiq eshiklar kunlari tashkil etilmoqda. 2025-yilning o‘zida Respublika bo‘ylab bojxona organlari tomonidan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun 137-marotaba turli mavzularda matbuot anjumanlari, press-tur va brifinglar tashkil qilindi.

Jadval

2022-2025-yillar davomida ommaviy axborot vositalarida bojxona organlari faoliyatiga doir e’lon qilingan materiallar soni

№	Ko‘rsatkichlar	2022	2023	2024	2025	Jami
1.	Davriy bosma va elektron nashrlarda e’lon qilingan materiallar	10397	11117	13428	13887	48829
2.	Radio orqali amalga oshirilgan chiqishlar	2144	2208	2534	2586	9472
3.	Televideniye orqali amalga oshirilgan chiqishlar	2978	3276	3590	4972	14816
4.	Keng jamoatchilik vakillari ishtirokida uchrashuvlar	1869	2018	1896	2257	8040
5.	Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari ishtirokida uchrashuvlar	1500	1494	1737	2191	6922

Manba: Bojxona qo’mitasining Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo’limining yillik hisobotlari asosida shakllantirilgan.

Bojxona qo‘mitasi huzurida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashi esa bojxona organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirmoqda va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilmoqda [9].

2022-yil 1-avgustdan boshlab joriy etilgan Ochiqlik indeksi davlat organlari faoliyatidagi ochiqlik darajasini baholash imkonini berdi. 2023-yil mart oyida e’lon qilingan natijalarga ko‘ra, 86 ta vazirlik, qo‘mita va idoralar o‘rtasida Bojxona qo‘mitasi

88,3 ball bilan 2-o‘rinni egalladi. Ochiqlik indeksining rasmiy veb-sayt to‘liqligi, ochiq ma’lumotlar bilan ishlash, jamoatchilik bilan muloqot va ijtimoiy tarmoqlardagi faollik kabi indikatorlari bo‘yicha Bojxona qo‘mitasi yuqori ko‘rsatkichlarga erishdi [8].

Bojxona qo‘mitasining Matbuot xizmati faoliyati jamoatchilik tomonidan yuksak baholandi. Jumladan, 2025-yilning dekabr oyida O‘zbekiston milliy media birlashmasi tomonidan ta’sis etilgan “Renessans” milliy mukofotining **"Yilning eng yaxshi matbuot xizmati"** nominatsiyasida ilk bor **Bojxona qo‘mitasi Matbuot xizmati** g'olib bo'ldi. Shuningdek, Adliya vazirligining huquqiy targ‘ibot monitoringida esa Bojxona qo‘mitasi 93,1 ball bilan qo‘mitalar ichida 1-o‘rinni, 85 ta vazirlik va idoralar orasida esa 2-o‘rinni egalladi [8].

Keng qamrovli islohotlar va erishilgan yutuqlarga qaramay, bojxona organlari faoliyatining ochiqligini to‘laqonli ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Bojxona organlari tomonidan doimiy ravishda e’lon qilib kelinayotgan ochiq ma’lumotlarda tizimli ravishda va faol foydalanilayotganligini baholash va monitoring mexanizmlari yetarli darajada emas.

Buning uchun eng avvalo bojxona organlari tomonidan e’lon qilinayotgan turli ochiq ma’lumotlarni mobil ilovalarga integratsiya qilish, ular asosida avtomatik infografikalar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish taklif qilinadi.

Shuningdek, ochiqlikni ta’minlashni yanada kengaytirish maqsadida jamoatchilik fikrini o‘rganish mexanizmlarini kuchaytirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bojxona qo‘mitasi rasmiy veb-sayti. Tashqi savdo subyektlari va bojxona statistikasi. – Toshkent, 2024. – URL: https://www.customs.uz/uz/statistika (murojaat sanasi: 20.10.2024).

2. Karimov, A. Bojxona ma’muriyatchiligi va uning ochiqlik darajasi // "O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" ilmiy jurnali. – 2023. – № 4. – B. 45-49.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–122-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmoni.

5. Bojxona qo‘mitasida zamonaviy media-markaz ochilishi to‘g‘risida // Davlat bojxona qo‘mitasining rasmiy veb-sayti. – Toshkent, 2023, avgust. – URL: https://www.bojxona.uz/oz/page/bozhhona-organlarining-ochiqlik-sohasidagi-faoliyatini-takomillashtirish-yoki-kolamini-kengaytirish-takliflar.

6. “Eng faol axborot xizmati xodimi” tanlovi o‘tkazilganligi to‘g‘risida // Bojxona qo‘mitasining rasmiy veb-sayti. – Toshkent, 2022. – URL: https://www.bojxona.uz/oz/news

7. “Bojxona organlari faoliyatiga doir ochiq ma’lumotlar va ularni joylashtirish tartibi to‘g‘risida” // Davlat bojxona qo‘mitasining rasmiy veb-sayti. – Toshkent, 2024. – URL: https://www.bojxona.uz/

8. 2022-yil yakunlari bo‘yicha Ochiqlik indeksi natijalari e’lon qilindi // Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy veb-sayti. – Toshkent, 2023-yil 29-mart. – URL: https://old.anticorruption.uz/uz/item/2023/03/29/2022-yil-yakunlari-boyicha-ochiqlik-indeksi-natijalari-elon-qilindi.

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT SUBEKTLARINI BOJXONA AUDITIGA TANLASHDA XAVF DARAJALARIGA AJRATISHNING AHAMIYATI

Otaniyozov Bayotbek Djumabayevich,
Bojxona institutining Bojxona ishi fakulteti boshlig‘i,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
Ro‘zimboyeva Muxlisa Baxromboy qizi,
Bojxona instituti magistratura tinglovchisi

ЗНАЧЕНИЕ КЛАССИФИКАЦИИ СУБЪЕКТОВ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО УРОВНЯМ РИСКА ПРИ ОТБОРЕ ДЛЯ ТАМОЖЕННОГО АУДИТА

Отаниязов Баётбек Джумабаевич,
Начальник факультета таможенного дела Таможенного института,
кандидат педагогических наук, доцент;
Рузимбоева Мухлиса Бахромбой кизи,
Слушатель магистратуры Таможенного института

THE IMPORTANCE OF DIVIDING THE SUBJECTS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY INTO RISK LEVELS WHEN CHOOSING A CUSTOMS AUDIT

Otaniyozov Bayotbek Djumabayevich,
Head of the Customs Affairs Faculty of the Customs Institute,
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor;
Rozimboyeva Mukhlisa Bakhromboy qizi,
Listener of Master’s Department of the Customs Institute

Annotatsiya. *Maqolada tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini bojxona auditidan o‘tkazish uchun xavf darajalariga ajratishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari keltirilgan. Maqola xavf darajasini aniqlashda foydalaniladigan asosiy mezonlarni tahlil qilinib, xavf darajasiga ajratishning bojxona nazoratiga ta’siri va audit jarayonini optimallashtirish mumkinligi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, maqolada xavf darajalarini belgilashning amaliy jihatlari, avtomatlashtirish tizimlari va yondashuvlarining o‘rni haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *tashqi iqtisodiy faoliyat, xavf darajasi, milliy bojxona tizimi, bojxona auditi, xavf mezonlari, xavf indikatorlarini, tanlov asosida tekshirish.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы и практические подходы к классификации участников внешнеэкономической деятельности по уровням риска для проведения таможенного аудита. Проанализированы основные критерии, используемые для определения уровня риска. Подробно освещается влияние распределения по уровням риска на таможенный контроль и рассматриваются способы оптимизации аудиторского процесса. Также в статье рассматриваются практические аспекты установления уровней риска, роль автоматизированных систем и применяемых подходов.*

Ключевые слова: *Внешнеэкономическая деятельность, уровень риска, национальная таможенная система, таможенный аудит, критерии риска, индикаторы риска, проверка на основе отбора.*

Abstract. *This article discusses the theoretical foundations and practical approaches for classifying participants of foreign economic activity into risk levels for customs audit. The article analyzes the main criteria used for risk assessment. The impact of risk-based classification on customs control and ways to optimize the auditing process are also addressed. Furthermore, the*

article examines the practical aspects of risk categorization, the role of automation systems, and approaches in determining risk levels.

Keywords: *Foreign economic activity, risk level, national customs system, customs audit, risk criteria, risk indicators, examination based on selection.*

Kirish

Iqtisodiyotda tashqi iqtisodiy faoliyat (keyingi o‘rinlarda - TIF) ishtirokchilarini nazorat qilish shakllaridan biri bu bojxona auditi hisoblanadi. Bojxona auditi – bu TIF subyektlarining import va eksport operatsiyalarini, shu jumladan tovarlarning bojxona qiymati, tovarlar nomenklaturasi kodlari va hujjatlarning to‘g‘riligini tovarlar bojxona nazoratidan o‘tgandan keyin baholashga qaratilgan nazorat shakli bo‘lib, bu jarayon O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-57-son Farmoni [2] hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6-noyabr 2025-yildagi “Bojxona sohasidagi ayrim tartib- taomillarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 700-son qarori asosida xavflarni boshqarish tizimiga asoslangan holda amalga oshiriladi [4].

TIF ishtirokchilarini xavf darajalariga ko‘ra toifalash bojxona auditini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda xavf darajalarini aniqlash audit obyektlarini (subyektlar va tovarlarni) tanlashning asosiy mexanizmi bo‘lib, bojxona organlarining resurslarini samarali taqsimlash va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

TIF ishtirokchilari, ya’ni eksport va import bilan shug‘ullanadigan subyektlar, har bir davlatning iqtisodiy ravnaqi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu faoliyat nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, balki bojxona nazorati va fiskal siyosatni amalga oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bojxona nazorati esa, birinchi navbatda TIF ishtirokchilarining bojxona qonunchiligi, tariflar, soliq va boshqa moliyaviy majburiyatlarga rioya qilishini ta’minlashga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Tovarlar erkin muomalaga chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratini amalga oshirish milliy bojxona xizmati uchun bir qator ustuvor vazifalarni bajarishda O‘zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligiga rioya qilinishini ta’minlashning eng istiqbolli va samarali choralaridan biri hisoblanadi. Bu esa, bojxona auditi orqali tovarlar erkin muomalaga chiqarib yuborilgandan keyin bojxona nazoratini o‘tkazishni nazarda tutadi.

Bojxona auditi “Bojxona auditi” elektron tizimi orqali amalga oshiriladi va xavflarni boshqarish tizimiga (Jahon bojxona tashkilotining tavsiyalari asosida) tayangan holda TIF subyektlarini xavf darajalari bo‘yicha tanlab tekshirishga asoslanadi. Bu tizim barcha subyektlarni yoppasiga tekshirmasdan, ularga nisbatan yuqori xavfli holatlarga e’tibor qaratadi va bojxona organlarida resurslardan samarali foydalanishga imkon beradi. Audit muddati — tovarlar bojxona nazorati tugaganidan keyin 3 yil ichida, bir xil tovarlarga takroriy audit o‘tkazilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrdagi “Bojxona ma’muriyat-chiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-250 sonli Farmonining asosan, 2027-yilga qadar bojxona ma’muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini takomillashtirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari sifatida bojxona auditi qamrovini 30 foizga yetkazish belgilangan. Shuningdek, mazkur Farmonning V qismi (tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona nazoratini yanada takomillashtirish) 12-bandiga asosan bojxona auditini tashkil etishda zamonaviy, xavfga asoslangan va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rag‘batlantiruvchi yondashuvlarni joriy etish nazarda tutilgan. Xususan, 2026-yil 1-iyuldan boshlab bojxona auditi doirasida “maslahatchi auditor” tamoyilining joriy etilishi audit o‘tkazilishi rejalashtirilgan tadbirkorlik subyektlarini oldindan aniqlangan kamchiliklar haqida xabardor qilish hamda ularga ushbu kamchiliklarni mustaqil ravishda bartaraf etish imkonini berishga xizmat qiladi. Bu yondashuv bojxona auditining repressiv emas, balki profilaktik va maslahatga asoslangan mexanizm sifatida shakllanishini ta’minlaydi [3].

Shuningdek, bojxona organlari tomonidan o‘tkazilgan bojxona nazorati natijalarining tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashda inobatga olinishi xavf darajalarini belgilashda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bu holat bojxona auditi subyektlarini tanlashda halollik darajasi yuqori bo‘lgan, qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘ymagan tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yuqori xavf toifasiga mansub subyektlarga nisbatan esa kuchaytirilgan nazorat choralarini qo‘llash imkonini beradi.

Farmonda bojxona organlari tomonidan aniqlangan huquqbuzarliklar uchun belgilangan jazo choralarini ularning xususiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga mutanosib ravishda differensiyallash orqali adolatli yondashuvni ta’minlash masalasi ham alohida belgilangan. Bu esa bojxona auditida xavf darajalariga asoslangan yondashuvni yanada takomillashtirib, mayda va tasodifiy xatolar bilan tizimli va qasddan sodir etilgan huquqbuzarliklarni aniq farqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, bojxona nazorati jarayonida aniqlanib, qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarini so‘zsiz tartibda undirish bo‘yicha inkasso topshiriqnomalarini yuborish amaliyotining joriy etilishi bojxona auditining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizm yuqori xavf darajasiga ega subyektlar bilan ishlashda davlat byudjeti manfaatlarini ishonchli himoya qilish, shu bilan birga, past xavf toifasidagi tadbirkorlar uchun ortiqcha ma’muriy yuklamalarni kamaytirishga zamin yaratadi [3].

Xavf darajasiga asoslangan bojxona auditi TIF ishtirokchilari orasidan qonun buzilish ehtimolligi mavjud subyektlarni tanlaydi, bu esa davlat moliyaviy va iqtisodiy xavfsizligini oshiradi. Tashqi savdo subyektlarida bojxona auditini o‘tkazish bir qancha sabablarga ko‘ra muhim ahamiyatga ega, chunki u bojxona qonun-qoidalariga rioya etilishini ta’minlashga, adolatli hamda halol savdo amaliyotini targ‘ib qilishga va iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishga yordam beradi. Shu jihatdan TIF subyektlarida bojxona auditini o‘tkazish bugungi kunda juda zarur va dolzarb hisoblanadi. Umumiy holatda TIF subyektlarini xavf darajalari bo‘yicha bojxona auditidan o‘tkazishning zarurligini bir qator iqtisodiy, ijtimoiy va maqsadli manfaatlarda ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).

TIF subyektlari quyidagi mezonlar asosida auditga tortiladi:

bojxona axborot tizimlaridagi xavf tahlili (masalan, deklaratsiya va xorijiy ma’lumotlar orasidagi nomuvofiqliklar);

boshqa nazorat shakllarida (Bojxona kodeksining 188-moddasi) aniqlangan buzilishlar holati [1];

so‘rovnomalar yoki olingan javoblaridagi nomuvofiqliklar;

hujjatlar taqdim etmaslik yoki muddatdan o‘tib ketish;

tovarlar saqlash joylarida qonuniylikni tasdiqlash zarurati.

Tanlash avtomatik, yuqori xavfli subyektlar ustuvorlikka ega.

Biz bojxona auditida xavf profillarini ahamiyatini anglashimizdan avval xavf profillarining nimaligini tushunib olishimiz zarurdir.


Xavf profillari — bu savdo subyektlarining bojxona qoidalariga rioya qilishdagi xavf darajasiga hissa qo‘shadigan turli omillarni baholaydigan har tomonlama baholashdir. Bunday profillar korxonaning savdo-sotiq tarixi, xatti-harakati, muvofiqlik, savdo shakllari va boshqa tegishli ma’lumotlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish orqali yaratiladi [6].

Xavf profilidagi xavf sohasi xavf tahlilining alohida obyektini, xavf indikatorlari nazorat obyektini tanlash ko‘rsatkichlarini, xavfni kamaytirish choralari bojxona nazoratining aniq shakllarini ifodalaydi. Shu bilan birga, xavf sohalari o‘zida bojxona rejimlari, tartibotlari va bojxona xizmati xodimlari o‘z vakolatlarini amalga oshiradigan boshqa yo‘nalishlarni ham tavsiflaydi. Xavf indikatorlari esa, ma’lum bir xavf bilan bog‘liq omillar bo‘lib, ular birgalikda ushbu sohaga xos bo‘lgan xavflar darajasini oshiradi yoki kamaytiradi [6].

Xalqaro standartlarda belgilab qo‘yilganidek, xavf profili quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi lozim[6]:

xavf profili tavsifi – xavf profilining qaysi yo‘nalishdagi xavflarning oldini olishga qaratilganligi qisqacha bayon etiladi. Masalan, tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha ma’lum bir koddagi tovarning bojxona qiymatini pasaytirish holatlarining oldini olishga qaratilgan;

amal qilish muddati – xavf profilining



1-rasm. TIF subyektlarini xavf darajalari bo‘yicha bojxona auditidan o‘tkazishning zarurligi

qaysi sanadan boshlab qachongacha amal qilishi ko‘rsatiladi. Masalan: 01.01.2025-yildan – 01.06.2025-yilgacha. Ushbu muddat, xavf profili ishlashi samaradorligini baholash orqali oldinroq tugatilishi yoki uzaytirilishi mumkin;


ma’lumotlar sohasi – qaysi ma’lumotlardan foydalanganligi bayon etiladi. Masalan, tashqi savdo operatsiyalari monitoringi bazasi ma’lumotlari asosida;

qo‘shimcha sharhlar – xavf profilini ishlab chiqish uchun o‘tkazilgan matematik va mantiqiy tahlillar, ushbu profil shartlariga mos bo‘lgan holatlar bo‘yicha aniqlangan (yoki kutilayotgan) qoida buzilish holatlari, xavf natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar, xavf profilini qo‘llashdan kutilayotgan natijalar, xavf profilini ishlab chiqqan xodim to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Shu bilan birga xavf darajalariga asoslangan bojxona auditi bizga nima uchun zarurligini ko‘rib chiqishimiz lozim.

Xavf darajalariga ajratishning muhimligi

Xavf darajalariga ajratish jarayoni bojxona organlariga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:



2-rasm. Xavflarni boshqarish sxemasi.[8]

Resurslarni samarali taqsimlash: har bir TIF ishtirokchisi uchun tekshiruv va audit vaqtini va resurslarini optimallashtirish.

Xavfga asoslangan yondashuv: yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni oldini olish va monitoringni kuchaytirish.

Qonunbuzarliklarning kamayishi: xavf darajasi yuqori bo‘lgan subyektlarga ko‘proq e’tibor qaratish orqali bojxona qonunbuzarliklarini kamaytirish.

TIF ishtirokchilarini xavf darajalariga ko‘ra toifalash jarayonida, faoliyatining turli omillari, jumladan, ularning tarixiy o‘tmishi, moliyaviy holati, operatsion xususiyatlari va boshqa omillar hisobga olinadi. Bunda asosiy maqsad bojxona organlarining audit resurslarini samarali va adolatli tarzda taqsimlash hamda bojxona qonunchiligi ustuvorligini ta’minlashdan iboratdir.

Savdoni soddalashtirish va xavflarni boshqarishning birgalikdagi eng samarali faoliyati bu – bojxona nazorati davomida bojxona auditiga xavf darajalari asosida TIF ishtirokchilarini tanlashga ta’sir qiluvchi murakkab omillarni aniqlab berishdan iboratdir.

Har qanday tizim uni tashkil etuvchi elementlar majmuasidan iborat bo‘lgani kabi, “Xavflarni boshqarish” tizimi ham 4 ta elementdan tashkil topadi [7]. Jumladan:

ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash;

xavflarni aniqlash va tahlil qilish;

xavflarni boshqarish choralarini ishlab chiqish va qo‘llash;

qo‘llanilgan choralar natijasini jamlash va takliflar tayyorlash.

Ushbu elementlar doimiy harakatda va yangilanishda bo‘lgan uzluksiz bir butun jarayonni hosil qilib, tizimning normal ishlashini ta’minlaydi. Tizimdagi istalgan elementning jarayondagi harakati to‘xtaydigan bo‘lsa, tizim samarali ishlashdan to‘xtaydi. Shuning uchun elementlar doimiy harakatni va yangilanishni talab qiladi.

Ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash: Ushbu element O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegaralari orqali olib o‘tilayotgan tovarlar va transport vositalari to‘g‘risidagi turli xil manbalardan olingan barcha ma’lumotlarni, shu jumladan boshqa axborotlarni to‘plashni va ularni qayta ishlashni nazarda tutadi.

Shuningdek, axborotlarni to‘plash va qayta ishlash tartibi, bojxona nazorati obyektlarini tahlil qilish, hisobga olish, tizimlashtirish va axborotni saqlashga qaratilgan harakatlardir. Tahlil maqsadlari uchun axborotlarni qayta ishlash — hisobga olish, tizimlashtirish, o‘zgartirish va saqlashni o‘z ichiga oladi. Bojxona organlarida ularga taqdim

etilgan hujjatlardagi ma'lumotlar, Bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridagi ma'lumotlar, shuningdek, xorijiy bojxona xizmatlari tomonidan hamda davlatning boshqa organlari va tashkilotlaridan olingan ma'lumotlar asosida axborotlar to'planadi. Bojxonada kelib tushgan axborotlar ro'yxatdan o'tkaziladi va umumlashtirilib, ma'lumotlar bazasi yaratiladi. Axborotlar bojxona organlarining dasturiy vositalari formatiga va turiga o'tkaziladi hamda lozim bo'lgan parametr hamda mezonlarga ko'ra guruhlashtiriladi va tizimlashtiriladi.

Ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlar jarayonlarida matematik usullar va modellashtirish elementlaridan keng foydalaniladi. Bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi turli xil manbalardan olingan barcha ma'lumotlarni to'plashni va ularni qayta ishlash rasmiylashtirish bojxona sohasidagi maqsadli iqtisodiy masala deb qarasak, har qanday iqtisodiy masalani, matematik usullarini qo'llab yechishdan avval, uning matematik modelini qurish kerak bo'ladi.

Ma'lumki, iqtisodiy masalaga matematik model yaratish — bu iqtisodiy masala tarkibida qatnashayotgan komponentlar orasidagi iqtisodiy bog'lanish qonuniyatlarini, matematika qonuniyatlari bilan teng kuchli tarzda almashtirish natijasida hosil bo'lgan matematik formula yoki uning matematik tildagi bayoni hisoblanadi [5].

Xavflarni aniqlash va tahlil qilish: xavflarning yuzaga kelishi va ularning oqibatlarini aniqlash maqsadida, bojxona organlarida to'plangan hamda qayta ishlangan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Xavflarni tahlil qilish va baholashda ma'lumotlar bazasini boshqarish, ma'lumotlarni tahlil qilish uchun tezkor (shu jumladan vizual) algoritmlarni yaratilib, Bojxona qo'mitasi Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining axborot-dasturiy ta'minotlaridan foydalaniladi.

Xavflarni tahlil qilish va baholash uchun bojxona organlari tomonidan ishlab chiqilgan xavflarni baholashning matematik, statistik va ehtimoliy tahlil usullaridan (xavflarni maqsadli tahlil qilish usullari) foydalaniladi. Xavflarni maqsadli tahlil qilish usullarini guruhlash va algoritmlar yaratish natijasida xavflarni baholash jarayoni avtomatlashtirilishi mumkin. Aniqlangan xavflarni baholash natijasi xavf profillarini ishlab chiqish, xavflarni minimallashtirish choralarini qo'llash zarurligi to'g'risidagi qarorni qabul qilish uchun asos bo'ladi.

Xavflarni boshqarish choralarini ishlab chiqish va qo'llash: Aniqlangan xavflarga nisbatan ularni boshqarish va minimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi va doimiy ravishda "Xavflarni boshqarish" AAT orqali bojxona xodimlariga yetkazilib turiladi.

Qo'llanilgan choralar natijasini jamlash va takliflar tayyorlash: Xavflarni boshqarishni "qayta aloqa" tizimisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki, xavflarni minimallashtirish bo'yicha qabul qilingan choralar turli xil natija berishi yoki bojxona faoliyatining turli jihatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin (fiskal, huquqni muhofaza qilish va bojxona nazorati tartibotlari). Xususan:

bojxona chegarasi orqali tovarlarning noqonuniy olib o'tilishini to'xtatishga;

bojxona nazorati samaradorligiga;

bojxona to'lovlarining to'liq undirilishiga;

tovar aylanmasining tezlashishiga;

bojxona organlari va tovarlarni olib o'tuvchi shaxslarning bojxona nazorati bilan bog'liq xarajatlariga;

bojxona rasmiylashtiruvi vaqtining o'zgarishiga.

Global ta'minot zanjiri manzarasi misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanmoqda, korxonalar iste'molchilar talablarini qondirish uchun xalqaro savdoga tobora ko'proq tayanmoqda. Biroq, bu kengayish, shuningdek, kontrabanda, tovarlarni kam deklaratsiyalash va daromadlarning chiqib ketishi kabi mumkin bo'lgan xavflarga ham eshikni ochadi. Bu globallashuv davlatlarni turli xavf-xavflarga duchor qildi, jumladan, firibgarlik, kontrabanda va daromadlardan qochish. Butun dunyo bo'ylab bojxona organlari qonuniy savdoni soddalashtirish va xavflarni aniqlash va kamaytirish zarurati bilan muvozanatlash uchun xavflarni boshqarish strategiyasidan foydalanadilar.

Xavf darajalari bo'yicha yo'laklarga tanlashga ta'sir qiluvchi omillar

TIF ishtirokchisining muvofiqlik tarixi: tanlov jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri tadbirkorning muvofiqlik tarixidir. Doimiy ravishda qonunlarga muvofiq ishlagan korxonalar xavflarni boshqarish maqsadlariga mos keladigan pastroq xavf

darajasiga ega bo‘ladilar. Shu sababli ularning muvofiqlik tarixi xavf darajasiga ajratish uchun muhim asosdir.

Hujjatlarning to‘g‘riligi va to‘liqligi: bojxona rasmiylashtiruvi uchun taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqligi va to‘g‘riligi natijaga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Tadbirkorlar tomonidan ishonchli hisob yuritish amaliyoti ko‘k yoki yashil yo‘lakka muvofiqlik ehtimolini oshirishi mumkin.

Tovarlarning xususiyati: import qilinadigan yoki eksport qilinadigan tovarlar turi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bojxona organlari tovarlarning xossalarini, ularning kelib chiqishini va savdoda ishtirok etayotgan mamlakatlarni baholaydilar. Qiymati yuqori yoki xavfli tovarlar batafsilroq tekshirilishi lozim hamda past xavfli tovarlar esa, tez chiqarib yuboriladi va chiqarib yuborilgandan so‘ng barcha mezonlarni hisobga olgan holda bojxona auditidan o‘tkaziladi.

Moliyaviy barqarorlik: moliyaviy barqarorlik tanlov jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Kuchli moliyaviy poydevorga ega bo‘lgan tadbirkorlarga yashil yo‘lak imtiyozlari berilishi ehtimoli ko‘proq, chunki ular uchun firibgarlik bilan shug‘ullanish yoki to‘lovlarni bajarmaslik ehtimoli kamroq deb hisoblanadi. Lekin, ba’zida bu qarashlar noto‘g‘ri bo‘lib chiqish ehtimolini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozimdir.

Texnologik integrasiya: raqamli bojxona, ilg‘or texnologiyalar va ma’lumotlar tahlilining bojxona boshqaruviga integrasiyalashuvi tanlov jarayonida inqilob qildi. Bojxona organlari uchun potensial xavflarni aniqlash murakkab tizimlarga tayanib, samarali qarorlar qabul qilishni osonlashtirdi. Texnologik jihatdan TIF ishtirokchilari ushbu tizimlarga moslashishi natijasida bojxona rasmiylashtiruvi uchun kamroq vaqt sarflab, tovarlar erkin muomalaga chiqarib yuborilgandan keyin nazoratdan o‘tkazilishlari mumkin bo‘ldi.

Bojxona qiymati: bojxona organlari import/eksport qilinadigan tovarlarning qiymatini hisobga olishlari lozim, chunki yuqori qiymatli bitimlar ko‘pincha rioya qilmaslik xavfining yuqoriligi bilan bog‘liq hamda amaliyotda ko‘pchilik “o‘yinlar” bojxona qiymati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Kelib chiqish mamlakati: bojxona organlari import/eksport qilinadigan tovarlarning kelib chiqish mamlakatini ko‘rib chiqishlari zarur, chunki ayrim mamlakatlar uchun qonun-qoidalarga rioya qilmaslik yoki firibgarlik xavfi yuqori bo‘lishi mumkin.

G‘ayrioddiy biznes shakllari: bojxona organlari har qanday noodatiy biznes namunalari yoki amaliyotlarini, masalan, yetkazib beruvchilar yoki xaridorlarning tez-tez o‘zgarishini ko‘rib chiqishi lozim, chunki ular rioya qilmaslik yoki firibgarlikdan dalolat berishi mumkin.

Hisoblash: belgilangan ma’lumotlardan foydalanib, aniqlangan xavf omillari asosida har bir import qilinadigan tovarlarni jo‘natish uchun xavf ballarini hisoblash. Xavf ballarini vaznli yig‘indi modeli yordamida hisoblash mumkin, bunda xavf omillari tegishli og‘irliklarga ko‘paytiriladi va keyin umumlashtiriladi.

Baholash: xavf mezonining samaradorligini kuzatib borish va bojxona rasmiylashtiruvida optimal xavflarni boshqarishni ta’minlash uchun jarayonni doimiy ravishda baholash va takomillashtirish talab etiladi. Bu vaqt o‘tishi bilan modelning ishlashini tahlil qilish va kerakli tuzatishlarni kiritish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xavf omillari umuman olganda bojxona qoidalariga rioya qilmaslikka olib kelishi mumkin bo‘lgan xavf omillarni o‘ziga qamrab oladi. Masalan, yuqori xavfli mamlakatlar yoki mintaqalar, yuqori qiymatli tovarlar va import qiluvchi/eksport qiluvchining nomuvofiqlik tarixi. Ushbu xavf omillari modeldagi kirish o‘zgaruvchilari sifatida ifodalanishi mumkin.

Bojxonada qayta ishlash samaradorligi va aniqligini oshirish uchun xavflarni boshqarish tizimlari va elektron bojxona deklaratsiyasi kabi ilg‘or texnologiyalardan foydalanish lozim.

Texnikani tanlash muammoning murakkabligi va ma’lumotlarning mavjudligiga bog‘liq. Modelning aniqligini ta’minlash uchun ishonchli va tegishli ma’lumotlardan foydalanish va tarixiy ma’lumotlar yoki real ssenariylardan foydalangan holda modelni tasdiqlash kerak.

Xavflarni boshqarish tizimida import tovarlarni xavf darajasiga asosan bojxona auditiga tanlash uchun **mezon** va **indikatorlar** ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish uchun quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

xavfni boshqarish tizimida import tovarlari ustidan milliy bojxona nazoratining bugungi kundagi ahvolini o‘rganish;

import tovarlarini xavf darajasiga ko‘ra toifalashda bojxona nazoratini tashkil etishning xorijiy tajribasini o‘rganish;

ushbu yo‘nalishdagi xorij tajribasining milliy qonunchiligimizga mos keluvchi qismlarini O‘zbekiston Respublikasida joriy qilishni o‘rganish;

import tovarlariga doir ma’lumotlar bazalarini boshqarish, tahlil qilish, ulardagi mavjud ma’lumotlarni qayta ishlash, ularni identifikatsiyalashni amalga oshirish;

xavflarni keltirib chiqaruvchi omillarini o‘rganish;

aniqlangan omillar ta’siri ostida xavfning sodir bo‘lish ehtimolini aniqlash;

xavfning sodir bo‘lish ehtimolligi darajasiga ko‘ra ularni qayta toifalash;

qayta toifalangan xavf darajalari bo‘yicha bojxona protseduralarini amalga oshirish maqsadida, tovarlar erkin muomalaga chiqarib yuborilgandan keyingi nazoratni amalga oshirish.

Xavf darajalariga ajratishning turli metodologiyalari mavjud. Eng ko‘p qo‘llaniladigan modellardan biri xavf darajasini baholash bo‘lib, unda har bir TIF ishtirokchisi turli mezonlar asosida **“yuqori”, “o‘rta”** yoki **“past”** xavf darajasiga ajratiladi. Bu model, asosan, bojxona organlariga auditni va tekshiruvni samarali taqsimlash imkonini beradi.

Bojxona organlari xavf darajalariga asoslangan auditni amalga oshirish uchun mustahkam va avtomatlashtirilgan tizimni yaratishlari zarur. Bu tizim, bojxona deklaratsiyalarini tahlil qilish, ko‘rsatkichlarni baholash va xavf darajasini aniqlashda yordam beradi. Tizimning mukammalligi audit jarayonining samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, xavf darajasiga qarab, audit usulini tanlash ham muhimdir. Yuqori xavfli kompaniyalar uchun yanada chuqurroq va kengroq audit o‘tkazish zarur bo‘ladi. Aksincha, past xavfli subyektlar uchun oddiyroq va tezroq auditni amalga oshirish mumkin.

TIF ishtirokchilarini xavf darajasiga ko‘ra toifalarga ajratishning amaliy jihatlari quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

- ma’lumotlar bazasini tahlil qilishni avtomatlashtirish – bunda jarayonga yangi texnologiyalarni qo‘llash, masalan, sun’iy intellekt yordamida ma’lumotlar tahlili, xavf darajasini aniqlashga samarali yordam beradi;

– xavf darajasini yangilash – bu xavf darajasi belgilanganidan so‘ng ham uni doimiy ravishda yangilab borish kerak, chunki iqtisodiy holat, bozor sharoitlari va qonunchilik o‘zgarishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini xavf darajalariga ko‘ra toifalash, bojxona auditini samarali tashkil etishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida bojxona nazorati olib borish xavfni boshqarish tamoyillariga asoslangan bo‘lib, bu amaliyot Bojxona qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi. TIF subyektlari – importyorlar, eksportyorlar va boshqa tashqi savdo ishtirokchilari bo‘lib, ular bojxona to‘lovlari, deklaratsiyalash va bojxona nazorati jarayonlarida ishtirok etadilar. Bojxona auditi *(kameral yoki sayyor shaklda)* esa ushbu subyektlarning faoliyatini tekshirish va bojxona qonunchiligiga rioya etishini baholashdan, qonun ustuvorligini ta’minlashdan iborat bo‘ladi.

TIF subyektlarini xavf darajalariga ko‘ra toifalash *(past, o‘rta, yuqori va o‘ta yuqori)* bu jarayonning asosiy elementi bo‘lib, quyidagi ahamiyatga ega.

1. Bojxona organlarida resurslarni samarali taqsimlash va optimallashtirish:

xavf darajasi yuqori subyektlarni (masalan, ko‘p miqdorda noaniq operatsiyalari bo‘lgan yoki oldingi auditlarda muammolar aniqlanganlarni) ustuvor tanlash orqali bojxona organlarining cheklangan resurslarini (vaqt, kadrlar, moliyaviy xarajatlar) eng muhim holatlarga yo‘naltiradi;

past xavf darajasidagi subyektlarga nisbatan soddalashtirilgan nazorat (masalan, avtomatlashtirilgan tekshiruvlar) qo‘llanilishi, bu esa umumiy bojxona nazorati jarayonlarini tezlashtiradi va biznes faoliyatini qulaylashtiradi;

natijada, “yalpi” nazoratdan voz kechib, tanlab oluvchi yondashuv joriy etiladi, bu BQning xavfni boshqarish tizimi orqali amalga oshiriladi.

2. Xavfni oldini olish va kamaytirish:

xavf darajalariga ajratish subyektlarning potensial xatarlarini (masalan, bojxona to‘lovlarini yashirish, hujjatlarning noto‘g‘ri ko‘rsatilishi yoki qonunni buzish) erta aniqlashga yordam beradi. Bu tizim

ma’lumotlar tahlili (avtomatlashtirilgan profil yaratish) asosida ishlaydi;

agar TIF subyekti auditda bojxona organlari bilan hamkorlik qilmasa (hujjat taqdim etmasa yoki auditni rad etsa), uning xavf darajasi avtomatik ravishda yuqori ko‘rsatkichga o‘tkaziladi. Bu kelajakda bojxona nazoratni kuchaytiradi va qonunbuzilishlari oldini oladi;

umumiy maqsad – bojxona qonunchiligiga rioya etilmaslik ehtimolini kamaytirish va davlat budjetiga zarar yetkazuvchi operatsiyalarni bartaraf etish.

3. Bojxona nazorati samaradorligini oshirish:

audit tanlashda xavf darajalaridan foydalanish bojxona organlariga ma’lumotlar bazasini (oldingi auditlar, ichki tekshiruvlar natijalari) tahlil qilish imkonini beradi. Bu subyektlarni toifalash (xavf profili) orqali amalga oshiriladi;

natijalar bojxona to‘lovlarini hisoblash, qo‘shimcha nazorat shakllarini qo‘llash yoki hatto jarima choralarini ko‘rishga asos bo‘ladi. Masalan, yuqori xavfli subyektlarga nisbatan sayyor audit ustuvor bo‘ladi;

bu yondashuv bojxona operatsiyalarining sifatini oshiradi va xalqaro standartlarga (masalan, Jahon bojxona tashkilotining tavsiyalari) mos keladi.

4. Iqtisodiy va huquqiy barqarorlikni ta’minlash:

xavf darajalari asosidagi tanlov orqali bojxona nazorati shaffof va adolatli bo‘ladi: past xavfli subyektlarga ortiqcha bojxona nazorati talab etilmaydi, bu esa tashqi savdo faoliyatini rag‘batlantiradi;

davlat daromadlarini oshirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga hissa qo‘shadi, chunki yuqori xavf tug‘diruvchi operatsiyalar nazorat ostida bo‘ladi;

qonuniy asos: O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining. 2025-yil 17-dekabrdagi “Bojxona ma’muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-250 sonli Farmoni [3] va Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-noyabr-dagi 700-sonli qarori bu jarayonni tartibga soladi [4].

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini xavf darajalariga ajratish, bojxona auditini samarali tashkil etishning asosiy omillaridan biridir. Buning natijasida amaldagi bojxona auditiga tanlash mexanizmi yanada takomillashib, kuch va resurslardan foydalanish imkoniyatlari optimallashadi, bojxona qonunchiligiga itoatkorlik oshadi va bojxona to‘lovlari miqdori ortib, iqtisodiyotda halol tadbirkorlikka qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, bojxona auditida xavflarni boshqarish orqali mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalaniladi hamda bojxona organlariga nisbatan TIF ishtirokchilarining ishonchi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. O‘RQ-400, 20.01. 2016 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2025-yildagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-57-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.12.2025-yildagi “Bojxona ma’muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF- 250 sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.11.2025-yildagi “Bojxona sohasidagi ayrim tartib- taomillarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 700-son qarori.

5. Otaniyozov B.J. Bojxona tizimidagi ayrim iqtisodiy masalalarni matematik modellashtirish. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti., TATU xabarlari jurnali.1-son, 2008-yil.

6. G‘.Nurjavov. Xavf profillari- bojxona nazorati shaklini belgilashning asosiy vositasi. O‘zbekiston Bojxona axborotnomasi jurnali, 2021-yil 1-son.

7. X.Ruzmetov. Xavflarni boshqarish tizimini bojxona organlari amaliyotiga joriy etish sabablari, tizim ishlashi uchun zaruriy elementlar va ularning xususiyatlari. O‘zbekiston Bojxona axborotnomasi jurnali, 2021-yil 1-son.

8. Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari.

BOJXONA SOHASIDA MAMURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI KO'RIB CHIQISHDA MA'MURIY OGOHLANTIRISH JAZOSINI QO'LLASH INSTITUTINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Allambayev Javlonbek Rustamovich,
Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti o‘qituvchisi,
Javlon9222@gmail.com

ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ИНСТИТУТА ПРИМЕНЕНИЯ АДМИНИСТРАТИВНОГО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРИ РАССМОТРЕНИИ ДЕЛ ОБ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЯХ В ТАМОЖЕННОЙ СФЕРЕ

Алламбаев Жавлонбек Рустамович,
Преподаватель Таможенного института
Таможенного комитета,
Javlon9222@gmail.com

PROSPECTS FOR THE INTRODUCTION OF THE INSTITUTION OF APPLYING THE PENALTY OF ADMINISTRATIVE WARNING WHEN CONSIDERING CASES OF ADMINISTRATIVE OFFENSES IN THE FIELD OF CUSTOMS

Allambayev Javlonbek Rustamovich,
Teacher at the Customs Institute
of the Customs Committee,
Javlon9222@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ma’muriy huquqbuzarlik uchun ma’muriy ogohlantirish jazosini qo‘llash tizimining nazariy va amaliy masalalari, bojxona qoida buzilishi bilan bog‘liq ma’muriy ishlarga ogohlantirish jazosining qo‘llanilishi, shu bilan birgalikda ogohlantirish jazosini qonunchilikka kiritishda fuqarolarga va mansabdor shaxslarga qanday yengilliklar keltirishi bo‘yicha qator taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *jazo, ma’muriy jazo, ogohlantirish, ma’muriy ogohlantirish, bojxona qoida buzilishi bilan bog‘liq ma’muriy ishlarga ogohlantirish jazosining qo‘llanilishi.*

Аннотация. *В данной статье представлен ряд предложений и рекомендаций по теоретическим и практическим вопросам системы применения административного наказания в виде предупреждения за административное правонарушение, особенности применения предупреждающего наказания к административным делам, связанным с таможенным правонарушением, а также о том, какие упрощения оно может принести гражданам и должностным лицам при включения предупреждающего наказания в законодательство.*

Ключевые слова: *штраф, административное взыскание, предупреждение, административное предупреждение, предупреждение о применении предупреждающего взыскания к административным делам, связанным с таможенным нарушением.*

Annotation. *This article provides a number of proposals and recommendations on theoretical and practical issues of the administrative warning penalty application system for administrative offenses, the application of the warning penalty for administrative work related to customs violations, and, together with this, on what lightness it will bring to citizens and officials in the introduction of the warning penalty into law.*

Keywords: *punishment, administrative punishment, warning, administrative warning, application of the penalty of warning to administrative work in connection with a violation of the customs rule.*

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqdir. Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak.

Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi”,[1] deb belgilab qo'yilgan

Mazkur tamoyildan kelib chiqib, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar qonun asosida javobgarlikka tortiladi. Bunda, ayniqsa, birinchi marta sodir etilgan, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan huquqbuzarliklar bo‘yicha yengil jazo choralarini qo‘llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonunchilikka bo‘lgan ishonchni mustahkamlash mumkin.

Sud muayyan ma’muriy huquqbuzarlik uchun ma’muriy jazo chorasi va turini belgilashda ma’muriy jazo qo‘llanilishining umumiy qoidalariga amal qilishi lozim, unga binoan jazoni qo‘llash chog‘ida sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar hisobga olinadi. [2]

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur strategiyada quyidagi asosiy g‘oyalar aks ettirilganligi inobatga olinsin:

barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;

aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash kabi ustuvor vazifalar belgilandi.[3]

Yuqoridagi strategiyadan kelib chiqib, birinchi marotaba ijtimoiy ahamiyati katta bo‘lmagan, engil turdagi ma’muriy huquqbuzarliklar uchun engil turdagi jazo qo‘llash tizimni joriya etish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan bir qatorda, jamiyatning ravnaq topishida huquqbuzarlikni takror sodir etilishiga qarshi fuqarolarning ishonchini oshirish kabi g‘oyalar vujudga keladi.

Bunda avvalo ma’muriy jazo nima ekanligini bilib olish lozim.

Jazo – ayb yoki jinoyati uchun ko‘riladigan chora. Qilmishiga yarasha ko‘riladigan oqibat, to‘lanadigan tovon. [4]

Jazo – huquqbuzarlik sodir etishda ayblangan shaxslarga nisbatan qo‘llanadigan ma’naviy, moddiy yoki jismoniy cheklashlar bilan bog‘liq bo‘lgan majburlov chorasi deb qarash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 22-moddasida “Ma’muriy jazo Ma’muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi bo‘lib, u ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ana shu huquqbuzarning o‘zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi”.[5]

Ma’muriy jazo – maqsadiga ko‘ra ma’muriy majburlov choralarining bir turi hisoblanadi. Ma’muriy jazo ma’muriy majburlovning boshqa choralaridan farqli ravishda huquqbuzar tomonidan ma’muriy qonunchilik

hujjatlari bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinganda, ya’ni ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgandagina qo‘llaniladigan o‘ziga xos maqsadga ega jazo sanksiyalari bo‘lib, ma’muriy – protsessual tartibda amalga oshiriladi. Ma’muriy jazo O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi bilan, ma’muriy majburlovning boshqa choralari esa turli normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. [6]

Hozirgi davrda normativ-huquqiy hujjatlarni yangilashdan maqsad insonlarga zarur sharoitlarni yaratish, huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda insonparvarlik tamoyillarining to‘g‘ri qo‘llanilishini ta’minlash hisoblanadi. Endilikda O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning jazo turlariga jahon tajribasida qo‘llanilib kelayotgan “Ma’muriy ogohlantirish” jazosini qo‘shish zamonni o‘zi taqozo qilmoqda. Mazkur jazoni qo‘shish orqali fuqarolarga bir qancha yengillik ta’minlanadi. Jumladan birinchi marotaba ijtimoiy ahamiyati katta bo‘lmagan huquqbuzarlik sodir qilgan shaxslarga joyning o‘zida ogohlantirish qo‘llanilishi hamda kelgusida huquqbuzarlik sodir etmaslik to‘g‘risida ogohlantirishga olib keladi. Hozirgi qonunchilik bo‘yicha faqat ma’muriy huquqbuzarlik uchun sud idoralari ogohlantirishi mumkin, qolgan mansabdor shaxslarga bunday huquq berilmagan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 21-moddasida “Sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo‘lgan taqdirda, sud huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin. Agar ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiquvchi boshqa organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi haqida xulosaga kelsa, ish huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun ushbu Kodeksning 308^1-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboriladi”, deb ko‘rsatilgan. Bu degani ma’muriy organ mansabdor shaxsi engil turdagi ma’muriy huquqbuzarliklar uchun ogohlantirish jazosini qo‘llay olmasligi hamda ushbu turdagi ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish tartibi yoki ogohlantirish shaklida yuritish tartibi belgilanmaganligi sababli barcha ishlar mazmunan ko‘rib chiqish uchun Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlariga yuborilmoqda. Bu orqali ma’muriy organ mansabdor shaxslarning ish hajmi oshib ketishiga, fuqarolarni ovoragarchiligiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagilarga asosan xorijiy davlatlarning bojxona qonunbuzilishi haqidagi ishlarni ko‘rib chiqishida ogohlantirish jazosini qo‘llash amaliyoti o‘rganilganida ushbu turdagi jazo bir qancha moddalarga kiritilganligini ko‘rish mumkin.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeks (keyingi o‘rinlarda MHtK deb yuritiladi) 3.4-moddasida “Ogohlantirish — bu jismoniy yoki yuridik shaxsning rasmiy tanbehida ifodalangan ma’muriy jazo chorasi hisoblanadi. Ogohlantirish yozma ravishda beriladi. Rossiya Federatsiyasi xalqlarining inson hayoti va sog‘lig‘iga, hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlariga, atrof-muhitga, madaniy meros obyektlariga (tarixiy va madaniy yodgorliklarga) zarar yetkazilmagan yoki zarar yetkazish xavfi bo‘lmagan taqdirda shuningdek tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar, shuningdek mulkiy zarar bo‘lmasa birinchi marta sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarliklar uchun ogohlantirish belgilanadi. Ogohlantirish shaklida ma’muriy jazo tayinlash ushbu Kodeksning II bo‘limining tegishli moddasida yoki Rossiya Federatsiyasi subyektining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi qonunida nazarda tutilmagan hollarda ma’muriy jarima ko‘rinishidagi ma’muriy jazo ogohlantirish bilan almashtiriladi”,[7] deb belgilangan.

Ushbu jazo faqat asosiy ma’muriy jazo sifatida qo‘llaniladi hamda ogohlantirish jismoniy yoki yuridik shaxsga ularning noqonuniy xatti-harakat (harakatsizlik) sodir etish ehtimoli to‘g‘risida rasmiy yozma ogohlantirishdir. Ogohlantirish ma’muriy jazoning eng yengil turi deb hisoblanadi va qoida tariqasida ma’muriy jarima ko‘rinishidagi ma’muriy jazoga alternativa sifatida moddaning sanksiyalarida nazarda tutilgan.

Ogohlantirish jazosi muddati ma’muriy jazo tayinlash to‘g‘risidagi qaror ijro etilgan kundan boshlab bir yil o‘tgunga qadar davom etadigan ma’muriy jazo holatini shakllantiradi.

Rossiya Federatsiyasi MHtKning quyidagi

moddalarida bojxona qoidalarini buzganlik uchun ogohlantirish jazosi qo‘llanilishi ko‘rsatilgan:

16.5 – moddasi. Bojxona nazorati zonasi rejimining buzilishi.

16.6 – moddasi. Baxtsiz hodisa yoki fors-major holatlarida chora ko‘rmaslik.

16.8 – moddasi. Bojxona nazorati ostida suv kemasiga yoki boshqa suzuvchi vositalar yonida to‘xtash.

16.10 – moddasi. Bojxona tranziti tartibiga rioya qilmaslik.

16.11 – moddasi. Identifikatsiya vositalarini yo‘q qilish, olib tashlash, o‘zgartirish yoki almashtirish.

16.12 – moddasi. Bojxona deklaratsiyasini topshirish yoki hujjatlar va ma’lumotlarni topshirish muddatlariga rioya qilmaslik.

16.14 – moddasi. Tovarlarni saqlash tartibini, ularni saqlash tartibini yoki ular bilan operatsiyalarni bajarish tartibini buzish.

16.15-moddasi. (sharhlar bilan so‘nggi nashr). Bojxona organiga hisobotlarni taqdim yetmaslik

16.19 – moddasi 3-qismi. Bojxona protsedurasini belgilangan muddatda bajarmaslik, agarda unga nisbatan uni tugatish talabi belgilangan bo‘lsa.

Qozog‘iston Respublikasi MHtKning 43-moddasida “Ogohlantirish sud, ma’muriy jazo tayinlashga vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan rasmiy ravishda berish, sodir etilgan huquqbuzarlikka salbiy baho berish va jismoniy yoki yuridik shaxsga noqonuniy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risida ogohlantirishdan iborat. Ogohlantirish yozma ravishda beriladi”, deb ko‘rsatilgan.

Ogohlantirish faqat asosiy ma’muriy jazo sifatida qo‘llanilishi mumkin (ma’muriy Kodeksning 42-moddasi birinchi qismi) va hech qanday qo‘shimcha jazosiz mustaqil ravishda tayinlanishi kerak[8].

Qozog‘iston Respublikasi MHtKning quyidagi moddalarida bojxona qoidalarini buzganlik uchun ogohlantirish jazosi qo‘llanilishi ko‘rsatilgan:

525-moddasi. Tovarlarni jo‘natish tartibini buzish (Qozog‘iston Respublikasi davlat daromad organining ruxsatisiz Yevrosiyo iqtisodiy Ittifoqining bojxona hududidan tovarlarni olib chiqish tartibini buzish yoki Yevrosiyo iqtisodiy Ittifoqi va (yoki) Qozog‘iston Respublikasining bojxona qonunchiligiga muvofiq jo‘nash uchun hujjatlarni taqdim etmaslik). Ogohlantirish qo‘llaniladi.

2.1. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan, ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin bir yil ichida qayta-qayta sodir etilsa, -

jismoniy shaxslar uchun besh, kichik biznes yoki notijorat tashkilotlar uchun — o‘n, o‘rta biznes uchun — o‘n besh, yirik biznes uchun-yigirma besh oylik hisob — kitob indekslari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

535-moddasi. Tovarlarni bojxona deklaratsiyasi tartibini buzish.

Deklarant va (yoki) bojxona rasmiylashtiruvi vakili tomonidan tovarlarni bojxona deklaratsiyasi tartibini buzish, ya’ni Yevrosiyo iqtisodiy Ittifoqi va (yoki) Qozog‘iston Respublikasining bojxona qonunchiligida bojxona deklaratsiyasi va bojxona deklaratsiyasini to‘ldirish tartibi to‘g‘risidagi talablarga rioya qilmaslik, shu jumladan tovarlarni bojxona deklaratsiyasi joyida tovarlarni dastlabki, to‘liq bo‘lmagan, davriy va vaqtinchalik bojxona deklaratsiyasi, ushbu bobning boshqa moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno - ogohlantirishga olib keladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakat ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin bir yil ichida qayta-qayta sodir etilgan bo‘lsa, - Bazaviy hisoblashning yigirma besh baravari miqdorida jarimaga tortiladi.

558-moddasi. Qozog‘iston Respublikasi davlat daromadlari organlarining bojxona sohasidagi talablariga rioya qilmaslik:

1. Bojxona sohasidagi davlat daromadlari organlari va ularning mansabdor shaxslarining talablariga rioya qilmaslik - Ogohlantirish qo‘llaniladi.

2. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakat (harakatsizlik) ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin bir yil ichida qayta-qayta sodir yetilgan, -

Bazaviy hisoblashning o‘n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yuqoridagi xorij tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizga O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 23-moddasiga “Ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risida ogohlantirish” jazosini kiritish hamda 24^1-moddasi sifatida “Ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risida ogohlantirish - bu fuqarolarga inson hayoti va sog‘lig‘iga, hayvonot va o‘simlik dunyosi

obyektlariga, atrof-muhitga, madaniy meros obyektlariga zarar yetkazilmagan yoki zarar yetkazish xavfi bo‘lmagan taqdirda shuningdek tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar, shuningdek mulkiy zarar bo‘lmasa birinchi marta sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarliklar uchun ogohlantirish belgilanadi. Ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risida ogohlantirish jarima ko‘rinishidagi ma’muriy jazo bilan almashtirilishi mumkin. Ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risida ogohlantirish yozma ravishda beriladi.”

Mazkur moddalarda ko‘rsatilgan bojxona qoidalarini birinchi marotaba buzgan fuqarolarga qo‘llaniladi. Agarda tovar moddiy boyliklari olib qo‘yish nazarda tutilsa yoki yo‘qolishiga olib kelsa yoxud davlat manfaatlariga zarar yetkazilgan bo‘lsa ushbu ogohlantirish jazosi qo‘llanilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning quyidagi bojxona qoidalari buzilishi bilan bog‘liq moddalariga birinchi marotaba sodir qilgan taqdirda ogohlantirish jazosini kiritish maqsadga muvofiq:

227-modda. Bojxona nazorati zonasi rejimining buzilishi.

227^{1}-modda (1-qismi). Bojxona chegarasini kesib o‘tganlik to‘g‘risida yoki tovarlar va transport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqish maqsadi to‘g‘risida bojxona organiga xabar berish tartibini buzish.

227^{4}-moddasi 3-qismi. Bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va transport vositalarining bojxona organiga topshirish uchun qabul qilingan bojxona hujjatlari yoki boshqa hujjatlarni yo‘qotish yoxud yetkazib bermaslik

227^{5}-modda. Transport vositasini to‘xtatmaslik yoki bojxona organining ruxsatisiz jo‘natib yuborish.

227^{6}-modda. Bojxona nazorati ostida turgan kema va boshqa suzuvchi vositalar yoniga kelib to‘xtash.

227^{9}-modda (1-qismi). Bojxona identifikatsiyalash vositalarini o‘zgartirish, yo‘q qilish, shikastlash yoki yo‘qotish.

227^{12}-modda. Bojxona organiga hisobotlarni taqdim etmaslik va hisob-kitob yuritish tartibiga rioya qilmaslik.

227^{13}-modda (1-qismi). Tovarlarni saqlash uchun joylashtirish, ularni saqlash va ular bilan operatsiyalar o‘tkazish tartibini buzish.

227^{22}-modda (2-qismi). Tovarlarni deklaratsiyalamaslik yoki noto‘g‘ri deklaratsiyalash

Yuqoridagi takliflarni kiritish orqali milliy qonunchilik tizimiga yangi me’yorlar kiritilib, bojxona organlarning samaradorligi va shaffofligi ta’minlanishi bilan birga fuqarolarning huquq va erkinligini himoya qilish maqsadi ko‘zlanadi. Biroq, MJtKning 21-moddasida “Huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish” tartibi belgilangan.

“Sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo‘lgan taqdirda, sud huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin. Agar ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiquvchi boshqa organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi haqida xulosaga kelsa, ish huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun ushbu Kodeksning 308^{1}-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboriladi.

Ushbu norma huquqni qo‘llovchi organlarga bir qancha ishlarni keltirib chiqarganligi hamda fuqarolar ovoragarchiligiga olib kelganligi sababli ma’muriy organ mansabdor shaxslar tomonidan shaxsni ogohlantirish uchun ma’muriy ishni sudga jo‘natilmaydi. Va aksincha fuqarolar tomonidan to‘planadigan hujjatlar ko‘pligi sababli fuqarolar tomonidan ham ogohlantirish tizimi murakkab bo‘lganligi sababli qo‘llanmasdan qoladi.

MJtKning 308^{1}-moddasi “Huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi yoki yengilroq ma’muriy jazo chorasini qo‘llash haqidagi masalani hal etish tartibi” belgilangan.

“Agar organ (mansabdor shaxs) ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqayotganda sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi to‘g‘risida yoki ushbu Kodeksning Maxsus qismidagi moddalarning sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq jazo chorasini qo‘llash uchun asoslar borligi haqida xulosaga kelsa, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi yoki yengilroq ma’muriy jazo chorasini qo‘llash

haqidagi taqdimnoma bilan sudga yuboriladi.

Huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi yoki yengilroq ma'muriy jazo chorasini qo'llash haqidagi taqdimnomada shaxsning ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinishi yoki unga nisbatan yengilroq ma'muriy jazo chorasi qo'llash kerakligining sabablari va asoslari bayon etiladi.

Sud huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi yoki yengilroq ma'muriy jazo chorasini qo'llash haqidagi taqdimnomani ko'rib chiqib, ushbu Kodeksning 310-moddasida nazarda tutilgan qarorlardan birini chiqaradi.

Huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi yoki yengilroq ma'muriy jazo chorasini qo'llash haqidagi taqdimnoma ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish sudga kelib tushgan kundan e'tiboran uch sutka ichida ushbu Kodeksning 303, 304, 306—309-moddalarida nazarda tutilgan umumiy qoidalarga rioya etilgan holda ko'rib chiqiladi", deb belgilangan. Bu esa, ushbu ogohlantirish jazosini faqat sud tomonidan qo'llanilishini anglatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish vakolatiga ega organlarning mansabdor shaxslariga ogohlantirish jazosini qo'llash vakolati berilsa, huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyning o'zida, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish va "Ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risida ogohlantirish" jazosini qo'llash huquqini beradi.

Ushbu "ma'muriy ogohlantirish" institutini joriy etish orqali birinchi marta kam ahamiyatli ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan fuqarolarni jarimaga tortish o'rniga, sodir etgan qilmishining ijtimoiy oqibatlarini tushuntirgan holda ogohlantirish kelgusida bunday qilmishlar sodir etilishining oldi olinadi hamda sud tizimiga tushayotgan ortiqcha yukni kamaytirish, huquqiy tarbiya va profilaktika choralarini kuchaytirish, bojxona organlarida ham ma'muriy ishlarni tez va sifatli ko'rib chiqishga zamin yaratiladi. Buning ijobiy natijasi sifatida ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilgan doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan va chet el fuqarolarning ishi tezkorlik bilan ko'rib chiqilib, qonuniy baho beriladi.

Bojxona sohasida huquqbuzarlikning sodir etilishiga qarshi kurashish bilan huquqbuzarlikning oldini olib bo'lmaydi. Chunki fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali qonun buzilish holatlari kamayishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). https://lex.uz/docs/6445145

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 30.11.2018-yildagi "Sudlar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 35-son qarori. https://lex.uz/docs/4116801

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son farmoni https://lex.uz/ru/docs/6600413

4. O'zbek tilining izohli lug'ati. https://izoh.uz/uz/word/jazo

5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, 01.04.1995-yil. https://lex.uz/docs/97664

6. I.A.Xamedov va O'.X.Muxamedov tahriri ostida "Ma'muriy huquq" darslik O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi Toshkent 2017-yil.

7. Rossiya Federatsiya Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi kodeksi, 30.12.2001, N 195-FZ qonuni bilan qabul qilingan. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/

8. Qozog'iston Respublikasi Oliy sudining 22.12.2016-yildagi "Sudlar tomonidan Qozog'iston Respublikasi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksining umumiy qismi normalarini ma'muriy jarima bilan birga qo'llashning ayrim masalalari bo'yicha" 12-son qarori. http://law.gov.kz/client/#!/doc/109462/rus/22.12.2016

“TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT TOVAR NOMENKLATURASI”NI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI TO‘G‘RISIDA

Mirsagatov Murod Atxamovich,
Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti
dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi,
e-mail: murad34@rambler.ru.

О НЕКОТОРЫХ ВОПРОСАХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ТОВАРНОЙ НОМЕНКЛАТУРЫ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ»

Мирсагатов Мурад Атхамович,
доцент Таможенного института Таможенного комитета,
кандидат физико-математических наук,
e-mail: murad34@rambler.ru.

ON CERTAIN ISSUES OF IMPROVING "COMMODITY NOMENCLATURE OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY"

Mirsagatov Murad Atxamovich,
Associate Professor of the Customs Institute
of the Customs Committee, Doctor of Philosophy (PhD)
in physics and mathematics sciences,
e-mail: murad34@rambler.ru.

Annotatsiya. *Maqolada ayrim tovarlar uchun Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN)ga alohida kodlarni kiritish hamda ayrim tovarlarni bojxona maqsadlarida identifikatsiya qilish va TIF TN bo‘yicha tasniflashdagi muammolar tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida muammolarni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritilgan.*

Kalit so‘zlar: *eksport, nav, kod, identifikatsiya, tasniflash, shurup, vint, rezba, sharh.*

Аннотация. *В статье анализируются введение новых кодов в Товарной номенклатуре внешнеэкономической деятельности (ТН ВЭД) для отдельных товаров, а также проблемные вопросы по идентификации некоторых товаров для таможенных целей и их классификации по ТН ВЭД. По результатам анализа вносятся предложения по устранению выявленных проблем.*

Ключевые слова: *экспорт, сорт, код, идентификация, классификация, шуруп, винт, резьба, пояснения.*

Abstract. *The article analyzes the introduction of new codes in the Commodity Nomenclature of Foreign Economic Activity (CN FEA) for certain goods, as well as problematic issues related to the identification of some goods for customs purposes and their classification under the CN FEA. Based on the results of the analysis, proposals are made to eliminate the identified problems.*

Keywords: *Export, grade, code, identification, classification, screw, bolt, thread, explanations.*

Shaffoflik va ishonchlilik tamoyiliga asoslangan bojxona ma’muriyatchiligining sifat jihatidan yangi tizimini yaratish borasida respublikamizda izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 25-martdagi PF-57-son Farmoni bilan davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish va bu borada 2030-yilga qadar Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida bojxona rasmiylashtiruvi samaradorligi ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini 55-pog‘onadan past bo‘lmagan

darajaga ko‘tarish, 2026-yilga qadar bojxona deklaratsiyalarini inson omilisiz rasmiylashtiruv ulushini 2 barobarga oshirish, 2028-yilga qadar bojxona ko‘rigini 21 foizdan 15 foizga tushirish, hamda 2030-yilga qadar sun’iy intellekt elementlaridan foydalangan holda xavfni boshqarish tizimi samaradorligini 2 barobarga oshirish vazifalari belgilandi. [1]

Olib borilayotgan islohotlar tadbirkorlikka qulay sharoit yaratish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilib, bojxona organlaridan raqamlashtirish, axborot texnologiyalari va boshqa texnika vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalangan holda, o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishlarida yanada samarali faoliyat yuritishni taqozo etadi. Bunda, bojxona chegarasidan olib o‘tilayotgan tovarlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga mos bo‘lishini nazorat qilish hamda ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tezkorlikda har tomonlama tahlil qilish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bu borada tovarlarni to‘g‘ri identifikatsiya qilish va normativ-huquqiy hujjatlar talablari bilan solishtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda – TIF TN) barcha moddiy tovarlarning tizimlashtirilgan ro‘yxati bo‘lib, tovarlarni raqamli kodlar orqali ifodalash va muayyan o‘lchov birliklarida hisobini yuritish imkonini beradi. Shu bois, davlat tomonidan Tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli va notarif boshqarishda, tashqi savdo operatsiyalarining hisobini yuritishda, import va eksportni tovarlar kesimida tahlil qilishda, savdo oqimlarini kuzatishda va bu borada asoslangan choralar ko‘rishda muhim vosita hisoblanadi. [2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-apreldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-136-son qaroriga binoan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini yanada oshirish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Andijon, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari bo‘yicha jami, uzum mevalarining eksporti uchun 2025-yilda 41 032,3 ming AQSH dollari va 2026-yilda 53 342 ming AQSH dollari istiqbolli ko‘rsatkich belgilandi. [3]

O‘zbekistonda uzumning asosan xo‘raki navlari yetishtiriladi. Ularning eksporti 2024-yilda 202,5 ming tonnani va 2025-yil 10 oyida 188,4 ming tonnani tashkil etdi.

Amaldagi TIF TNda yangi (“свежий”) xo‘raki uzumning navlari uchun umumiy 9 ta raqamli 0806 10 100 podsubpozitsiya ajratilgan, bo‘lib yilning muayyan davrlari bo‘yicha u quyidagicha bo‘lingan:

0806 10 100	– – xo‘raki navlar:
0806 10 100 1	– – – 15 iyundan 15 dekabrgacha
0806 10 100 9	– – – boshqalar

TIF TNning mazkur tahririda xo‘raki uzum navlarining barchasi, yilning ajratilgan davri hisobga olinmasa, umumiy bitta raqamli kodga birlashtirilgan. Holbuki, yetishtirilgan mahsulotni eksportini ko‘paytirishda mijoz va iste’molchilarga qanday mahsulot kerakligi bilan qiziqish, uning sifati va navini bilish muhim hisoblanadi. Bunday tahlilni o‘tkazishda uzum navlarining alohida kodlar bilan tasniflanishi bu masalani bir qadar yengillashtiradi. Shu bois, umumiy bitta raqamli kod bilan tasniflanadigan xo‘raki uzum navlari uchun kodning 10-raqamini o‘zgartirish orqali alohida yangi kod raqamlarini ishlab chiqish, hamda bunda uzum navining eksportdagi miqdori katta ekanligini asosiy mezonlardan biri sifatida e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq.

“EastFruit – meva-sabzavot biznesini rivojlantirish portali”ning bergan ma’lumotiga ko‘ra, uzum savdo hajmlari bo‘yicha eng ko‘p iste’mol qilinadigan mevalar orasida dunyoda banandan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Jahon miqyosida uzumlar savdosi har yili 3,6% yoki 336 million dollarga oshib, muntazam

0806 10 100	– – xo‘raki navlar:
	– – – 15-iyundan 15-dekabrgacha
0806 10 100 1	– – – – qora kishmish
0806 10 100 2	– – – – husayni
0806 10 100 3	– – – – toyifi
0806 10 100 5	– – – – boshqalar
	– – – boshqalar
0806 10 100 6	– – – – qora kishmish
0806 10 100 7	– – – – husayni
0806 10 100 8	– – – – toyifi
0806 10 100 9	– – – – boshqalar

o‘sishda davom etmoqda. [4]

Bayon etilganlardan kelib chiqib, TIF TNdagi 0806 10 100 podsubpozitsiyani yangi kod raqamlarini kiritish orqali quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

O‘zbekistondagi uzumchilik sohasining yetakchi mutaxassislari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda eng ommabop sifatida danaksiz “qora kishmish” va “oq husayni” navlari qayd etilgan. So‘rovdagi reytingda mos ravishda 2-o‘rinni va 3-o‘rinni egallagan “kelinbarmoq” va “ketmonsopi” navlari ham, aslida, husaynining bir turi yoki duragayi hisoblanadi. [4]

Shu bois, uzum navlarini TIF TN bo‘yicha tasniflashdagi anglashilmovchilikni oldini olish maqsadida, TIF TN 8-guruhi 0806 10 100 podsubpozitsiyasi qamrab olgan va nomlari alohida ko‘rsatilgan uzum navlari uchun tegishli izoh kiritish lozim.

Uzum navlari uchun yuqorida taklif etilgan alohida raqamli kodlarning kiritilishi ushbu tovarlarning importi-eksporti bo‘yicha tahlil ishlarini tezkorlikda amalga oshirish va TIFni boshqarish borasida Hukumat tomonidan o‘z vaqtida tegishli choralar ko‘rish imkonini beradi.

TIF TNning tovar pozitsiyalari va subpozitsiyalarida tovarlarning tavsiflari va ular uchun raqamli kodlar belgilangan. TIF TNni talqin etishning asosiy qoidalarining birinchi va oltinchi qoidalariga binoan ushbu tavsiflar tovarlarning TIF TN bo‘yicha raqamli kodini aniqlashda yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan mezon hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning “Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg‘unlashtirilgan tizimi to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga qo‘shilish haqida” 1998-yil 29-avgustdagi 687-I-son qaroriga binoan O‘zbekiston “Tovarlarni tavsiflash va kodlashning uyg‘unlashtirilgan tizimi to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya”ga qo‘shilgan.

Konvensiyaning 3-moddasiga binoan, konvensiyaga qo‘shilgan mamlakatlar o‘zlarining tovar nomenklaturalarini Tovarlarni tavsiflash va kodlashning uyg‘unlashtirilgan tizimi (keyingi o‘rinlarda – Uyg‘unlashtirilgan tizim) asosida ishlab chiqishlari lozim. Xususan, o‘z davlatlarining tovar nomenklaturalarida:

- Uyg‘unlashtirilgan tizimdagi barcha tovar pozitsiyalari va subpozitsiyalari, shuningdek ularga taalluqli raqamli kodlarni birorta qo‘shimcha yoki o‘zgarishlarsiz ishlatishlari;

- Uyg‘unlashtirilgan tizimni talqin etishning asosiy qoidalarini, shuningdek bo‘limlarga, guruhlarga va subpozitsiyalarga berilgan izohlarni qo‘llash va Uyg‘unlashtirilgan tizimning bo‘limlari, guruhlari, tovar pozitsiyalari va subpozitsiyalarining mazmuni-tarkibini o‘zgartirmasliklari;

Uyg‘unlashtirilgan tizimda qabul qilingan kodlash qoidalariga rioya etishlari lozim. [5]

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida TIF TNning tovar pozitsiyalari va subpozitsiyalarining nomlarida ko‘rsatilgan tovarlarning tavsiflari Uyg‘unlashtirilgan tizimdan olingan.

Jumladan, 7318 tovar pozitsiyasining nomida qora metallardan tayyorlangan vintlar, boltlar, gaykalar, gluxarlar, burab qotiriladigan ilgaklar, parchinlar, shponkalar, shplintlar, shaybalar (shu jumladan prujinali shaybalar) va analogik buyumlar tavsiflangan.

Ushbu tovar pozitsiyasiga kiritilgan tovarlar detallashtirilganda shuruplar va vintlar mos ravishda “boshqa yog‘och shuruplar (“шурупы для дерева прочие”)”, “o‘zi qirqar vintlar (“винты самонарезающие”)” va “boshqa vintlar” nomli, alohida subpozitsiyalarda ko‘rsatilgan.

TIF TNni talqin etishning asosiy qoidalarining oltinchi qoidasiga binoan, tovarlarni subpozitsiyalar bo‘yicha tasniflashda ularni subpozitsiyalarning nomlarida tavsiflangan tovarlarga mos kelishi bo‘yicha identifikatsiyalash zarur. Shu bois, tovar shurup, o‘zi qirqar vint yoki boshqacha vint kabi ko‘rinishdagi tovar bo‘lganda, tovarni ulardan qaysi biriga mansub ekanligini aniqliklar muhim hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan tovarlarning ko‘rinishi bir-biriga o‘xshagani sababli, ularni to‘g‘ri identifikatsiyalashda, natijada tovarlarning TIF TN kodini aniqlashda muammolar uchrashi mumkin.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasiga (keyingi o‘rinlarda – MDH TIF TN) berilgan sharhlarda ushbu tovarlarga sharhlar berilgan. Xususan, vintlar silindrsimon shaklga ega bo‘lib, zich qiya rezbaga va shlislangan boshchaga ega bo‘lishi qayd etilgan. [6]

Vintlar gayka bilan qotiriladi yoki rezbali teshikka burab mahkamlanadi. Ularning ayrim namunalarining suratlari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm

MDH TIF TNga berilgan sharhlarda yog‘och uchun shuruplar metall uchun vintlardan konussimon shakli, uchining o‘tkirligi bilan farq qilishi va teshikni kesish uchun mo‘ljallangan, ko‘proq og‘gan rezbaga ega bo‘lishi, bundan tashqari, shuruplar shlislangan va mahkamlanadigan joyiga cho‘kadigan boshchaga ega bo‘lishi, ularni hech qachon gaykalar bilan ishlatilmasligi qayd etilgan.

Shurupning turli o‘lcham va shakllardagi ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, 2-rasmda ulardan ayrimlarining suratlari keltirilgan.



2-rasm

MDH TIF TNga berilgan sharhlarda o‘zi qirqar vintlar shlislangan boshchaga va kesadigan rezbaga ega bo‘lishi bilan shuruplarga o‘xshashi, shuningdek uchi o‘tkirlangan yoki konus shaklida bo‘lishi, shuning uchun metall, marmar, shifer, plastmassa va shu kabilarning listlariga ularning o‘zlarini burab kiritish mumkinligi qayd etilgan.

Muqobil manbalarda o‘zi qirqar vintlar sifatida ko‘rsatilgan buyumlarning ayrimlari namunalarining suratlari 3-8-rasmlarda keltirilgan.



3-rasm



4-rasm



5-rasm



6-rasm



7-rasm



8-rasm

3–4-rasmlardagi o‘zi qirqar vint namunalari MDH TIF TNga berilgan sharhlarda qayd etilganidek, shlislangan boshchaga va kesadigan rezbaga ega bo‘lib, uchi o‘tkirlangan. Ushbu namuna qattiqligi yog‘ochga o‘xshash bo‘lgan plastmassaga va shunga o‘xshash materiallarga buralib kirishi yaqqol ko‘rinib turibdi. Shuningdek, ular metall listlarga drel yordamida qattiqroq kuch bilan bostirgan holda burab kiritiladi. Bunda, qattiq kuch bilan bosish va kattaroq tezlikda aylanish hisobiga o‘zi qirqar vintning o‘tkir uchi avval metall listni teshadi va keyin uning rezba qismi hisobiga metall listga buralib mahkamlanadi. Bunday namuna faqat yupqaroq listni teshib o‘ta oladi. Qalinroq listlarni teshib o‘ta olmaydi.

E’tiborlisi shundaki, shuruplardan ham shunday tarzda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, ushbu namunalarning ko‘rinishi ham shuruplarga aynan o‘xshaydi. Shunday ekan, ushbu buyumlarni “o‘zi qirqar vint” deb hisoblash to‘g‘ri bo‘larmikan. Chunki, ularning shurupdan deyarli farqi bo‘lmayapti. Bunday holda ularni bir-biridan ajratish va to‘g‘ri identifikatsiya qilish, shu bois TIF TN kodini belgilashda muammo vujudga keladi.

5 – 6-rasmlardagi o‘zi qirqar vint namunalari MDH TIF TNga berilgan sharhlarda qayd etilmagan. Ushbu namunalarning boshcha va rezba qismlari 3 – 4-rasmlardagi o‘zi qirqar vintlarga va shuruplarga o‘xshash bo‘lsa-da, lekin uchi bo‘lgan qismi umuman boshqacha – parmaga o‘xshab kesuvchi tishlari mavjud. Ushbu namunalar haqiqatdan ham biror materialga mahkamlanadigan bo‘lsa, aynan uchidagi tishlari hisobiga avval uni teshib boradi va undan keyin rezbali qismi uni ichkariga tortadi hamda mahkamlanadi. Mazkur o‘zi qirqar vint namunalaridagi parma tishlari uni o‘zi qirqar vint deb hisoblashga asos bo‘lishi mumkin. Lekin, ushbu namunalar ham yetarli katta qalinlikdagi metall plita-listlarga mahkamlanishida muammo bo‘lishi mumkin. Chunki, uning parma tishlari va rezba qismi muayyan kattalikdan ortiqroq qarshilikni yenga olmaydi.

Bunday holatlar uchun 7 – 8-rasmlarda ko‘rsatilgan o‘zi qirqar vint namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu namunalar ham MDH TIF TNga berilgan sharhlarda qayd etilmagan. Mazkur o‘zi qirqar vintlarning boshqalardan farqi – ularning

rezba qismi xuddi “rezba keskich” – “metchik” tuzilishiga o‘xshaydi. Biroq, ushbu namunalar o‘zi qirqar vint sifatida mahkamlanishi uchun oldindan muayyan diametrdagi teshik ochilgan bo‘lishi va o‘zi qirqar vint ushbu teshik ichiga buralishi lozim. Bunday o‘zi qirqar vintlar har qancha qalin bo‘lgan metall listlarga burab mahkamlana oladi.

Yuqorida bayon etilganlarga binoan, o‘zi qirqar vintlarning bojxona nazorati jarayonida ularni identifikatsiya qilish borasida muammo vujudga kelishi mumkin. Xususan, 3–4-rasmlarda ko‘rsatilgan konstruksiyaga ega o‘zi qirqar vintlarni shunday ekanligi yoki ularni shuruplarga taalluqliligi muammolik vaziyatni vujudga keltirishi mumkin.

Mazkur masalaning yechimi sifatida, 3–4-rasmlarda ko‘rsatilgan o‘zi qirqar vintlarning konstruksiyasi shuruplar bilan aynan o‘xshash bo‘lganligi bois, ularni shurup deb hisoblash va shunday identifikatsiya qilgan holda TIF TN kodini belgilash taklif etiladi.

Shuningdek, 5–8-rasmlardagi kabi konstruksiyaga ega o‘zi qirqar vintlar, ularning aynan parma tishlariga o‘xshash tishlari borligi va rezba qismi xuddi “rezba keskich” kabi bo‘lganligi, ya’ni teshikni tishlari bilan teshishi yoki rezbani ochishga moslashganligi uchun ularni “o‘zi qirqar vint” deb hisoblash va faqat shunday konstruksiyaga ega vintlarni “o‘zi qirqar vint” sifatida identifikatsiyalash taklif etiladi.

Mazkur takliflarni amaliyotga kiritilishi o‘zi qirqar vintlar va shuruplarni bir-biridan yaqqol ajratish imkonini beradi va bojxona nazoratini o‘tkazishda tovarlarni identifikatsiya qilish hamda TIF TN kodini belgilash borasidagi muammolarning oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-57-son Farmoni, // https://lex.uz/ru/docs/7451997.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 181-son qarori, // https://lex.uz/ru/docs/7533457.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-apreldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-136-son qarori // https://lex.uz/docs/7469633.

4. O‘zbekiston uzum navlarining reytingi – tarmoq uchun berilgan baho // https://east-fruit.com/uz/yangiliklar/ozbekiston-uzum-navlarining-reytingi-tarmoq-uchun-berilgan-baho.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 1998-yil 29-avgustdagi “Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg‘unlashtirilgan tizimi to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga qo‘shilish haqida”gi 687-I-son qarori // https://lex.uz/ru/docs/2220662.

6. Пояснения к Товарной номенклатуре внешнеэкономической деятельности Содружества Независимых Государств на основе 7-го издания Гармонизированной системы описания и кодирования товаров, версия 2022 года // https://customs.gov.ru/uchastnikam-ved.

O'ZBEKISTONDA MILLIY TRANSPORT-LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Sabirov Sanjarbek Saypulloyevich,
Bojxona qo‘mitasi Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini tashkil etish boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, mustaqil tadqiqotchi,
e-mail: s.sabirov@customs.uz;
Saidov Umarjon Shuhratovich,
Navoiy viloyati bojxona boshqarmasi Kontrabandaga qarshi kurashish bo‘limi muhim ishlar bo‘yicha katta tezkor vakili, mustaqil tadqiqotchi,
e-mail: saidumarkhan@bk.ru

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ТРАНСПОРТНО-ЛОГИСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Сабиров Санжарбек Сайпуллаевич,
Начальник отдела Управления организации таможенного контроля и оформления Таможенного комитета, самостоятельный соискатель,
e-mail: s.sabirov@customs.uz;
Саидов Умаржон Шухратович,
Старший оперативный уполномоченный по важным делам Отдела по борьбе с контрабандой Управления таможенного комитета по Навоийской области, самостоятельный соискатель,
e-mail: saidumarkhan@bk.ru

ON SOME ISSUES OF DEVELOPING NATIONAL TRANSPORT AND LOGISTICS SYSTEM IN UZBEKISTAN

Sabirov Sanjarbek Saypullayevich,
Head of Department of Division Organization of Customs Control and Clearance of the Customs Committee, Independent Researcher,
e-mail: s.sabirov@customs.uz;
Saidov Umarjon Shuhratovich,
Senior Operational Commissioner for Important Affairs, Anti-Smuggling Department, Customs Directorate of Navoi Region, Independent Researcher,
e-mail: saidumarkhan@bk.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston xalqaro transport logistikasidagi ayrim muammolar yoritilgan bo‘lib, xalqaro yuk tashish jarayonida milliy tashuvchilar manfaatlariga javob bermaydigan ayrim tartibotlar atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada keltirib o‘tilgan muammoga tizimli yondashilib rasmiy ma’lumotlar orqali O‘zbekiston milliy tashuvchilarini qo‘llab quvvatlash uchun asoslangan xulosa va takliflar o‘rin olgan.*

Tayanch so‘zlar: *transport-logistika, ruxsatnoma hujjati, dozvol, transport kompaniyasi, tashqi savdo, avtomobil transporti, chegara o‘tkazish punktlari, chegara bojxona posti, CEMT.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются некоторые проблемы в международной транспортной логистике Узбекистана, а также детально исследуются некоторые процедуры в процессе международных перевозок, не отвечающие интересам национальных перевозчиков. В статье также содержится системный подход к проблеме, а также выводи и рекомендации, основанные на официальных данных, для поддержки национальных перевозчиков Узбекистана.*

Ключевые слова: *транспортная логистика, разрешительный документ, дозвол, транспортная компания, внешняя торговля, автомобильные перевозки, пункты пропуска, приграничный таможенный пост, ЕКМТ.*

Abstract. *This article examines some of the problems in the international transport logistics of Uzbekistan, and also examines in detail some procedures in the process of international transportation that do not meet the interests of national carriers. The article also contains a systematic approach to the problem, as well as conclusions and recommendations based on official data to support the national carriers of Uzbekistan.*

Keywords: *Transport logistics, permit document, permission, transport company, foreign trade, automobile transportation, checkpoints, border customs post, ECMT.*

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston tovarlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri bu arzon, tezkor hamda xavfsiz transport logistikasini takomillashtirish bo'lib qolmoqda. Bu borada davlat Rahbarining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda mazkur hujjat ijrosi bo'yicha qabul qilinadigan har yilgi "Davlat dastur"larining 15 ga yaqin bandlarida ham xalqaro yuk tashishlar sohasida muhim vazifalar belgilab olingan.

Shuningdek, avtomobil transporti O'zbekistonda ishlab chiqarish infratuzilmasining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning barqaror va samarali faoliyati iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishi, aholi turmush farovonligi oshishi, mamlakatning jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuvining zarur sharti hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishda Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan 2020-yilda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida Markaziy Osiyo mintaqasining global iqtisodiy, transport va tranzit yo'laklariga chuqur integratsiyasini ta'minlash zarurligi, shu munosabat bilan, BMT shafeligida Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy markazni ochish tashabbusi o'rtaga tashlangan [1].

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6005-son Farmoni bilan tasdiqlangan Konsepsiyada Jahon savdo tashkiloti va Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi tavsiyalari va standartlaridan kelib chiqib bojxona — savdo tartibotlarini soddalashtirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" hisobotidagi "Xalqaro savdo" indikatorida O'zbekiston o'rnini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Umuman olganda O'zbekistonni Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida kamida 55-pog'onagacha ko'tarish, respublikada biznes muhitni mustahkamlash va investitsiyaviy jozibadorlikni yaxshilash maqsadida 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-57-sonli Prezident Farmonida ham bu borada o'z aksini topgan. Ushbu hujjatda davlat boshqaruvining har bir sohasi bo'yicha aniq O'zbekistonning xalqaro nufuzi bo'yicha qator vazifalar belgilab olingan.

Bundan tashqari Prezident Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston transport tizimini dunyoning savdo yo'llari bilan integratsiyalashda, xususan Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro uyg'unlikda bir butunlikda faoliyat yuritishi borasida qator tashabbuslar olib bormoqda.

Xususan, 2021-yilning 15-16-iyul kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan "Markaziy

va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro anjumanida davlat Rahbari ushbu ikki mintaqada zamonaviy, samarador va xavfsiz transport-logistika infratuzilmasini yaratish taklifini ilgari surdi [2].

Nazariy jihatidan olganda esa, muayyan bir davlatning transport-logistikasi bo’yicha ilmiy ishlanmalarda tadqiqot mavzusi kengroq olingan bo’lib, bu borada yuzaga kelayotgan muammolarni detallashgan holda tadqiq etilganlari kam kuzatiladi.

Umuman olganda olib borilgan izlanishlar barobarida bugungi kunda O’zbekistonda milliy tashuvchilarni xalqaro bozordagi xizmatlar kesimida kuchli raqobatga dosh bera olishini ta’minlash hamda keng imkoniyatlarni yaratish maqsadida bu borada ayrim muammolar atroflicha tahlil qilindi

Shunga ko’ra o’rganilgan ma’lumotlar tahlili O’zbekistonda xalqaro tashuvlarda ayrim ma’muriy to’siqlar saqlanib qolayotganligini ko’rsatmoqda. Mazkur muammolar avtomobil transportida xalqaro yuklarni tashish uchun Ruxsatnoma (keyingi o’rinlarda Ruxsatnoma deb ketiladi) hujjatini olishda namoyon bo’lmoqda.

Natijada esa mazkur muammo mamlakat eksport salohiyatini oshirishda hamda transport logistika sohasidagi xalqaro reytinglarda o’rnini mustahkamlashda o’zining salbiy ta’sirini ko’rsatmoqda.

Buning oqibatida esa bugungi kunda O’zbekiston tovarlari o’z manziliga yetkazilganda transport xarajatlari mahsulot narxining 70% gacha tashkil etishi hamda jahon bozorida o’zining raqobatbardoshligini yo’qotishiga olib kelyapti.

Shuningdek, ushbu Ruxsatnoma hujjatini olishda amaldagi avtomobil transportida xalqaro yuklarni tashish bo’yicha 28 ta idoralararo xalqaro shartnoma hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi 277-sonli Qarori huquqiy asos bo’lib, amaliyotga qo’llanilib kelinmoqda. Mazkur hujjat Transport vazirligi tomonidan markazlashtirilgan tartibda milliy transport kompaniyalariga yillik ehtiyojdan kelib chiqib berib boriladi. (Ma’lumot uchun: ushbu hujjat haydovchilar tilida dozvol deb ataladi. Xalqaro amaliyotga muvofiq O’zbekistonda dozvollarni boshqa davlatlar bilan tenglik tamoyili asosida almashish yo’lga qo’yilgan bo’lib, ularning asosan to’rt xildagisi mavjud. Bular, ikki tomonlama, tranzit, uchinchi davlatga/dan hamda universal.)

Yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlar o’rganilganda Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Eron Islom Respublikasi davlatlari bilan ikki tomonlama va tranzit, Litva bilan ikki tomonlama tashishlardan tashqari barcha Ahdlashuvchi tomonlar bilan faqatgina Ruxsatnoma asosida tashish bo’yicha kelishuvga erishishgan. Shu bilan birga ushbu hujjatning asosiy vazifasi mamlakatning tashqi savdosida transport xizmatlari kesimida milliy tashuvchilar manfaatlarini himoya qilish bo’lib, xorijiy yuk tashuvchilar “ekspansiyasiga” qarshi chora sifatida ko’rish mumkin.

Bundan tashqari, yuqorida ko’rsatilgan Hukumat qaroriga muvofiq ruxsatnomalarga bo’lgan bir yillik umumiy ehtiyojni aniqlash uchun milliy tashuvchilar kelgusi yil boshlanishidan kamida uch oy oldin Transport vazirligiga belgilangan shaklda buyurtmanomalar taqdim etadilar. Bunda buyurtmanomada rejalashtirilayotgan qatnovlar soni (yuk tashish uchun), tashuvchining bir yillik ehtiyoji har bir tashish turi bo’yicha ko’rsatiladi, shuningdek, avtomobilda yuk va yo’lovchilarni xalqaro tashish uchun foydalaniladigan avtotransport vositalari soni qayd etiladi. Mazkur buyurtmanoma kelgusi yil mobaynida avtomobilda yuklarni xalqaro tashishni amalga oshirishning aniq prognozlari asosida tuzilishi ko‘zda tutilishi kerak.

Shu o’rinda ruxsatnoma hujjati bilan bog‘liq muammoni yoritishda O’zbekiston tashqi savdosini pandemiya davrini hisobga olmaganda o’sib borayotganligini alohida ta’kidlash joiz.

Xususan, Bojxona qo’mitasining (BQ) axborot tizimlaridagi ma’lumotlarga ko’ra 2020-2025-yillarda avtomobil transportida tashilgan yuklar o’tgan yillar nisbatida 2021-yilda 1,3 barobarga, 2023-yilda 1,2 barobarga oshgan bo‘lsa, 2025-yilda esa 2020-yilga nisbatan qariyb 3 barobarga ko‘payganligini qayd etish lozim.

Qaydidagi jadval ma'lumotlarida tashqi savdoni oshib borish tendensiyasini qayd etgan holda xalqaro tashuvlardagi milliy tashuvchilarning ulushini ko’paytirish hamda sarf-xarajatlarini kamaytirish dolzarbligicha

1-jadval

O’zbekiston hududiga import va tranzit tartibida kirgan yuk avtoulovlari soni hamda yuk hajmi

Yillar	Yuk avtoulovlar soni (dona)			Yuk miqdori (tonnada)		
	Jami	Shundan		Jami	Shundan	
		Tranzit	Import		Tranzit	Import
2020	288343	45435	242908	5186494	810879	4375615
2021	383448	61352	322096	7161284	1115261	6046023
2022	477571	92918	384653	9010886	1717773	7293093
2023	562572	443210	119362	11004951	8851112	2153839
2024	593661	461424	132237	11911042	9327665	2583378
2025	701867	548724	153143	14409524	11354492	3055032

Manba: Bojxona qo’mitasining avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali olingan ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

qolmoqda.

Bundan tashqari esa, mazkur ruxsatnomalarning yildan yilga oshib borish barobarida, davlatlar kesimida ham ko’payib borayotganligini ko’rish mumkin (Pandemiya davrini hisobga olmaganda). Xususan, 2020-yilda 45 990, 2022-yilda 165 434 (3,6 баробара ошган), 2025-yilning 295 824 dona (1,8 barobar oshgan) ruxsatnomalar davlatlar bilan belgilangan kvotalar doirasida almashilgan (2-jadval).

Shuningdek, sarf xarajatlar borasidagi fikrni respublika eksport yuklarini tashiyotgan yuk-avtoulov haydovchilari mazkur Ruxsatnoma hujjatini rasmiylashtirilib olinishida milliy transport kompaniyalarida o’ziga xos “tartibga solingan amaliyot”ga muvofiq noqonuniy to’lov “stavka”lar orqali olinishi bilan izohlash mumkin.

Xususan, milliy transport kompaniyalaridagi amaldagi tartibga muvofiq (VMning 2023-yil 7-iyuldagi №277-sonli qarori) Transport vazirligidan BHMning to’rtdan bir qismi miqdoridagi to’lovni amalga oshirgan holda Ruxsatnomalar yillik ehtiyojdan kelib chiqib rasmiylashtirilib olinadi. Mazkur hujjat olingandan keyin esa

2-jadval

TOP-5 davlatlarda avtomobil transportida xalqaro yuk tashuvlarda foydalaniladigan ruxsatnomalar soni

Yil/Dav.	Turkiya	Turkmaniston	Rossiya	Belorussiya	Ukraina
2020	27275	3571	3829	8680	4855
2021	23223	13	4020	9895	5238
2022	26836	4794	4096	12615	1601
2023	63360	59872	7248	15771	1664
2024	46585	32563	3696	8723	1117
2025	47175	41274	2566	10545	1159

Manba: Bojxona qo’mitasining avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali olingan ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Transport kompaniyalaridagi Dispetcherlik xizmatlari Transport vazirligidan xarid qilingan ushbu Ruxsatnomani yuk-avtoulov haydovchilariga 50 dan 200 AQSH dollarigacha bo'lgan miqdorda sotib kelishmoqda.

Jumladan, olingan ma'lumotlarga ko'ra *(bevosita xalqaro tashuvni amalga oshirayotgan haydovchilar bilan qilingan suhbat jarayonida)* Sharqiy va G'arbiy Yevropa davlatlariga tegishlisi 50-100, Turkiyaga taalluqli Ruxsatnomalar esa 200 AQSH dollarigacha dispetcherlik xizmatlari tomonidan pullab kelinmoqda. Mazkur "to'lovlar"ning yakuniy ta'siri esa eksport tovarlarining qiymatiga qo'shilishi ayon bo'lmoqda.

Shuningdek, hozirda O'zbekistonning aksariyat transport kompaniyalari parkidagi yuk-avtotransport vositalari o'ziga tegishli bo'lmay, balki jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan yuk-avtoulovlarini shartnoma asosida qabul qilgan holda faoliyat yuritmoqda. Oqibatda esa ular avtoparklaridagi mavjud yuk-avtoulovlarni asosiy sherik sifatida ko'rmay, balki vaqtinchalik "yollanma" shaklida olingan transport vositasi kabi munosabat ekanligini bilish mumkin.

Umuman olganda xalqaro tashuvlarda qo'llaniladigan mazkur Ruxsatnoma hujjatini olinishi bilan bog'liq muammolar boshqa davlatlarda o'zining yechimini topib bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda ilg'or xorij tajribasini o'rganib, uni milliy manfaatlarini inobatga olgan holda tatbiq etish ushbu muammoga yechim sifatida ko'rish mumkin.

Xususan, Turkiya, Rossiya, Ukraina, Gruziya kabi davlatlarning milliy tashuvchilari Ruxsatnomani mazkur hujjatni beruvchi organning nafaqat markaziy organidan (vazirlik, qo'mita yoki inspeksiya), balki o'sha vakolatli muassasaning mintaqaviyi bo'limlaridan hamda chiqish bojxona postining o'zidan ham olish imkoniyati yaratilgan.

Xususan, Rossiya Federatsiyasi milliy tashuvchilari oldindan berilgan elektron ariza asosida Transport vazirligining 24 ta rasmiy ofislari orqali ruxsatnoma hujjatini rasmiylashtirib olish imkoniyatiga ega [3].

Ushbu davlatda O'zbeksitondan farqli ravishda ruxsatnomalar markazlashtirilgan tartibda emas, balki davlat chegaralaridagi yaqin hududlardagi transport vazirligining hududiy bo'limlaridan tarqatilishini ma'lum bo'lmoqda.

Shuningdek, Turkiya davlatida ham Ruxsatnoma hujjatining milliy tashuvchilarga tarqatilishi o'zining qulay tartiboti bilan ajralib turadi. Ushbu davlatda Ruxsatnoma hujjatlari bevosita eksport yoki tranzit yuklarni tashiyotgan milliy tashuvchilarga bevosita chegara bojxona postlarida berish yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, Turkiyada amaldagi 2013-yil 1-maydagi 6526 sonli tartibotiga ko'ra mamlakat milliy tashuvchilari ruxsatnomalarni 15 ta avtomobil o'tkazish punktlari hamda 12 ta dengiz portlari orqali olish imkoniyatiga ega. Ushbu tartibotda yuk-avtoulov haydovchisi o'zining tashiyotgan eksport yoki tranzit yukining yo'nalishiga qarab chiqish bojxona postida Ruxsatnomalarni olish kabi amaliyot yo'lga qo'yilgan. Misol uchun, Qozog'istonga tashilayotgan Turkiyaning eksport yukiga "Gurbuloq" (Eron Islom Respublikasi bilan chegaradosh) chegara bojxona postidan Eron, Turkmaniston, O'zbekiston hamda Qozog'iston davlatlarining ruxsatnomalari milliy tashuvchiga har biri 15 turk lirasidan (taxminan 19000 so'm) yig'im undirgan holda vakolatli organ tomonidan rasmiylashtirilib beriladi. Ruxsatnomalar Turkiyaning transport va infrastruktura vazirligining chegara postidagi xodimlari tomonidan tarqatiladi.

Shuningdek, yuqorida qayd etib o'tilgan 6526 sonli tartibga muvofiq Turkiya milliy tashuvchilari tomonidan amalga oshiradigan xalqaro tashuvlarning 53 davlat bo'yicha har birining yo'nalishi berilgan bo'lib, ruxsatnoma hujjatlari mazkur yo'nalishdagi davlatlar uchun berilishi nazarda tutilgan [4].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, hozirda O'zbekiston va Turkiya o'rtasida ruxsatnomalarni elektron tarzda almashish amaliyotini joriy etmoqda [5].

Bundan tashqari, ilg'or xorij tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro tashuvlarda ruxsatnomalarning qo'llanilishi yuzasidan bir qator davlatlarda geografik jihatdan yaqin bo'lgan mintaqaviy hamkorlik mavjud. Jumladan, Yevropa davlatlarining bu borada vakolatli organlari tomonidan bir to'xtamga kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, ushbu mintaqa davlatlari transport vazirlarining kengashi (EKMT=CEMT(ruscha:

Европейская конференция министров транспорта; fransuzcha: Conference Europeenne des Ministres des Transports)) mavjud bo'lib, ushbu tuzilma doirasida hozirda 46 ta davlat ishtirokchi bo'lib turibdi. Yevropa davlatlarining milliy tashuvchilari mintaqa hududidagi yuk tashuvlarni SEMT deb nomlanuvchi ruxsatnomalar asosida amalga oshirishadi. SEMT ko'p tomonlama ruxsatnoma bo'lib, konferensiya ishtirokchi davlatlari orasida huquqiy kuchga ega.

Ushbu hujjat Yevropa mintaqasidagi davlatlar orasida cheklanmagan miqdordagi qatnov uchun beriladi hamda universal turdagi ruxsatnoma hisoblanadi. Bitta ruxsatnomaning amal qilish muddati uzoq muddatlisi — 1 yil, qisqa muddatlisi – 30 kungacha. Agar tashuvchi firma ruxsatnomani olgan kundan boshlab 3 oy mobaynida xalqaro tashuvlarda foydalanmagan bo'lsa, hujjatning amal qilishi kuchini yo'qotadi [6].

Shu o'rinda O'zbekiston Transport vazirligi tomonidan tarqatilayotgan ikki tomonlama shartnomalarga muvofiq almashinilgan Ruxsatnomalarni milliy tashuvchilarga yillik tarqatilishi hamda ularning qoldig'i o'rganilganligini alohida ta'kidlash joiz. Ushbu o'rganish natijasida almashinilgan Ruxsatnomalarning 65-70 % milliy tashuvchilar tomonidan xalqaro tashuvlarda qo'llanilmasdan qolib ketayotganligi ma'lum bo'ldi. (O'zbekiston Transport vazirligining rasmiy veb sahifasidan olingan ma'lumotlar asosida).

Jumladan, 2025-yil 3-chorak holatiga ko'ra O'zbekistonning savdo hamkori bo'lgan TOP-5 likdagi davlatlar, Rossiyaning 1,5 % (tranzit), Turkiyaning 63 % (ikki tomonlama), Xitoyning 26 % (ikki tomonlama), Qozog'istonning 60 % (uchinchi davlatga/dan) Ruxsatnomalari foydalanilmasdan qolgan. Mazkur raqamlardan o'zbek tashuvchilari uchun chet el Ruxsatnomalari yetishmovchiligi muammosi mavjud emasligini ko'rish mumkin [7].

O'z navbatida, 2025-yilning o'tgan davri davomida O'zbekiston Respublikasi hududi orqali amalga oshirilgan xalqaro tashuvlar bojxona organlari axborot tizimlarida qayd etilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.

Tahlil natijasida milliy tashuvchilar tomonidan eksport tovarlari yetkazib berilgan davlatlar Rossiya (49,7 %), Qozog'iston (13,1 %), Qirg'iziston (10,2 %), Afg'oniston (6,6 %), Turkiya (3,4 %), Tojikiston (1,9 %), Belorussiya (1,7 %), Turkmaniston (1,7 %), Ozarbayjon (1,5 %), Pokiston (1,2 %) va boshqa davlatlar (9 %) ulushiga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi.

Mazkur tahlillar natijasida aniqlangan mamlakatlar bilan "E-Permit" tizimini joriy qilish zarurati yuzaga kelib, Qozog'iston, Turkiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston davlatlari bilan "E-Permit" tizimi joriy qilingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilib aytganda ruxsatnoma hujjatining milliy transport kompaniyalariga tarqatilib, ularga shartnoma asosida faoliyat yuritayotgan haydovchilarga har xil "to'lovlar" shaklida pullab kelinayotganligi O'zbekiston milliy transport-logistikasi qimmatligiga, natijada esa xorijiy tashuvchilarga nisbatan o'zining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Istiqbolda esa, amaldagi mazkur holat transport xarajatlarining qimmatligi sabab O'zbekiston eksport tovarlarining jahon bozorida o'zining raqobatga dosh bera olmasligi, milliy mahsulotlarning dunyo bozorlarida o'rnining yo'qotilishi, natijada esa mamlakat tashqi savdo aylanmasida salbiy saldoning oshishiga olib kelishi ko'rish mumkin.

Mazkur maqolada ko'rsatilgan muammoni yechish maqsadida quyidagi takliflar beriladi:

"E-Permit" tizimidan foydalanish, ushbu tizimda ruxsatnomalar kvotasini ayirboshlash mexanizmi, elektron ruxsatnomalar shakli va ularda davlat nazorati organlari tomonidan tegishli belgilar qayd etilishini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatni tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldagi "Avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashishning ruxsatnoma tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 277-sonli qarorini tubdan qayta ko'rib, milliy tashuvchilar manfaatlariga mos ravishda unga o'zgartirishlar kiritish. Unda ruxsatnomalarni faqatgina transport kompaniyalariga emas, balki xalqaro yuklarni tashish huquqiga ega bo'lgan barcha yuk-avtoulovlarga berish amaliyotini joriy etish;

ruxsatnoma hujjatlarini elektron shaklga bosqichma-bosqich o'tkazish, avtomobil transportida xalqaro yuk tashish bilan bog'liq

idoralararo xalqaro shartnomalarda “Elektron Ruxsatnoma” huquqiy tushunchasini va uni amalda joriy etish bo’yicha normalarni kiritish;

ruxsatnomalar bo‘yicha ma’lumotlarni, jumladan almashilgan, tarqatilgan, ishlatilgan hamda qoldiqlar soni bo‘yicha kunlik axborotni Transport vazirligining rasmiy veb-sahifasiga e’lon qilib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasida o‘zbek tilida nutq so‘zladi // https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/.

2. Xalqaro konferensiya siyosatshunoslarga yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda // https://uza.uz/uz/posts/halqaro-konferenciya-siyosatshunoslarga-yangi-imkoniyatlar-taqdim-etmoqda_288144.

3. https://mintrans.gov.ru va https://docs.cntd.ru Internet saytlari orqali olingan ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

4. Turkiyada xalqaro tashuvlar // https://www.mfa.gov.tr/turkiye_de-karayolu-tasimaciligi-.tr.mfa.

5. Türkiye ve Özbekistan yol haritasını belirledi! Dünyadaki ilk elektronik geçiş belgesi projesi olacak // https://www.or6.net/turkiye-ve-ozbekistan-yol-haritasini-belirledi-dunyadaki-ilk-elektronik-gecis-belgesi-projesi-olacak/.

6. YESMT xalqaro yuk tashishlar uchun ruxsatnomalar // https://www.gov.uk/guidance/ecmt-international-road-haulage-permits.

7. Avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish bo‘yicha berilgan ruxsatnomalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar // https://gov.uz/uz/mintrans/sections/view/16266.

KONTRAFAKT MAHSULOTLARINING NOQONUNIY AYLANUVIGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA ORGANLARINING ROLI

Shomirzayev Saxodulla Xasanboyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining
Dastlabki tergov va surishtiruv kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
e-mail: sahodulla2017@gmail.com

РОЛЬ ТАМОЖЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В БОРЬБЕ С НЕЗАКОННЫМ ОБОРОТОМ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ

Шомирзаев Саходулла Хасанбоевич,
Доцент кафедры Предварительного следствия и дознания
Правоохранительной академии Республики Узбекистан,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
e-mail: sahodulla2017@gmail.com

THE ROLE OF CUSTOMS AUTHORITIES IN COMBATING THE ILLEGAL TRADE OF COUNTERFEIT GOODS

Shomirzaev Sakhodulla Khasanboevich,
Associate Professor of Preliminary Investigation and
Inquiry Department of Law Enforcement Academy of the
Republic of Uzbekistan, PhD in Law
e-mail: sahodulla2017@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada kontrafakt mahsulotlarning noqonuniy aylanuvini oldini olish, bu borada bojxona organlari tomonidan olib borilayotgan ishlar, bojxona organlarining ushbu sohadagi faoliyatining asosiy mexanizmlari, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, bojxona organlarining mazkur yo‘nalishdagi rolini kuchaytirish uchun takliflar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kontrafakt, bojxona nazorati, tergovga qadar tekshiruv, intellektual mulk obyektlari, huquq egalari, jinoyat, ma’muriy javobgarlik, xavfni boshqarish, ekspertiza, elektron axborot tizimi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы предотвращения незаконного оборота контрафактной продукции, деятельность таможенных органов в данном направлении, основные механизмы деятельности таможенных органов в данной сфере, внесённые в законодательство изменения и дополнения, а также предложения по усилению роли таможенных органов в этой области.*

Ключевые слова: *контрафакт, таможенный контроль, доследсвенная проверка, объекты интеллектуальной собственности, правообладатели, преступление, административная ответственность, управление рисками, экспертиза, электронная информационная система.*

Abstract. *This article discusses the prevention of the illegal circulation of counterfeit products, the work carried out by customs authorities in this regard, the main mechanisms of customs authorities’ activities in this area, amendments and additions to legislation, and proposals to strengthen the role of customs authorities in this area.*

Key words: *Counterfeiting, customs control, pre-investigation inspection, intellectual property objects, rights holders, crime, administrative liability, risk management, examination, electronic information system.*

Bugungi kunda globallashuv, xalqaro savdoning ortishi hamda elektron tijoratning jadal rivojlanishi kontrafakt mahsulotlar aylanmasining yanada ortishiga sabab bo‘lmoqda. Kontrafakt mahsulotlar nafaqat iqtisodiyotga zarar yetkazadi, balki iste’molchilarning sog‘lig‘i, xavfsizligi va qonuniy manfaatlariga jiddiy tahdid soladi. Shu bois ham O‘zbekiston Respublikasida kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda bojxona organlari tomonidan kontrafakt mahsulotlarni aniqlash, ularning mamlakat hududiga kirib kelishining oldini olish va tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish sohasida asosiy vakolatli organ sifatida faoliyat yuritadi.

Kontrafakt mahsulotlar haqiqiy (original) mahsulotning yuqori narxlarda ekanligidan foydalanib, daromad olish maqsadida ishlab chiqariladi. Kontrafaksiya so‘zi keng ma’noda valyuta qimmatliklari va hujjatlarni qalbakilashtirishni, shu bilan birga, kiyim-kechak, sumkalar, oyoq kiyimlari, dori-darmon, avia va avto ehtiyot qismlar, soatlar, elektr jihozlar yoki ularning qismlari, kompyuter dasturlari, san’at asarlari, o‘yinchoqlar va kinolarning nusxalarini ishlab chiqarishni anglatadi. Kontrafakt tovarlarni ishlab chiqarishda, odatda, soxta kompaniya nomlari va brendlaridan foydalaniladi va natijada tovarlar bilan bog‘liq patent yoki savdo qonunbuzilishi hollari yuzaga keladi. Kontrafakt iste’mol mollari sifati past ekanligi bilan “nom qozongan”, ba’zida esa umuman iste’molga yaroqsiz bo‘lib chiqishi yoki tarkibida zararli elementlar bo‘lishi mumkin. Bu esa yuz minglab insonlarning o‘limiga olib keladi, yo‘l transport hodisalari va aviakatastroflarni, zaharlanishlarni va boshqa halokatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Hatto o‘lim to‘shagida yotgan bemor ham zararsiz, lekin yaroqsiz dori-darmonni iste’mol qilish orqali hayot bilan vidolashishi mumkin [1].

Kontrafakt tovarlar muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlar transmilliy jinoyatlar turkumiga kiradi. Shuning uchun ham bunday tovarlarning yirik qismi, taxminan 60-70 foizi Xitoy va Gongkong hissasiga to‘g‘ri kelayotgan bo‘lsa, Turkiya, Singapur va Birlashgan Arab Amirliklari bu borada yirik tranzit nuqtalari bo‘lib qolmoqda. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining “Trends in Trade in Counterfeit and Pirated Goods” [2] nomli hisobotiga ko‘ra, jahon savdosidagi qalbaki mahsulotlar ulushi 3,3% ni tashkil etmoqda, bu esa yiliga 464-500 mlrd. AQSH dollarida baholanmoqda. Bu esa, albatta, yashirin iqtisodiyotning yanada oshishiga zamin yaratadi, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, jumladan, bojxona organlaridan zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mazkur turdagi qonunbuzilishi holatlariga qarshi kurashish, amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirishni talab etadi.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasida ham bojxona organlari tomonidan kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashish uchun ham amalda, ham qonunchilik ijodkorligi jihatidan bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Buning asosiy mexanizmlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Xavfni boshqarish tizimini joriy etish. Mazkur tizim orqali bojxona xodimi tahlil va prognoz qilish orqali xavf guruhiga kiruvchi tovar partiyalarini oldindan belgilay oladi, bunda xavfni boshqarish tizimi taktikasi qo‘llanadi. Xavfni boshqarish tizimi taktikasi esa bu xavfni aniqlash va minimallashtirish, shuningdek bojxona qonunchiligi buzilishi holatlarini bartaraf etishda bojxona organlari mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va harakatlar majmuidan iborat bo‘ladi[3].

Xavfni boshqarish bo‘yicha tadbirlar uning ehtimolligini yoki natijaga ta’sir ko‘rsatish darajasini o‘zgartirishga bag‘ishlangan. Qoida tariqasida tadbirlar quyidagilarga yo‘naltirilgan bo‘ladi:

xavfdan qochish;

mavjud xavf darajasini qabul qilish;

xavf manbasini bartaraf qilish;

xavf paydo bo‘lishi ehtimolining o‘zgarishi;

xavf ta’sirining o‘zgarishi;

boshqa tomondan xavfni bo‘lib tashlash (masalan, xavfni sug‘urtalash) [4].

2. Intellektual mulk obyektlarining bojxona reyestrini yuritish.

Bojxona kodeksida bojxona organlari tomonidan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilishga oid alohida bobda, ya’ni 56-bobida iborat normalar belgilangan. Unga ko‘ra, bojxona reyestri tashkil etilib, huquq egasi tomonidan

belgilangan tartibda ariza berilishi asosida unga tegishli bo‘lgan intellektual mulk obyektlari bojxona reyestriga kiritiladi. Hozirgi kun holatiga yuritilayotgan bojxona reyestrida 447 ta intellektual mulk obyektlari ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Reyestrning doimiy yangilangan varianti Bojxona qo'mitasining veb-saytiga muntazam joylashtirib boriladi (imo.customs.uz/IMO_REESTR).

Intellektual mulk obyektlarining bojxona reyestri yuritilishining ahamiyati shundan iboratki, bu quyidagicha:

1. intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqni himoya qilish;

2. bu borada bojxona nazoratini o‘rnatish;

3. intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqning qiymatidan kelib chiqib, bojxona to‘lovlarining undirilishini ta’minlash;

4. kontrafakt mahsulotlar orqali zarar yetishini oldini olish, iste’molchilar xavfsizligini ta’minlash va manfaatlarini himoya qilish.

Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilishga oid mazkur normalarga ko‘ra, aniqrog‘i, Bojxona kodeksining 382-moddasiga[5] asosan, bojxona hududiga olib kiriladigan va ushbu hududdan olib chiqiladigan, shuningdek bojxona nazorati ostida turgan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning himoya qilinishini ta’minlash uchun bojxona organlari:

intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning buzilganlik belgilari mavjud bo‘lgan tovarlarni chiqarib yuborishni to‘xtatib turishi;

intellektual mulk obyektlarini o‘z ichiga olgan tovarlarni chiqarib yuborishni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilishi mumkin.

Undagi keyingi normalarda esa bojxona organlari olib kirilayotgan yoki olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayonida Intellektual mulk obyektlarining bojxona reyestriga kiritilgan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar buzilganligi belgilarini aniqlagan taqdirda amalga oshiriladigan harakatlar nazarda tutilgan. Bunday holatlarda bojxona organlarining huquq egasini bu haqda bir ish kuni ichida xabardor qilishi, xabardor qilingan sanadan e’tiboran bir ish kuni ichida huquq egasidan ariza kelib tushgan taqdirda — ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Bojxona kodeksining 382-moddasi asosida choralar ko‘rishi, huquq egalaridan ariza bojxona organlariga kelib tushmagan taqdirda — tovarni Bojxona kodeksiga muvofiq chiqarib yuborishni amalga oshirishi belgilangan.

3. Ekspertiza tekshiruvlarini o‘tkazish.

Ma’lumki, ekspertiza tekshiruvlari tovar belgisi, qadoqlash, markirovka va hujjatlarni chuqur o‘rganish lozimligini taqozo etadi. Bu, albatta, bojxona organlari mansabdor shaxslaridan kontrafakt mahsulotlarni identifikatsiya qilish borasida bilimlarini oshirib borish, tovarshunoslik ekspertizalarini o‘z vaqtida sifatli o‘tkazish salohiyati talab etiladi. Bunday mashg‘ulotlar kontrafakt mahsulotlar bevosita olib o‘tiladigan bojxona punktlarida o‘tkazilishi lozim bo‘ladi. Bularning hammasi mansabdor shaxslarning kontrafaksiya bilan qarshi kurashish bo‘yicha malakasini oshirib, bilimlarini mustahkamlaydi[6].

4. Huquq egalari bilan hamkorlik.

Bojxona organlari xavfni boshqarish tizimini hamda bojxona reyestrini yuritish, ekspertlik tekshiruvlarini o‘tkazish bilan birga, huquq egalari bilan hamkorlikni nafaqat yo‘lga qo‘yish, balki uni rivojlantirish lozim bo‘ladi.

Intellektual mulk obyektlarining bojxona reyestriga kiritilgan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning buzilganligi bo‘yicha bojxona organlarining huquq egalari bilan rasman hamkorlik qilishi Bojxona kodeksida belgilab berilgan. Jumladan, intellektual mulk obyektlarining bojxona reyestriga kiritish to‘g‘risidagi ariza huquq egasi yoki uning vakolatli vakili tomonidan elektron shaklda bojxona organlarining axborot tizimi orqali bojxona organiga beriladi. Bu ariza orqali tegishli intellektual mulk obyektlari bojxona reyestridan o‘tkaziladi. Bundan tashqari, Bojxona kodeksining 388-moddasiga ko‘ra, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish to‘g‘risidagi ariza huquq egasi yoki uning vakolatli vakili tomonidan bojxona organlariga beriladi. Ushbu arizada quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

himoya qilinishi uchun ariza berilayotgan, intellektual mulk obyektlarini o‘z ichiga olgan

tovarlarning tavsifi;

huquq egasining fikricha, uning intellektual mulk obyektiga bo‘lgan huquqlarini buzayotgan tovarlarning, bojxona organlari bunday tovarlarni aniqlay olishi uchun yetarlicha batafsil tavsifi, agar huquq egasi yoki uning vakolatli vakili shunday ma’lumotlarga ega bo‘lsa;

taxmin qilinayotgan huquqbuzarlikni aniqlashga ko‘maklashadigan har qanday boshqa axborot (eksport qiluvchi, import qiluvchi yoki yukni qabul qiluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar). [5]

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 8-avgustdagi O‘RQ-1080-son Qonuni bilan ma’muriy javobgarlik hamda jinoyat qonunchiligiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Shu munosabat bilan bojxona qonunchiligiga ham tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish talab etiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasi “Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzish” nomi bilan yangi tahrirda o‘zgartirildi. Bundan tashqari, 149^1-moddasi (Mualliflik huquqini va turdosh huquqlarni buzish), 149^2-moddasi (O‘zganing tovar belgisidan, xizmat ko‘rsatish belgisidan, geografik ko‘rsatkichidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki adashtirib yuborish darajasida ular bilan o‘xshash bo‘lgan belgilardan shu turdagi tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan qonunga xilof ravishda foydalanish yoxud o‘zganing firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish), 149^3-moddasi (Ixtiroga, foydali modelga, sanoat namunasiga, integral mikrosxema topologiyasiga va seleksiya yutug‘iga bo‘lgan huquqlarni buzish) kabi yangi moddalar kiritildi. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning[1] 177-moddasi *(O‘zganing tovar belgisidan, xizmat ko‘rsatish belgisidan, geografik ko‘rsatkichidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki adashtirib yuborish darajasida ular bilan o‘xshash bo‘lgan belgilardan shu turdagi tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan qonunga xilof ravishda foydalanish yoxud o‘zganing firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish)* va 177^1-moddasi *(Mualliflik huquqini va turdosh huquqlarni buzish)* ga tegishli o‘zgartirishlar kiritilib, 177^2-moddasi *(Ixtiroga, foydali modelga, sanoat namunasiga, integral mikrosxema topologiyasiga va seleksiya yutug‘iga bo‘lgan huquqlarni buzish)* yangi tahrirda bayon etildi.

Mazkur o‘zgartirish va qo‘shimchalar kontrafakt mahsulotlarni aniqlash va bunday qonunbuzilishi holatlariga tegishli choralar ko‘rishga, mazkur holatlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari o‘tkazib, qonuniy qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lgan bojxona organlari uchun katta mas’uliyat yuklaydi.

Bu borada qonunlar ijrosini ta’minlash, ma’muriy javobgarlik hamda jinoyat qonunchiligiga kiritilgan so‘nggi o‘zgartirish va qo‘shimchalar asosida bojxona qonunchiligiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, bojxona organlarining nafaqat bojxona reyestri asosida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, balki mazkur sohada qonunbuzilishiga yo‘l qo‘ygan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari va fuqarolarning ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortish choralarini ko‘rishi lozim bo‘ladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, kontrafakt mahsulotlarning noqonuniy aylanuviga qarshi kurashishda bojxona organlarining rolini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagicha takliflar ilgari suriladi:

Xavfni boshqarish tizimi orqali kontrafakt mahsulotlarni olib kirish, olib chiqish yoki tranzit olib o‘tish bo‘yicha huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari, mazkur huquqbuzarliklar bilan bog‘liq transport vositalari, bojxona brokerlari yoki bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha mutaxassislarga oid ma’lumotlarni to‘plash va joriy etish orqali nazoratni yanada kuchaytirish.

Mazkur ma’lumotlar shu vaqtga qadar yuritilgan bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar hisobi hamda bojxona reyestriga oid ma’lumotlar, shu bilan birga, adliya organlari tomonidan aniqlangan qonunbuzilishi holatlariga oid ma’lumotlardan iborat bo‘ladi.

Bojxona reyestrini yuritishga oid qoidalarni yanada takomillashtirish.

Ma’lumki, AQShning chegara bojxona xizmatlari tomonidan IPRR *(Intellectual Property Rights e-Recordation)* axborot tizimi, Yevropa Ittifoqi bojxona xizmatlari tomonidan esa COPIS *(Counterfeit and Piracy Information*

System) axborot tizimlaridan foydalaniladi. Ularda nafaqat xorijiy brendlar bo‘yicha huquq egalari yoki ularning vakillarining arizalari, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarga oid intellektual mulk obyektlari ham ro‘yxatga olinadi. Shu bilan birga, mazkur axborot tizimlari bir martalik ariza berish bosqichiga ega, bojxona reyestriga ro‘yxatga olingan intellektual mulk obyektlari shu paytdan boshlab faol himoyasi ta’minlanadi. Demak, bojxona reyestriga oid qoidalar ushbu shaklda yuritilsa, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 388-moddasida qayd etilgan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish to‘g‘risidagi ariza lozim bo‘lmaydi. Shu bilan birga, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish bo‘yicha elektron axborot tizimini joriy etish va unga murojaatlarini sodda va tushunarli shaklda elektron qabul qilinishini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Chegara bojxona postlari xodimlariga “ex-officio” vakolati asosida kontrafakt mahsulotlarning noqonuniy aylanuviga bojxona chegarasida chek qo‘yish.

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 fevraldagi O‘RQ-913-son Qonuni bilan kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar asosida Bojxona kodeksi 382^1-382^2-moddalar bilan to‘ldirilgan. Unga ko‘ra, intellektual mulk obyektlarining bojxona reyestriga kiritilgan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish bo‘yicha bojxona organlarining harakatlari belgilab berilgan. Ya’ni bojxona organlari olib kirilayotgan yoki olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayonida intellektual mulk obyektlarining bojxona reyestriga kiritilgan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar buzilganligi belgilarini aniqlagan taqdirda:

huquq egasini bu haqda bir ish kuni ichida xabardor qiladi;

xabardor qilingan sanadan e’tiboran bir ish kuni ichida huquq egasidan ariza kelib tushgan taqdirda — ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Bojxona kodeksining 382-moddasiga muvofiq choralar ko‘radi;

huquq egalaridan ariza bojxona organlariga kelib tushmagan taqdirda — tovarni Bojxona kodeksiga muvofiq chiqarib yuborishni amalga oshiradi.

Ammo bu “ex-officio” vakolatining samarali va to‘liq ishlashini ta’minlamaydi. Ushbu vakolatdan bojxona organlari tomonidan samarali foydalanilishini uchun birinchi o‘rinda har bir chegara bojxona postida intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish bo‘yicha elektron axborot tizimi asosida faoliyatni yo‘lga qo‘yish, shuningdek huquq egasini xabardor qilibgina qolmay, tergovga qadar tekshiruv ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bu vakolatdan foydalanishda esa huquq egasining arizasi kelib tushishiga ehtiyoj bo‘lmaydi. Ariza kelib tushgan taqdirda ham ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Bojxona kodeksining 382-moddasida ko‘rsatilgan choralarni emas, ma’muriy javobgarlik hamda jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan moddalar asosida aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish choralarini ko‘rish lozim bo‘ladi.

Kontrafakt mahsulotlarning bojxona chegarasidan olib o‘tilishi hamda mamlakat ichki hududida noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish yuzasidan adliya, soliq hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti kabi mas’ul idoralar bilan ma’lumot almashuv va tezkor tadbirlar tashkil etish yuzasidan hamkorlikni kuchaytirish.

Hozirda, asosan, dori vositalari, alkogolli va tamaki mahsulotlariga oid kontrafakt mahsulotlarning bojxona organlari tomonidan yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda ushlab qolingan hollar mavjud. Jumladan, 2025-yil dekabr oyida tashkil etilgan yo‘q qilish tadbirida 6 ta holatda huquqbuzarlardan ashyoviy dalil sifatida olib qo‘yilgan 9 mlrd. 800 mln. so‘mlik jami 421500 quti tamaki mahsulotlari yo‘q qilingan. Bu tamaki mahsulotlari aksiz markalari bilan qadoqlanmaganligi, davlat tilidagi ogohlantirishlar bo‘lmaganligi sababli kontrafakt mahsulotlar hisoblanadi. Yoki faoliyat bilan litsenziyasiz yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz yoxud xabarnoma yubormasdan shug‘ullanish holatlari bo‘yicha kontrafakt disklarni ushlab qolish holatlari aniqlangan. Masalan, “Farg‘ona” chegara bojxona postida xorijda ishlab chiqarilgan 5400 dona disklarni noqonuniy ko‘paytirish maqsadida bojxona nazoratidan yashirib olib kirish holati, Jizzaxda

esa fuqaro A.Qosimovning xonadonidan 3135 dona uy sharoitida ko‘paytirilgan kontrafakt disklar borligi aniqlanib, belgilangan tartibda hujjatlar rasmiylashtirilgan[13]. Ammo har qanday tovar va mahsulotlarning kontrafakt nusxasi uchrashi mumkinligini inobatga olib, ayniqsa, dori-darmon, oziq-ovqat va parfyumeriya mahsulotlari, avtomoto va avia ehtiyot qismlarining qalbaki nusxalarining noqonuniy aylanmasini oldini olishda, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning intellektual mulkka oid huquqlarining to‘la va sifatli himoyasini ta’minlashda bojxona organlarining boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mas’ul tashkilotlar va muassasalar hamda faol fuqarolar bilan hamkorlikni kuchaytirishi lozim. Zero, kontrafakt mahsulotlarning noqonuniy harakatining oldini olish bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatining ajralmas qismi va sharafli burchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.Shomirzayev. Kontrafakt tovarlar: jinoyatga sherik bo‘lmang. Huquq va burch. №6/2015. 36-b.

2.oecd.org/content/dam/en/publications/reports/2019/03/trends-in-trade-in-counterfeit-and-pirated-goods

3. A.X.Akbarov, A.A.Uzoqov. Xavfni boshqarish tizimi. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2019, 44-bet

4. А.Л.Лисовский. Снижение рисков незаконного оборота промышленной продукции для достижения целей устойчивого развития. Стратегические решения и риск-менеджмент, 13(1): 56-71.

5. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi.

6. М.А.Петрова. Проблемы выявления контрафактной продукции таможенными органами РФ // Вестник науки. 2021. №2(35).

7. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.

9. O‘zbekiston Respublikasining 08.08.2025-yildagi O‘RQ-1080-son Qonuni.

10. O‘zbekiston Respublikasining 27.02.2024-yildagi O‘RQ-913-son Qonuni.

11. daryo.uz/uz/2017/05/18/bojxona-xodimlari-respublika-hududiga-kontrafakt-disklar-kirib-kelishining-oldini-oldi

12. www.oecd.org

13. www.iprr.cbp.gov

14. www.euipo.europa.eu

15. www.lex.uz

16. www.daryo.uz

17. t.me/s/@customschannel

O'ZBEKISTON BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH BOJXONA REJIMINI QO'LLASHNI KENGAYTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTI

Lutpullayev Shukrullo Kudratullayevich,
Bojxona instituti Bojxona nazorati
kafedrasi boshlig'i, dotsent

ПРАКТИКА ИНОСТРАННЫХ ГОСУДАРСТВ В РАСШИРЕНИИ ПРИМЕНЕНИЯ ТАМОЖЕННОГО РЕЖИМА ПЕРЕРАБОТКИ НА ТАМОЖЕННОЙ ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

Лутпуллаев Шукрулло Кудратуллаевич,
Начальник кафедры Таможенного контроля
Таможенного института, доцент

THE PRACTICE OF FOREIGN COUNTRIES IN EXPANDING THE APPLICATION OF THE CUSTOMS REGIME OF PROCESSING IN THE CUSTOMS TERRITORY OF UZBEKISTAN

Lutpullayev Shukrullo Kudratullayevich,
Head of the Department of Customs Control
Customs Institute, Associate Professor

Annotatsiya. *Mazkur tahliliy maqolada O'zbekiston bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganilgan. Xususan, Yevropa Ittifoqi, Janubi-Sharqiy Osiyo, Koreya Respublikasi va Turkiya amaliyotlari tahlil qilinib, qayta ishlash rejimining eksportni rag'batlantirish, texnologik modernizatsiya va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida qayta ishlash rejimining samaradorligini oshirish bo'yicha institutsional, huquqiy va tashkiliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *qayta ishlash bojxona rejimi, bojxona ma'muriyatchiligi, xalqaro tajriba, qayta ishlash uchun olib kirish, eksport salohiyati, qo'shilgan qiymat, sanoat kooperatsiyasi, bojxona imtiyozlari.*

Аннотация: *В данном аналитическом статье изучается международная практика применения таможенного режима переработки на таможенной территории и возможности расширения его использования в Узбекистане. Проанализирован опыт Европейского Союза, стран Восточной Азии, Республики Корея и Турции, в том числе механизмы стимулирования экспорта, внедрения современных технологий и углубления производственной кооперации. Представлены институциональные, правовые и организационные предложения по повышению эффективности применения режима переработки на таможенной территории Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *режим переработки на таможенной территории, таможенное администрирование, международный опыт, ввоз для переработки, экспортный потенциал, добавленная стоимость, производственная кооперация, таможенные преференции.*

Abstract. *This analytical article examines international practices in the application of customs processing regimes in customs territories and the possibilities for expanding their use in Uzbekistan. It analyzes the experience of the European Union, East Asian countries, the Republic of Korea, and Turkey, including mechanisms for stimulating exports, introducing modern technologies, and deepening production cooperation. Institutional, legal and organizational proposals are presented to improve the effectiveness of the processing regime in the customs territory of the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *processing regime in the customs territory, customs administration, international experience, import for processing, export potential, added value, production cooperation, customs preferences.*

KIRISH

Bugungi tez o‘zgarib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodining barqaror suratlarda o‘sib borishini ta’minlash uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga erishish dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy moslashuvchanlikni joriy etish, O‘zbekiston tovarlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va eksportni qo‘llab quvvatlashda bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimining o‘rni beqiyos.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida istiqbolli sanoat sohalarini rivojlantirish masalasiga alohida urg‘u berilib, shu bilan birga, “bojxona hududida qayta ishlash rejimi”da sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish zarurligi ta’kidlab o‘tildi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashning asosiy yo‘llaridan biri bu mamlakat sanoatining raqobatbardoshligini oshirish orqali eksport salohiyatini mustahkamlash hisoblanadi.

Bojxona hududida qayta ishlash rejimining asosiy afzalligi shundan iboratki, bunda mamlakat ishlab chiqaruvchilari eksport qilinadigan tovarlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan xorijdan import qilinadigan xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarni bojxona to‘lovlari to‘lanmagan holda olib kirib, ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa o‘z navbatida, eksport tovarlarining narxini pasaytirish orqali raqobatbardoshlikka erishishga va eksport hajmining ortishiga xizmat qiladi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Qayta ishlash rejimlari talablarini soddalashtirish va optimallashtirish choralari mavzusiga aloqador amaliy va nazariy yondashuvlar bo‘yicha mahalliy hamda xorij olimlari tomonidan o‘rganilganlik darajasini aniqlash, yoritish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiya, monografiya, maqolalar tahlil qilindi.

Hozirgi kunga qadar xorijiy ilmiy adabiyotlarda qayta ishlash bojxona rejimlari muammosi asosan ikki asosiy konseptual yo‘nalish doirasida tadqiq etilgan.

Birinchi yo‘nalishda J.Ber, A.Shranke va G.Gereffi kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida qayta ishlash rejimlaridan foydalanuvchi kompaniyalarning korporativ tuzilmasi, ishlab chiqarish modellari hamda global qiymat zanjirlaridagi strategik o‘rni tahlil qilingan. Ushbu yondashuv doirasida mualliflar qayta ishlash bojxona rejimlarini, avvalo, transmilliy kompaniyalar faoliyatini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarishni geografik jihatdan diversifikatsiyalash vositasi sifatida ko‘rib chiqqanlar. Bunda davlatning tartibga soluvchi roli ikkilamchi omil sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi yo‘nalishda esa F.Lemoyn, M.Kurtz va A.Gurmanlarning tadqiqotlarida qayta ishlash bojxona rejimlarini davlat va bojxona ma’murchiligi tomonidan tartibga solish mexanizmlari markaziy o‘ringa qo‘yilgan. Mazkur ishlarda bojxona hududida qayta ishlash rejimini qo‘llash uchun huquqiy-me’yoriy baza, soliq va bojxona imtiyozlari tizimi, investitsiya muhiti hamda davlatning rag‘batlantiruvchi siyosati kompleks tarzda tahlil qilingan. Ushbu yondashuv qayta ishlash rejimlarining iqtisodiy samaradorligini davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan baholashga yo‘naltirilgan.

Qayta ishlash bojxona rejimlarini huquqiy jihatdan tartibga solish va normativ bazani takomillashtirish masalalari V.Egiazarova va R.Kasimbekovlarning ilmiy tadqiqotlarida chuqur yoritilgan bo‘lib, ularda amaldagi bojxona qonunchiligidagi bo‘shliqlar, kolliziyalar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan.

Shuningdek, N.Babichev, V.Lyashenko va N.Osadcha kabi olimlarning ilmiy ishlarida qayta ishlash bojxona rejimlarini qo‘llashning iqtisodiy va tashkiliy samaradorligini oshirish, jumladan, ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, bojxona nazoratini optimallashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi va ularning qonunchilik normalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda bojxona hududida qayta ishlash rejimlarini qo‘llash jarayonlarining yuqori darajada soddalashtirilganligi, avtomatlashtirilganligi hamda xalqaro bojxona standartlariga muvofiqlashtirilganligi ushbu mamlakatlarda qayta ishlash operatsiyalarining keng qo‘llanilishiga va ularning iqtisodiy ulushining oshishiga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimlarini qo‘llashning tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan asoslash maqsadida kompleks, tizimli va ko‘p bosqichli metodologik yondashuv qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish yo‘nalishida olib borilayotgan islohotlar hamda tadbirkorlik subyektlariga yaratilayotgan yengilliklarni ko‘paytirish tashqi savdoning jadal rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Bunda, tashqi iqtisodiy faoliyat (keyingi o‘rinlarda – TIF) subyektlari tomonidan bojxona chegaralari orqali olib o‘tilayotgan tovarlar uchun qisqa muddatda:

majburiy ruxsat etish xususiyatiga ega bo‘lgan hujjatlarni olish;

tegishli bojxona rejimlariga joylashtirish shiddat bilan rivojlanayotgan bojxonaning asosiy talabi hisoblanadi [1].

Bojxona hududida qayta ishlash rejimini qo‘llanilishini soddalashtirish maqsadida 2022-yil 25-aprelda “Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi qo‘llanilishini soddalashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–115-sonli Farmon qabul qilindi. Mazkur Farmonga ko‘ra tovarlarning bojxona hududida qayta ishlanganligini ko‘rsatuvchi o‘zgartirish kiritishlar tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyalari bo‘lib, ular quyidagilar:

olib kirilgan tovarni uning dastlabki xossalari va individual ko‘rsatkichlarini o‘zgartirib, lekin qayta ishlash mahsulotida uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi tovar xususiyatlarini saqlagan holda bevosita qayta ishlash yoki unga ishlov berish;

olib kirilgan tovardan foydalangan holda boshqa tovar tayyorlash, shu jumladan montaj qilish, yig‘ish yoki qismlarga ajratish;

tovarni ta’mirlash, shu jumladan uni tiklash va tarkibiy qismlarini almashtirish;

qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarishga ko‘maklashuvchi yoki ularning ishlab chiqarilishini yengillashtiruvchi boshqa tovarlardan, agar bu tovarlar qayta ishlash jarayonida to‘liq yoki qisman ishlatilsa, xomashyo sifatida foydalanish;

tovarlarni qadoqlash, o‘rash (shu jumladan, qayta o‘rash), saralash, tozalash, boshqa

1-jadval

2024-yilda bojxona hududida qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirilgan tovarlar ulushi foizlarda

Tovar nomi	Stat qiymat	Ulushi
Bug‘doy	236793,32	30,3
Avtomobil uchun benzin	149481,89	19,1
Avtomobil ehtiyot qismlari	66569,92	8,5
Avtomobil	46583,27	6,0
Mineral o‘g‘itlar	32938,31	4,2
Kir yuvish mashinasi	20405,76	2,6
Avtomobil ehtiyot qismlari	18842,01	2,4
Yong‘oqli mahsulotlar	18492,99	2,4
Kungaboqar yog‘i	13437,56	1,7
Boshqalar	178817,33	22,9
Jami	**782362,36**	**100**

Manba: Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

tovarlarga moslashtirish va uskunalarni modernizatsiya qilishdan tashkil topgan.

Ushbu farmonning yuqoridagi bandidan asosiy maqsad, bojxona hududida qayta ishlash operatsiyalarining sonini oshirish orqali qayta ishlanuvchi tovar turkumlari sonini oshirish hisoblanadi. Lekin, bugungi kunda bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga rasmiylashtirilayotgan tovarlarning turkumlari sonini oshirish dolzarb muammoligicha qolmoqda. 2024-yilda bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan tovarlar to‘g‘risida ma'lumot 1-jadvalda keltirilgan.

